

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

2022 Vol. 3

**www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosarlari: Zaynobbiddin Abdirashidov
Qosimboy Ma'murov
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G'aybulla Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Anvar Sayfullayev.

Tahrir hay'ati

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Üşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyoung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Oqilxon Ibrohimov (O'zbekiston)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov
Deputy Editors in Chief: Zaynabiddin Abdirashidov
Kasimbay Mamurov
Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Anvar Sayfullaev.

Editorial Committee

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdulahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Oqilkhon Ibrohimov (Uzbekistan)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

To'lqin Tog'ayev

XX asrning 20-30-yillarida O'zbekistonda til va yozuv siyosati.....6

Mardon Rahmatov

Alisher Navoiyning lirik asarlarida takrirlarning sintaktik-
semantik xususiyatlari.....23

Abdumannon Hasanov

Lakuna – til va madaniyatning mushtarak muammosi.....31

Muhammadsolih Tursunov

Alpomish dostoni matnlarining alfavit va chastotali lug'atlari hamda
statistik tahlillari.....47

Gulnoraxon Niyazova

Jahon tilshunosligida detektiv asarlarning lingvistik aspektda
o'rganilish davrlari.....62

Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik

Zaynabidin Abdirashidov

“Shimol shamoli” yoki Buxoroning uyg'onishi: Istanbuldan bir nazar.....75

Gulbahor Ashurova

Tarixiy shaxs tasvirida tarixiy fakt va talqin muammosi.....100

CONTENT

Linguistics

Tulqin Tog'ayev

Language and writing policy in Uzbekistan in the 20s-30s
of the 20th century.....6

Mardon Rahmatov

In the lyrical works of Alisher Navoi, the syntactic
semantic features.....23

Abdumannon Hasanov

Lacuna is a common problem of language and culture.....31

Muhammadsolih Tursunov

Alphabetical and frequency dictionaries and statistical analyzes
of Alpomish epic texts.....47

Gulnorkhon Niyazova

Periods of study of detective works in linguistic aspect in world linguistics.....62

Literature. Translation studies

Zaynabidin Abdirashidov

“North wind” or the Awakening of Bukhara: a view from Istanbul.....75

Gulbahor Ashurova

The problem of historical fact and interpretation in the portrait
of a historical person.....100

XX asrning 20-30-yillarida O'zbekistonda til va yozuv siyosati

To'lg'in Tog'ayev¹

Abstrakt

Ushbu maqolada o'tgan asrning 20-30-yillarida Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasida, keyinchalik O'zbekiston SSRda milliy tillarning teng huquqliligi, ularning rivojlanishini ta'minlash, davlat tili ish yuritish, davlat va jamiyat boshqarishini mahalliyashtirish masalalari to'g'risida kommunistik partiya va sho'rolar hukumati tomonidan qabul qilingan turli darajadagi dekretlar, qaror va boshqa huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyati, bularga binoan respublikada amalga oshirilgan tadbirlar yoritilgan. Shuningdek, XX asrning birinchi choragida Turkiston ziyolilari tomonidan alifbo va imloni isloh qilish, keyinchalik O'zbekistonda yozuvni lotin alifbosiga ko'chirish harakatlari tadqiq etilgan. Ushbu jarayonlar tufayli o'zbek ziyolilari o'rtasida yuzaga kelgan ziddiyatlarga baho berilgan. Umuman, O'zbekistonda yuritilgan til siyosati, yozuv islohoti va o'zgarishi qanday kechganligi, uning sabablari, mohiyati, natijalari birlamchi manbalar asosida yoritildi.

Kalit so'zlar: *milliy tillar, davlat tili, mahalliyashtirish, alifbo, imlo, islohot, yozuv o'zgarishi*

Kirish

Tilning taraqqiy topishi jamiyat sotsial strukturasining rivojlanishi bilan ma'lum bir bog'liqlikda bo'ladi. Ijtimoiy formatsiya qanchalik murakkab bo'lsa, tilning ijtimoiy funksiyasi shunchalik murakkab bo'ladi. Buning natijasida ushbu tilning tuzilishi murakkab, rang-barang va boy bo'ladi. Tilning nisbatan murakkab ijtimoiy funksiyasi uni hamma sohalarida rivojlanishini tezlashtiradi. Tilning taraqqiy etishiga, boy terminalogiya hamda grammatik qurilishga ega yuksak rivojlangan tilga aylanishiga imkon tug'diradi.

Har qanday til shu til egalari taraqqiyotning qaysidir ijtimoiy

¹ Tog'ayev To'lg'in Mamanazarovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: tm-togay@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-0809-3198

Iqtibos uchun: Tog'ayev T.M. 2022. "XX asrning 20-30-yillarida O'zbekistonda til va yozuv siyosati". O'zbekiston: til va madaniyat 3:

past darajasida bo'lmasin, tarixiy sharoitlarning o'zgarishi va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida rivojlanish va taraqqiy etishning potensial imkoniga ega bo'ladilar. Jamiyatning rivojlanish jarayonida gohida shunday sharoitlar vujudga keladiki, bunday paytda ayrim tillarning ijtimoiy funksiyasi favqulodda kengayadi, tilning tezdan qaytadan qurilishi va yuzaga kelgan yangi sharoitga moslashishi ro'y beradi. O'tgan asr boshlarida oktyabr inqilobidan keyin hozirgi o'zbek tili tarixida mana shunday shart-sharoit yuzaga keldi. Umuman, sho'rolar mamlakatidagi barcha xalqlar tillarida chuqur o'zgarishlarni vujudga keltirdi.

Bir necha adabiy tillar foydalangan eski arab alfaviti unlilar uchun olingan harflar miqdori va unlilarni ifodalashdagi kelishmovchilik tufayli yangi talablar qondirilmas edi va yozuv taraqqiyotining daslabki bosqichlaridayoq arab alfavitini isloh qilishga urunish bo'ldi. Isloh etilgan arab alfaviti uni maktablarda o'rganishda bir muncha qulayliklar tug'dirdi. Bundan tashqari, o'z asosiga ko'ra jonli so'zlashuv tilidan uzoq turgan eski yozuv tili normalaridan qutilishga yordam berdi. Turkiy tillar, xususan, o'zbek adabiy tilini isloh etish va shakllantirishda yangi lotin alifbosi sezilarli rol o'ynadi. Uni ishlab chiqish va hayotga tatbiq qilish Yangi alifbo Markaziy komiteti va uning ilmiy kengashi rahbarligi ostida Yangi alfavit mahalliy komitetlari tomonidan amalga oshirildi.

Demak, o'zbek milliy tili rivojlanishining daslabki bosqichi yozuv tilining eski me'yorlarida, uning adabiy an'alarida, eski arab alifbosida qolish tarafdorlari bo'lgan aholining eski qatlamlari bilan kurash orqali xarakterlanadi. Yangi siyosiy jarayonlar, inqilobiy o'zgarishlar, sovet hokimiyatining til siyosati, iqtisodiy, madaniyat sohalarining rivojlanishi, yangi ijtimoiy sharoitlar milliy tilning, o'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida o'z ta'siriga ega bo'ldi.

Sho'rolar hokimiyatining dastlabki davrlarida O'zbekistonda til siyosati

1917-yil oktyabr inqilobidan keyin Rossiyada dunyoda o'xshashi bo'lmagan yangi til siyosatini amalga oshirishga harakat qilindi. Milliy va til siyosatining asosiy tamoyillari kommunistik partiya dohiysi va sho'rolar tuzumi asoschisi V. I. Lenin tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, yangi tuzumning shakllanishi yillarida hayotga tatbiq etila boshladi.

Adolat yuzasidan aytish kerakki, sovet hokimiyatining birinchi o'n yilligida milliy tillarning rivojlanishi uchun ma'lum

qulay sharoitlar yaratilgan. Dastlab Stalin boshchiligidagi Millatlar Xalq Komissarligi tuzildi. 1917-yil 15-noyabrda qabul qilingan "Rossiya xalqlarining huquqlari deklaratsiyasi" millatlarning o'zaro tengligini e'lon qildi. Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va Xalq Komissarlari Kengashining 1918-yil 15-fevraldagi 2-sonli dekretida sud muhokamasining barcha instansiyalarida barcha mahalliy tillarning qo'llanilishi to'g'risida qaror qabul qilindi [Исхан 2014, 141-142]. Fuqarolar urushining og'ir yillarida ham Rossiya Xalq Komissarligi 1918-yil 31-noyabrda "Mayda millatlar maktabi to'g'risida"gi qarorni e'lon qildi.

Turkiston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasi (TASSRda) da ham 1918-yildan milliy tillar masalasi bo'yicha qizg'in ish olib borildi. Leninning 1919-yilda yozgan "O'rtoq Turkiston kommunistlariga" maktubida shu jumalarni o'qiyviz: "Sho'ro Ishchi va Dehqon Respublikasining kuchsiz, shu paytgacha mazlum xalqlarga munosabati butun Osiyo va dunyoning barcha mustamlakalari uchun, millionlab kishilar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'ladi... Turkiston xalqlari bilan to'g'ri munosabatlar o'rnatish endilikda RSFSR uchun hech mubolag'asiz, ulkan, jahoniy-tarixiy ahamiyatga ega deyish mumkin" [Ленин 1970, 304].

Ko'p o'tmay Leningning o'rnini egallagan sho'rolarning yana bir yo'lboshchisi I.V.Stalin ham Turkiston masalasiga doim favqulodda ahamiyat berib keldi. Bu uning nutqlarida yaqqol o'z aksini topgan. U shunday yozgan edi: "Vazifa Turkistonni namunali respublikaga, Sharqni inqiloblashtiradigan ilg'or postga aylantirishdan iborat. Shuning uchun ham xalq ommasining madaniy saviyasini oshirish, davlat apparatini milliylashtirish va hokazo ma'noda butun e'tiborni Turkistonga qaratish zarur. Biz bu vazifani nima bo'lgan taqdirda ham, ayamasdan, qurbonlar berib bo'lsa-da bajarishimiz kerak [Сталин 1923].

Oktyabr o'zgarishidan keyingi davrda Sovet davlati oldidagi ustuvor vazifalardan biri savodsizlikni yo'qotish va faoliyatning turli sohalari uchun milliy kadrlar tayyorlash edi, shuning uchun partiya va hukumatning ko'plab asosiy hujjatlari ishlab chiqildi va e'lon qilindi. Aytish mumkinki, ular madaniy inqilobga turtki berdi. Bu hujjatlar qatorida, birinchi navbatda, "RSFSR aholisi o'rtasida savodsizlikni tugatish to'g'risida"gi Dekret (1919-yil 26-dekabr) o'rin oladi.

E'lon qilingan hujjatlar va ularning ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlardan ma'lumki, 1917-yildagi inqilobiy voqealar, fuqarolar urushi, ma'muriy-hududiy o'zgarishlarga

qaramay, mamlakatning partiya-davlat organlari maktab ta'limini rivojlantirishga, savodsizlikni tugatishga, kadrlar tayyorlashga, maktab ta'limini kengaytirish, nashriyot, aholi o'rtasida siyosiy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga katta e'tibor berdilar. 1918-yildayoq rus tili bilan bir qatorda milliy tillar ham avtonom respublikaning davlat tili sifatida qonuniy mustahkamlanganligi muhim ahamiyat kasb etdi. Sovet hukumati tillar tengligini, maktabda o'z ona tilida o'qish huquqini e'lon qildi. Umuman olganda, xalqlarining ta'lim yo'nalishida ijobiy siljishlar bo'ldi.

Endi bevosita TASSRda, 1924-yildan esa O'zbekiston SSRda milliy tillarning davlat va jamiyat qurilishida qo'lininishiga e'tibor qaratsak, bu borada dastlabki yilalarda siljishlar yuz berganiga guvoh bo'lamiz. Xususan, TASSR tashkil topgach, kommunistik partiya va sovet hukumati tomonidan bu o'lkada mahalliy tillar huquqini tiklash, ularni amalda qo'llash bo'yicha bir qator rasmiy hujjatlar qabul qilindi. Bularning dastlabkisi 1918-yil 9-avgustda e'lon qilingan Turkiston jumhuriyati Markaziy Ijroiya Qo'mitasining davlat tili haqidagi 30-sonli buyrug'idir [O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, P-17-fond, 1-ro'yxat, 171-ish, 29-varaq]. Ushbu buyruqqa binoan MIQ va XKS davlat tili haqidagi dekret va nizomni tasdiqlaydi [O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, P-17-fond, 1-ro'yxat, 169-ish, 1, 2-varaq].

Markaziy Qo'mita raisi R. Inog'omov va hamrais tomonidan imzolangan ushbu buyruqda Respublikada davlat tili to'g'risidagi nizomni qabul qilib, davlat tili to'g'risidagi dekretni hayotga tatbiq qilishga zudlik bilan zamin hozirlash ko'rsatilgan. Dekretida "barcha shevalarda turlicha bo'lgan va Turkistonning barcha turkiy xalqlari uchun tushunarliroq bo'lgan asosiy turkiy til bo'lmish davlat tilini tan olish butun aholi manfaatlarini uyg'unlashtirishi mumkin"ligi ko'zda tutilib, bu til Turkiston o'lkasida rus tili bilan bir qatorda davlat tili sifatida e'lon qilindi.

"Davlat tilini yuritish to'g'risidagi nizom"da quyidagi asosiy holatlar belgilangan:

1. Turkiy til rus tili bilan bir qatorda qonunchilik va mahalliy aholining Turkiston Respublikasi ishchi-dehqon hukumati bilan rasmiy munosabatlar yuritish tilidir.

2. Mahalliy aholi kichik hududiy birliklar - volostlar, okruglar, shaharlar bilan bog'liq masalalarda va hokimiyat organlari bilan rasmiy munosabatlarda har bir hudud aholisining asosiy qismi tilidan (ko'pchilikni tashkil qilgan aholi tilidan – T.T.) foydalanadi.

3. Uyezd organlarning viloyat organlari va Markaz bilan

aloqalari ikki tilda – rus va turkiy tillarda parallel ravishda amalga oshiriladi [O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, P-17-fond, 1-ro'yxat, 169-ish, 2-varaq].

To'qqiz banddan iborat ushbu nizom fuqarolarning yuqori davlat muassasalariga o'z ona tillarida murojaati, xalq ta'limi muassasalarida ta'lim tili, har ikki davlat tilining fan sifatida o'qitishning tartiblari va boshqa holatlar ham belgilangan.

Rossiya (bolsheviklar) kommunistik partiyasining X Syezdi (1921) qarorlarida mamlakat xalqlarining haqiqiy milliy tengsizligini bartaraf etishga qaratilgan partiyaning asosiy vazifalari belgilab berildi. Xususan, a) sovet davlatchiligini xalqlarning milliy va turmush sharoitlariga mos keladigan shakllarda mustahkamlash; b) mahalliy aholi hayoti va psixologiyasini yaxshi biladigan mahalliy aholidan tashkil topgan o'z ona tilida faoliyat yurituvchi sudlar, boshqarmalar, xo'jalik boshqaruvi organlari, hokimiyat organlarini rivojlantirish va mustahkamlash; d) o'z ona tilida matbuot, maktab, teatr, klub ishini, umuman, madaniy-ma'rifiy muassasalarni rivojlantirish; e) jadallashtirish uchun ona tilida (birinchi navbatda, qirg'izlar, boshqirdlar, turkmanlar, o'zbeklar, tojiklar, ozarbayjonlar, tatarlar, dog'istonliklar uchun) umumiy ta'lim va kasb-hunar ta'limiga oid kurslar va maktablarning keng tarmog'ini tashkil etish va rivojlantirish, hokimiyatning barcha sohalarida, birinchi navbatda, maorif sohasida malakali ishchilar va sovet partiya xodimlaridan iborat mahalliy kadrlar tayyorlash [Исаев, 1978: 6].

RKP (b) X syezdining milliy masalaga doir qarorida mustamlakachilik va millatchilik ko'rinishlari keskin qoralandi. Davlatqurilishininghammasohalarida millatlar va irqqlar tenghuquqli ekani, ularning erkin rivojlanish huquqini ta'minlash kerakligi ta'kidlangan edi. Biroq bolsheviklar partiyasi syezdida belgilangan asosiy vazifalar bajarilmadi, unda muhokama etilgan haqqoniy yondashuvlar turmushda o'z ijrosini topmadi. Bolsheviklarning o'zi milliy masalada ikki yoqlama siyosat yuritib, asosan, Markaz manfaatlarini himoya qildilar [Рашидов 2017, 60].

O'sha vaqtdagi muhim hujjatlardan biri shuki, Turkiston ASSRda ish yuritishni mahalliy tillarga o'tkaz bo'yicha 1923-yil 29-avgustda MIQ va XKSning 130-qarori e'lon qilindi. Unga ko'ra bundan keyin barcha dekret va qarorlar rus, o'zbek, turkman va qirg'iz (qozoq -T.T.) tillarida chiqarilishi shart qilib qo'yildi. Shuningdek, ushbu qaror e'lon qilinishi bilan barcha volost ijroiya qo'mitalari barcha xatlar, ish yuritish va yuqori va quyi organlar bilan yozishmalarni faqat mahalliy tillarda amalga oshirishi lozimligi

belgilandi. Markaziy va hududiy hokimiyat organlariga mazkur qaror chiqarilganidan so'ng Markaziy muassasalarda darhol, viloyatlar muassasalarida 3 oy muddatda ish yuritishni mahalliy tillarga o'tkazishni ham bir vaqtning o'zida boshlash majburiyati yuklatildi.

Sovetlar mamlakatining barcha qaram subyektlarida davlat apparatini mahalliyashtirish, masalan, Ukrainada "ukrainlashtirish", Qozog'istonda "qozoqlashtirish", Gruziyada "gruzinlashtirish", O'zbekistonda "o'zbeklashtirish" siyosati olib borildi. Bu jarayondan kichik xalqlar ham chetda qolgan emas. Bir qarashda boshqaruv ishlarini tub aholi tilida olib borish, mahalliy kadrlarni tayyorlash va yuqori lavozimlarga ko'tarish kabi xalqlarning milliy manfaatlariga xizmat qiladiganday ko'ringan bu siyosatdan aslida sovet hokimiyatini mustahkamlash uchun foydalanildi. Chunki mahalliy aholini, ayniqsa, boshqaruv kadrlarni o'z tarafiga og'dirmay turib, sho'ro rahbariyati joylardagi voqealar rivojini o'zi uchun kerak bo'lgan yo'nalishga solishi qiyin edi.

O'zbekiston SSRda ham davlat apparatini "mahalliyashtirish" davlat, jamoat va xo'jalik apparatiga mahalliy millat vakillarini keng jalb etishdan, ish yuritishda o'zbek tili va boshqa mahalliy tillarni joriy qilishdan iborat bo'ldi. O'zbekiston SSR Inqilobiy Komitetining 1924-yil 31-dekabrda tashkilotlarda ish yuritishni mahalliy millat vakillari tiliga o'tkazish to'g'risida 48-raqamli qarori qabul qilingan bo'lib, XKS qoshidagi maxsus komissiya O'zbekiston Inqilobiy Komiteti huzuridagi Davlat apparatini mahalliyashtirish komissiyasi deb nomlangan [O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, P-837 fond, 5-ro'yxat, 519-ish, 209-varaq].

O'zbek tilini arab alifbosidan lotin alifbosiga ko'chirilishi munosabati bilan o'zbeklashtirish jarayoni yanada jadallashdi. 1928-yil 18-fevralda O'zbekiston SSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Komiteti va O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining "Davlat apparatini o'zbeklashtirish to'g'risida" 20-raqamli qo'shma qarori qabul qilindi. Ushbu qarordan davlat boshqaruvining barcha jabhalarida ish yuritishni o'zbek va rus tillarida parallel ravishda olib borish, evropa millatiga mansub xodimlarning o'zbek tilini o'rganishi uchun to'garaklar ochish hamda mahalliy aholidan ishchi kadrlarni tayyorlash kabi muhim masalalar o'rin olgan [Рашидов 2019, 65].

1928-yil 18-oktyabrda "O'zbekiston SSRning muassasa, korxona, tashkilotlari ishchilari va xodimlarining majburiy ravishda o'zbek tilini o'rganishi to'g'risida"gi qaror qabul qilindi [O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, 58-fond, 5-ro'yxat, 174-ish, 6-varaq]. Qarorda yuqori davlat organlari, boshqaruv

idoralari, komissarliklar, markaziy, okrug va shahar muassasalari, tashkilotlarda xizmat qiladigan rusiyzabon xodimlar uchun o'zbek tilini majburiy ravishda o'rganishni uch navbatda amalga oshirish belgilandi. Shuningdek, ushbu qarorda 1929-yilning 1-oktabridan boshlab, o'zbek tilini bilmaydigan (maxsus malakaga ega bo'lganlardan tashqari) shaxslarni ishga qabul qilish to'xtatilishi qayd etilgan.

Rusiyzabon xodimlar uchun o'zbek tilini o'rganishi belgilanishiga qaramay, bu amalda o'zini oqlamadi. Moliya, bank ishi, soliq, statistika, temiryo'l va davlat nazorat organlari va boshqa muhim tarmoqlarda o'zbek tilini davlat tili sifatida joriy qilinishi qoniqarsiz bo'lib qolaverdi.

Shunisi e'tiborliki, O'zSSR hukumatining davlat apparatini o'zbeklashtirish, ishchilarni ishlab chiqarishga jalb qilish, O'zSSRda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash masalalari bo'yicha ma'ruzasi SSSR Markaziy Ijro Komitetida tinglanib, bu borada qarorlar chiqarilgan. Unda O'zSSRda butun davlat apparatini, ish yuritishni o'zbeklashtirish muddati 1933-yil etib belgilangan [Государственный архив РФ, фонд 3316, опис 13, дело 14, лист 112.

Sho'ro hokimiyati, mamlakatning partiya-davlat organlari milliy respublikalarda o'z maqsadlarini ro'yobga chiqarish uchun dastlabki o'n yilliklarda milliy tillar huquqini ta'minlash, maktab ta'limini rivojlantirish, savodsizlikni tugatish, davlat idora va tashkilotlarida ish yuritishni tub joy aholi tilida olib borish, mahalliy kadrlar tayyorlash kabi masalalarga jiddiy e'tibor qaratdi. Ammo bu to'g'rida qabul qilingan ko'plab dekret, qonun va qarorlar hayotda o'z ijrosini topmadi.

O'tgan asrning 20-yillarida O'zbekistonda yozuv islohoti va o'zgarishi

Ma'lumki, xalqimiz 1929-yilgacha arab alifbosidan foydalanib keldi. Eski arab alifbosidagi yozuvda yagona imlo tizimi bo'lmaganligi, o'zbek tili nutq tovushlari, xususan, unlilar uchun olingan harflar miqdorining etishmasligi va ularni ifodalashdagi kelishmovchilik, shuningdek, eski alifboda arab tili tovush xususiyatiga xos bo'lgan harflarning turkiy xalqlar alifbosi uchun ortiqcha va qiyinligi tufayli davr o'rtaga tashlagan yangi talablarni qondirmas edi. Shu sababli taraqqiyotning daslabki bosqichlaridayoq arab alifbosini isloh qilishga urunish bo'lgan. Ufa va Qozon tatarlari orasida XIX asrning oxirlarida boshlangan alifbo va imloni isloh etish harakati 1917-yil inqilobiy o'zgarishlaridan keyin Rossiyaga tobe turkiy xalqlar o'rtasida yanada kuchaydi. Ayniqsa, RSFSR tarkibidagi xalqlarning

eski yozuvlarini isloh etish haqidagi RSFSR Xalq Komissarlar Sovetining 1918-yil 18-oktyabrda chiqargan qarori bunga keng imkoniyat berdi [Иброҳимов1970, 48].

Turkistonda bu harakat Toshkentda «Chig'atoy gurungi» a'zolari tashabbusi bilan yuzaga chiqdi. «Yangi imlochilar» nomini olgan bu jamiyat a'zolari eski imloni isloh etishga bel bog'ladilar. «Chig'atoy gurungi» 1918-yilning oxirlarida tashkil qilingan va Fitrat rahbarligida ish olib borgan. Bu madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy tashkilot 1919-yilning boshida Milliy ishlar komissarligi tomonidan rasman tasdiq qilingan. «Chig'atoy gurungi» madaniy merosimizni to'plash, o'rganish va ulardan xalqni bahramand etish, o'zbek adabiy tili, milliy yozuv va adabiyotimizni yaratish va yuksaltirish masalalari bilan shug'ullangan. Jamiyat a'zolaridan Qayum Ramazon, Elbek, Shokirjon Rahimiy, Shorasul Zunnun, Oltoy va Botu imlo masalalari bilan maxsus shug'ullanuvchi «Chig'atoy gurungi»ning «Imlo to'dasi»da ish olib borganlar. Yangi imlochilar o'zlari isloh etgan imloni gazeta sahifalarida e'lon qilib, targ'ib qila boshladilar. Ikki oylik o'qituvchilar tayyorlash kurslari ochib, yangi imloni o'rgata boshladilar. «Chig'atoy gurungi» «imlo to'dasi»ning o'qituvchilar uchun imlo qo'llanmasi bo'lgan «Bitim yo'llari» nomli bitikchasi 1919-yilda Maorif komissarligi ruxsati bilan chop etildi. Ko'pchilik yosh ziyolilar, o'qituvchilar «Chig'atoy gurungi» imlosini yoqladilar va ularga ergashdilar.

Munavvar qori va Ashurali Zohiriy o'z tarafdorlari bilan yangi imloga qarshi bo'ldilar. Turkiy xalqlar uchun o'rta bir imlo, yagona yozuv fikrini yoqlagan bu zotlarning pozitsiyasi Turkistonda kechayotgan madaniy, siyosiy voqyealar jarayoni bilan bog'liq edi. Ayni chog'da yangi imlochilar ilgari surgan alifbo-imlo tamoyillarida ayrim kamchiliklar mavjud ediki, buni vaqtida Ashurali Zohiriy, hatto bir muddat «Chig'atoy gurungi»ga a'zo bo'lgan Shorasul Zunnun matbuotda ko'rsatib o'tgandi [Ашурали Зоҳирий 1919; Элчи 1920].

Maorif komissarligi qo'llagan «Chig'atoy gurungi» a'zolari tashabbusi bilan Toshkentda 1921-yilning yanvar oyi boshida Til va imlo qurultoyi bo'ldi. Qurultoyda eski alifbo-imlo savod chiqarishga, maktab-maorif rivojiga, madaniy taraqqiyotga to'sqinlik qilayotgani sababli rasmiy isloh etilib, «Chig'atoy gurungi»ning imlo asoslari qabul qilindi. Ko'pchilik ziyolilar, o'qituvchilar «Chig'atoy gurungi» imlosini yoqlab, ularni qo'llab-quvvatladilar. Qurultoyda imlo masalasida ziyolilar o'rtasida fikriy ajralish bo'ldi. Bu borada ziddiyat yangi imlo masalasi o'rta chiqqan 1919-yildan paydo bo'lgan edi. Arab yozuvini isloh qilish harakati asli Qozon totarlari

orasida boshlangan bo'lib, Turkistonning markazi Toshkentda esa «Chig'atoy gurungi» tomonidan o'zbek tiliga moslab o'rta qo'yildi.

«Chig'atoy gurungi»chilar adabiy til va yozuv masalasida asosan o'zbek millati manfaati nuqtai nazaridan ish ko'rdilar. To'g'rirog'i, ular yangi o'zbek milliy adabiyoti va adabiy tili, ilm-madaniyatini yaratishni maqsad qildilar. Yangi adabiyot va adabiy tilni chig'atoy adabiyotining chin vorisi bilib, uni Navoiy davridagidek burungi mavqyeiga, shon-shavkatiga qaytishini, boshqa turkiy tillar uchun ham o'rnak adabiyot, namuna adabiy til holiga ko'tarishni istadilar. Faqat buni yangi tarixiy sharoitda, o'zbek millati nomi bilan bog'liq ravishda vujudga chiqarmoqchi bo'ldilar. «Chig'atoy gurungi»ning maqsadi Fitratning ushbu so'zlarida yanada yaqqol ko'rinadi: «Chig'atoy adabiyoti turli shevali turk adabiyoti orasida eng yuksak, eng muhim o'rinni tutqondur. Boshqa shevadagi turk adabiyoti bunga ushoqliqlari, buning shogirdliklari bilan maqtanib turalar. Chig'atoy adabiyoti turk adabiyoti orasida yuksak, yuqori, oliy bo'lg'onlig'in qabul etmak mutlaqo lozimdir... Adabiyotimizning turk adabiyotlari orasida eng yuqori o'rinda turg'onidan, tilimizningda turk tillari orasida yuqori mavqye tutqonini chiqarg'on kabi bo'ldim» [1921-йил январда бўлгон биринчи ўлка ўзбек тил ва имло қурултойининг чиқаргон қарорлари 1922, 36].

«Chig'atoy gurungi» a'zolari yozuvlaridagi o'zbek, turk-o'zbek, chig'atoy atamalari aynan bir tushunchada – hozirgi o'zbek atamasi ma'nosida ishlatilgan. Ular «butun turk urug'larining tili bir turli bo'lsin va yozishlari ham bir qoida ostida yozilsin» kabi masalalarni imkonsiz deb bilganidan yolg'iz o'zbeklarning «o'ziga tegishli bo'lgan shevasida va o'ziga tegishli sanalgan imlosida o'qib, yozishlari hamda shul imlo va tilni yalpi shul xalqning o'ziga qabul etdirish» fikri bilan ish ko'rdilar. Gurung a'zolaridan Elbek bu haqda shunday yozadi: «1921-yilgi Til-imlo qurultoyiga «Turkistonda bo'lgan turk urug'laridan yolg'iz o'zbeklarnigina chaqirdik ham bu qurultoyini «O'zbek qurultoyi» deb atadik» [Элбек 1920, 27 ноябрь].

Munavvar qori, Musa Begiyev, Ashurali Zohiriy va ularga maslakdosh millatparvarlar Turkiston ozodligi uchun kurash ketayotgan bir sharoitda milliy-madaniy jabhada yolg'iz o'zbek millati nomi bilan yo'l tutilsa, kurashning dushman foydasiga hal bo'lishi mumkinligini ta'kidlar edilar. Shuning uchun ham ular O'rta Osiyodagi turkiy xalqlar uchun umumiy bir til, yagona yozuv va adabiyot yaratishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yidilar [Мунаввар қори 2001, 55]. Bunda ular o'rta turk adabiy tili uchun fonetik tomondan chig'atoy (qarluq-chigil), lug'at jihatdan o'zbek

urug'lari va qozoq shevalari asos bo'lishini ko'zda tutdilar. Aslida bu g'oya Ashurali Zohiriyning yaqin do'sti va maslakdoshi, Turkiston istiqlolchilik harakati rahbarlaridan biri yirik olim va siyosat arbobi Zaki Validiy tomonidan ilgari surilib, quvvatlanayotgan edi. Bu umumiy til asosida turkiy xalqlarning umum adabiyotini yaratish ko'zda tutilgan. Zaki Validiyning fikricha, «milliy qiymatlar va dostonlar ham faqat qozoq va urug'li o'zbek, qirg'iz, qoraqalpoq guruhlari bo'yicha yaxshi muhofaza etilganligidan kelajakda milliy adabiyotning ham bu guruhlar atrofida vujudga kelajagi, kent turki, totor va boshqird qabilalarining ularga qo'shiluvlari o'z-o'zidan anglashiladi» [Togan 1981, 611]. Bu o'ziga xos panturkistik g'oya Turkiston hudididan chetga chiqmagan, uni butun turkiy dunyoga nisbatan amalga oshirish xomxayol ekanini bu fikr tarafdorlari yaxshi bilishgan. Shuning uchun ham O'rta Osiyo turkiy xalqlari (o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq va boshqalar)ning umumiy til va yozuv birligi bu xalqlarning birdamligini mustahkamlaydi va bunday yagona harakat bilan Turkiston mustaqilligiga tezroq erishish mumkin, deb hisoblar edilar. Bu vaqtda Zaki Validiy, Munavvarqori, A.Zohiriy singari g'oyaviy rahnamolar istiqlolchi kuchlar bilan Turkiston Milliy Birligi tuzib, milliy ozodlik kurashi olib borayotgan edilar [Ўзбекистоннинг янги тарихи 2000, 305-312]. Shu jihatdan til va yozuv masalasi bu davrda ijtimoiy-madaniy sohada muhim siyosiy ahamiyat kasb etmoqda edi.

1922-yil fevral oyida Toshkentda chaqirilgan O'zbek madaniyati va xodimlarining o'lka qurultoyi ham til-imlo masalasi tufayli ikki taraf guruh o'rtasidagi bahs va janjallar bilan o'tdi [Ўзбек ўғли, 1922]. Milliy taraqqiyot omili bo'lgan maktab-maorif, matbuot-nashr ishlarida turlilik, parokandalik yuzaga keldi. Buning salbiy oqibatini anglagan ziyolilar o'rtadagi nizoga barham berishga va birlashishga qaror qildilar. Toshkentdagi o'zbek maorif va madaniyat xodimlari butun o'lkadagi maorifparvar kuchlarga qarata «erlik xalq maorifida muttahir furunt» shiori bilan chiqdilar. Bunda Munavvar qori, Mannon Ramz, Zahiriddin A'lam, Elbek, Shahid Ehson Ahmadiev, Salimxon Tillaxonov, Cho'lpon, Xolmuhammad Oxundiy, Majid Qodir va boshqalar faol ishtirok etdilar «Muttahir frunt»ning o'rtalikda qabul qilingan imlo asoslari matbuotda e'lon qilindi [Ерлик халқ маорифида муттаҳид фронт, 1923]. Ular o'zbek maorifini ko'tarish, ilmiy xizmatni yo'lga qo'yish, o'rtadagi fikr ayirmaligini yo'qotib, samimiyat barpo qilish uchun «Nashri maorif» jamiyatini tuzdilar. Biroq oradan ko'p o'tmay bu birlashuv barham topdi, ziyolilar o'rtasidagi yozuv masalasidagi kelishmovchilik davom etdi.

1923-yilning oktyabrda Buxoroda O'rta Osiyo o'zbeklarining Til va imlo o'lka anjumani chaqirildi. Unda yana alifboni isloh qilish, imlo asoslarini ishlab chiqish masalalari ko'rildi. Konferensiya qarori Turkiston Jumhuriyati Maorif komissarligining 1923-yil 18-oktyabrdagi 48-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan [Ўктам, 1923]. Ta'kidlash kerakki, bu yig'inda kelgusida alifboni lotinlashtirish fikri maqullandi. Bu ishning amaliy tomonlari muhokama qilindi. Turkiy dunyoda qo'zg'alayotgan lotinga o'tish harakati, shuningdek, ziyolilar o'rtasidagi noahillik sabab Buxoro anjumanidan so'ng ham yozuvda boshboshdoqlik davom etdi.

Keyinroq sho'rolar tuzumi mustahkam oyoqqa turib, o'zbek adabiyoti va adabiy tilini, milliy madaniyatini proletarlashtirish, sovetcha «baynalminallashtirish» jarayoni boshlangach, jadid ziyolilarining har ikki guruhiga «burjua millatchilari» tamg'asi bosildi. Hatto A.K.Borovkovdek yirik tilshunos olim ham hukumron mafkura nog'arasiga o'ynashga majbur bo'ldi. U keyinchalik shunday yozadi: «Umum turk» tili va «chig'atoy» tilini o'zbek xalqiga tiqishtirish Turkistonda milliy burjuaziyaning madaniy hukmronligini ta'minlash, burjua madaniyatini sotsialistik madaniyatga qarshi qo'yish uchun zarur edi» [Боровков 1941].

Xullas, arab alifbosi bu davrlarda bir necha bor isloh etilganiga qaramasdan, 1929-yilgacha, ya'ni o'zbek xalqi lotin alifbosiga o'tgunga qadar yozuv birligiga erishib bo'lmadi. Ko'rinadiki, arab alifbosidan lotin alifbosiga o'tilishining sabablari ko'p edi. Birinchidan, arab alifbosining turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili uchun ko'p jihatdan yaroqsizligi, ozarbayjon va tatar mutaffakkir hamda ziyolilari ishlarida, Turkiston o'lkasida esa «Chig'atoy gurungi» boshlab bergan arab yozuvini isloh etish tadbirlarida o'z isbotini topdi. Bu alifbo 1921-yildan boshlab o'zbeklar orasida uch bor isloh qilinishiga qaramay, uni tuzatib, bu sohada yagona fikrga kelib bo'lmadi. Shu sababli, turkiy xalqlar, jumladan, o'zbeklar ham o'z tillari uchun ancha sodda va ancha qulay bo'lgan lotin alifbosini qabul qildilar.

Ikkinchidan, mustabid tuzumning til-yozuv siyosatida o'z manfaatlari bo'lgan, albatta. Bu davr tadqiqiga bag'ishlangan asarlarda chor Rossiyasi, so'ngra qizil imperiya o'z qo'l ostidagi o'lkalarni ruslashtirish siyosatini avvalo til va yozuv masalasi bo'yicha olib borganligi ta'kidlanadi [Қосимов 1992, 20]. Ayniqsa, Zaki Validiy o'z asarlarida bu haqda alohida qayd etgan [Заки Валидий 1997, 87]. Islom dini singari arab yozuvi ma'lum darajada musulmon dunyosi, xususan, musulmon turkiylar birligiga yordam

berar edi. Alifboni o'zgartirish ularni ajratib tashlash uchun qo'l kelar edi. Shuning uchun ham ruslar turkiy xalqlarning arab alifbosidan lotin alifbosiga o'tishlarini jon deb qo'llab-quvvatladilar va rag'batlantirdilar.

Arab alifbosidan lotin alifbosiga o'tish g'oyasi dastlab 19-asrning ikkinchi yarmidayoq Ozarbayjonlik mutafakkir Mirza Fatali Oxundov tomonidan ilgari surilgan edi. 1922-yildan boshlab Ozarbayjonda lotin alifbosini joriy etishga doir tadbirlar amalga oshirila boshlandi. Ko'p o'tmay bu tashabbus turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar o'rtasida keng yoyildi.

1926-yilning 26-fevral – 3-mart kunlari Bokuda Birinchi Butinittifoq turkologiya qurultoyi bo'ldi. Turkiyot qurultoyida O'zbekistondan Rahim In'omov, Ashurali Zohiriy, Shokirjon Rahimiy, Elbek, G'ozzi Yunus, B.Rahmoniy A.Abdujabborovlar vakil bo'lib bordilarr. Fitrat bu anjumanga yirik sharqshunos olim sifatida «alohida chaqiruv bilan» taklif etildi [Ашурали Зоҳирий 1926]. Qurultoyda turkiy xalqlarning lotin alifbosiga o'tishlari haqida qaror qabul qilindi. 1926-yilda O'zSSR MIKning IV sessiyasi Yangi alfavit markaziy komitetini tuzish to'g'risida qaror chiqardi [Кононов 1960, 57].

Fitrat, Ashurali Zohiriy, Cho'lpon, G'ozzi Olim, Qayum Ramazon, Elbek, Abdulla Alaviy, Shokirjon Rahimiy singari mashhur olim va yozuvchilar, ko'zga ko'ringan madaniyat xodimlari, milliy ziyolilar lotin yozuvi asosidagi yangi o'zbek alifbosi va imlosini ishlab chiqish, uni hayotga joriy etish ishiga katta hissa qo'shdilar [Маориф ва ўқутғувчи 1926, 5; 1927, 45-60].

1928-yilda lotin grafikasi asosida tuzilgan yangi o'zbek alifbosi davlat alifbosi deb e'lon qilindi va Yangi o'zbek alifbosi qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan rejaga binoan uni hayotga joriy etish ishlari jadallashtirildi.

1929-yilning may oyida Samarqandda bo'lib o'tgan Til va imlo anjumanida lotin-o'zbek alifbosi ma'qullandi. Bu konferensiyada "O'zbek adabiy tili to'g'risidagi qaror", imlo qoidalar va terminlar to'g'risidagi qarorlar ham qabul qilindi. Shu tariqa Respublikada adabiy til va yozuv masalalari hal qilindi [Жамолхонов 2017, 18-19].

Lotinlashtirish haqida gap ketganda, bu jarayon SSSR bo'yicha qizg'in tus olganini aytib o'tish kerak. Rus yozuvini lotin alifbosiga o'tkazishga tayyorgarlik lotinlashtirish kompaniyasining eng avj nuqtasi bo'ldi. Bu harakatning faol tarafdorlaridan biri o'sha vaqtdagi SSSR Maorif komissari Anotoliy Vasilovich

Lunacharskiy edi. 1929-yilda RSFSR Maorif xalq komissariyati rus alifbosini lotinlashtirishni masalasini ko'rib chiqish uchun komissiya tuzdi. Komissiyaning 1930-yil 14-yanvardagi qarorida shunday yozilgan: «E'tirof etilsinki, rus alifbosini lotinlashtirishni rus yozuvi va matbuotini SSSRdagi barcha xalqlar uchun yagona bo'lgan baynalminal alifboga o'tish - umumjahon baynalminal alifbo yaratishning birinchi bosqichi deb tushunilsin. Ruslarning yaqin vaqt ichida lotin grafikasi asosidagi baynalminal alifboga o'tilishi muqarrardir» [Ведрин, 1991:5]. Biroq rus alifbosini lotin yozuviga o'tkazish harakati qarshilikka uchrab, inkor etildi. Markaz boshqaruv tizginini qo'lga tezroq va batamom olishi uchun, sho'rolar ittifoqidagi barcha xalqlar yozuvining yagona shaklda bo'lishidan manfaatdor edi. Turkiy xalqlarning arab alifbosidan lotin alifbosiga o'tishlari ularni keyinchalik rus grafikasiga o'tkazish uchun bir ko'prik vazifasini o'tashi lozim edi. Shunday bo'lib chiqdi ham. Ko'p o'tmay lotinlashtirish jarayoni tamoman teskari harakatga aylandi. Mustabid Stalin hukumati mustahkamlanib, partiya yakkahokimligi o'rnatilgach, sho'rolar saltanatida endi yozuvni bir buyruq bilan rus-kirill alifbosiga o'tkazishning ijrosi so'zsiz edi.

Xulosa

1917-yildan 1930-yillarning o'rtalariga qadar partiya va davlat milliy masala va unga aloqador ishlarda mahalliy xalqlarga yon bosish siyosatini olib bordi. "Plyuralizm yoki lingvistik federalizm" deb qaralgan bu davr xususiyati hukumatning rus bo'lmagan boshqa xalqlar tillarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash yo'nalishini rasman e'lon qilganligi bilan tavsiflanadi. Milliy tillarning teng huquqliligi va ularning doimiy rivojlanishini ta'minlash, davlat va jamiyat boshqarishini mahalliyashtirish masalalari to'g'risida kommunistik partiya va sho'rolar hukumati tomonidan bu davrlarda qabul qilingan turli darajadagi dekretlar, qaror va boshqa huquqiy hujjatlar amalda bajarilmadi. Vaziyat asta-sekin o'zgarib bordi, partiya yakkahokimligi o'rnatildi. 1938-yilda rus tili mamlakatda majburiy o'qish tili deb e'lon qilindi. Sovetlar mamlakatida ruslashtirish siyosati bunday keyin faqat kuchayib bordi. Bu hol milliy tillarning, jumladan, o'zbek tilining kelgusi taqdiri bilan bog'liq salbiy oqibatlarni, qator muammolarni keltirib chiqardi.

Yangi imloni ilgari surgan «Chig'atoy gurungi» a'zolari adabiy til va yozuv masalasida asosan o'zbek millati manfaati nuqtayi nazaridan ish ko'rdi. Ular yangi o'zbek milliy adabiyoti va adabiy tili, ilm-madaniyatini yaratishni maqsad qildilar. Yangi adabiyot va

adabiy tilni yangi tarixiy sharoitda, o'zbek millati nomi bilan bog'liq ravishda vujudga chiqarmoqchi bo'ldilar va yo'lda katta ishlarni amalga oshirdilar

Turkiston istiqlolchilik harakati vakillari O'rta Osiyodagi turkiy xalqlari uchun umumiy bir til, yagona yozuv va adabiyot yaratish ularning birdamligini mustahkamlaydi deb hisoblar edilar va bunday yagona harakat bilan Turkiston mustaqilligiga tezroq erishishni ko'zda tutar edi.

Arab alifbosi 1921-yildan boshlab o'zbeklar orasida uch bor isloh qilinishiga qaramay, 1929-yilgacha, ya'ni o'zbek xalqi lotin alifbosiga o'tgunga qadar yozuv birligiga erishib bo'lmadi. Shu sababli, turkiy xalqlar qatori o'zbeklar ham o'z tillari uchun ancha sodda va qulay bo'lgan lotin alifbosini qabul qildilar.

Bu davrda O'zbekistonda lotin alifbosiga o'tish sho'ro tuzumining kuch va majburiyati, tazyiqi ostida kechgan emas. Respublikada ko'zga ko'ringan ziyolilar, ilm-madaniyat, davlat arboblari o'zbek yozuvini arab alifbosidan lotin alifbosiga ko'chirishni millat ravnaqiga, kelajagiga xizmat qiladigan o'zgarish, hayotiy zarurat, deb bilganlar.

Kommunistik partiya mamlakat boshqaruviga tezroq va batamom erishish uchun sho'rolar ittifoqidagi barcha xalqlar yozuvining yagona shaklda bo'lishidan manfaatdor edi. Turkiy xalqlarning arab alifbosidan lotin alifbosiga o'tishlari ularni keyinchalik rus grafikasiga o'tkazish uchun bir ko'priik vazifasini o'tadi. Sho'rolar ittifoqida partiya yakkahokimligi o'rnatilgach, lotinlashtirish jarayoni tamoman teskari harakatga aylandi. Ko'pchilik milliy respblikalar yozuvi tez orada rus-kirill alifbosiga ko'chirildi.

Adabiyotlar

O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, R-17-fond, 1-ro'yxat, 171-ish, 29-varaq.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, R-17-fond, 1-ro'yxat, 169-ish, 1, 2-varaq.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, R-837 fond, 5-ro'yxat, 519-ish, 209-varaq.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, 58-fond, 5-ro'yxat, 174-ish, 6-varaq.

Togan, A. Zeki Velidî. 1981. Bugünkü Türkili (Türkistan) ve Yakın Tarihi. İstanbul.

Ашурали Зоҳирий. 1919. "Имло масаласи ҳақида иккинчи турли мулоҳаза". Иштирокиюн, 19 июнь; Элчи.1920. "Имло масаласи". Иштирокиюн, 26 сентябрь.

- Ашурали Зоҳирий. 1926. *“Туркология қурултойи атрофида”*. Фарғона, 374-сон.
- Боровков, А. 1941. *Узбекский литературный язык в период 1905-1917*. Тошкент.
- Ведрин А. 1991. Совет мактаби, 4-сон.
- Государственный архив Российской Федерации, фонд 3316, опис 13, дело 14, лист 112.
- “Ерлик халқ маорифида муттаҳид фронт”*. 1923. Туркистон газетаси, 1 январь.
- Заки Валидий Тўғон. 1997. Бўлингани бўри ер. Тошкент: Адолат.
- Иброҳимов, С. 1970. *“Ўзбек миллий ёзувининг ривожланиши”*. Ўзбек тили ва адабиёти 2.
- Исаев, М. 1978. О языках народов СССР. М.: Наука.
- Исхан, Б., Оспанова, Б. 2014. *“Влияние языковой политики советского режима на казахскую письменность”*. Филологические науки международный журнал экспериментального образования 3.
- Ленин В. И. 1970. Товарищам коммунистам Туркестана. 5-изд. Т. 39. Москва: Государственное издательство политической литературы.
- Кононов А. 1960. *Грамматика современного узбекского литературного языка*. М-Л: изд.во АН СССР.
- Маориф ва ўқутғувчи. 1926: 3; 1927: 7-8.
- Мунаввар қори. 2001. *Хотираларим*. Нашрга тайёрловчи С.Холбоев. Тошкент: Шарқ.
- Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2000. 2-китоб. *Ўзбекистон совет муштамлақчилиги даврида*. Тошкент: Шарқ.
- Ўзбек ўғли. 1922. *“Ўзбек маданият ва маориф ходимларининг ўлка қурултойи”*. Қизил байроқ, 26 апрель.
- Ўктам. 1923. *“Ўрта Осиё ўзбекларининг тил ва имло конференцияси”*. Туркистон 31 октябрь.
- Қосимов, Б. 1992. *Исмоилбек Гаспирали*. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси.
- Рашидов, О. 2019. *Совет ҳокимиятининг маҳаллийлаштириш сиёсати ва уни Ўзбекистонда амалга оширилиши*. Ўзбекистон тарихи. № 1.
- Рашидов, О. 2017. *“Туркистон АССРда совет ҳокимиятининг миллий сиёсати”*. Илмий хабарнома, АДУ, №1.
- Сталин, И.В. Заключение слово на ИВ совещании СК РКП(б) с ответственными И.В. работниками национальных республик и областей 12 июня 1923 г. https://www.marxists.org/russkij/stalin/t5/final_word.htm
- Элбек. 1920. *“Имло ва тил қурултойининг чақирилиши олдидан”*. Иштирокиюн, 27 ноябрь.
- 1921 йил январда бўлган биринчи ўлка ўзбек тил ва имло қурултойининг чиқарғон қарорлари. 1922. Тошкент: Туркистон жумхуриятининг давлат нашриёти.

Language and writing policy in Uzbekistan in the 20s-30s of the 20th century

Tulqin Tog'ayev¹

Abstract

In this article, in the 20s and 30s of the last century, in the Turkistan Autonomous Soviet Socialist Republic, and later in the Uzbekistan SSR, the decrees of various levels adopted by the communist party and the government of the Soviets on the issues of equal rights of national languages, ensuring their development, the state language of business, and the localization of state and community management, the essence of decisions and other legal documents, according to which the activities carried out in the republic are highlighted. Also, in the first quarter of the 20th century, the efforts of Turkistan intellectuals to reform the alphabet and spelling, and later to transfer writing to the Latin alphabet in Uzbekistan, were studied. Due to these processes, conflicts between Uzbek intellectuals have been evaluated. In general, the language policy, writing reform and change in Uzbekistan, its causes, nature, and results were covered based on primary sources.

Key words: *national languages, state language, localization, alphabet, spelling, reform, writing chang.*

References:

O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, R-17-fond, 1-ro'yxat, 171-ish, 29-varaq.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, R-17-fond, 1-ro'yxat, 169-ish, 1, 2-varaq.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, R-837 fond, 5-ro'yxat, 519-ish, 209-varaq.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, 58-fond, 5-ro'yxat, 174-ish, 6-varaq.

1 Tulqin M. Togaev – Candidate of Philological Sciences, Associate Professor of the Department of Uzbek Linguistics Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: tm-togay@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-0809-3198

For citation: Togayev, T.M. 2022. "Language and writing policy in Uzbekistan in the 20s-30s of the 20th century". Uzbekistan: Language and Culture 3:

- Togan, A. Zeki Velidî. 1981. *Bugünkü Türkili (Türkistan) ve Yakın Tarihi*. İstanbul.
- Ashurali Zohiriy. 1919. "Imlo masalasi haqida ikkinchi turli mulohaza". Ishtirokiyun, 19 iyun; Elchi. 1920. "Imlo masalasi". Ishtirokiyun, 26 sentyabr.
- Ashurali Zohiriy. 1926. "Turkologiya qurultoyi atrofida". Farg'ona, 374-son.
- Borovkov, A. 1941. *Uzbekskiy literaturniy yazik v pereod 1905-1917*. Toshkent.
- Vedrin A. 1991. Sovet maktabi, 4-son.
- Gosudarstvenniy arxiv Rossiyskoy Federatsii, fond 3316, opis 13, delo 14, list 112.
- "Erlik xalq maorifida muttahir frunt". 1923. Turkiston gazetasi, 1 yanvar.
- Zaki Validiy To'g'on. 1997. *Bo'linganni bo'ri er*. Toshkent: Adolat.
- Ibrohimov, S. 1970. "O'zbek milliy yozuvining rivojlanishi". O'zbek tili va adabiyoti 2.
- Isaev, M. 1978. **O yazikax narodov SSSR**. M.: Nauka.
- Isxan, B., Ospanova, B. 2014. "Vliyaniye yazikovoy politiki sovetetskogo rejima na kazaxskuyu pismennost". Filologicheskie nauki mejdunarodniy jurnal eksperimentalnogo obrazovaniya 3.
- Lenin V. I. 1970. *Tovarisham kommunistam Turkestana*. 5-izd. T. 39. Moskva: Gosudarstvennoe izdatelstvo politicheskoy literaturi.
- Kononov A. 1960. *Grammatika sovremnnogo uzbekskogo literaturnogo yazika*. M-L: Izd.vo AN SSSR.
- Maorif va o'qutg'uvchi. 1926: 3; 1927: 7-8.
- Munavvar qori. 2001. *Xotiralarim*. Nashrga tayyorlovchi S.Xolboev. Toshkent: Sharq.
- O'zbekistonning yangi tarixi. 2000. 2-kitob. *O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida*. Toshkent: Sharq.
- O'zbek o'g'li. 1922. "O'zbek madaniyat va maorif xodimlarining o'lka qurultoyi". Qizil bayroq, 26 aprel.
- O'ktam. 1923. "O'rta Osiyo o'zbeklarining til va imlo konferensiyasi". Turkiston 31 oktyabr.
- Qosimov, B. 1992. *Ismoilbek Gaspirali*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi.
- Rashidov, O. 2019. *Sovet hokimiyatining mahalliy lashtirish siyosati va uni O'zbekistonda amalga oshirilishi*. O'zbekiston tarixi. № 1.
- Rashidov, O. 2017. "Turkiston assrda sovet hokimiyatining milliy siyosati". Ilmiy xabarnoma, ADU, №1.
- Stalin, I.V. *Zaklyuchitelnoe slovo na IV soveщanii SK RKP(b) s ot-*

vetstvennimi I.V. rabotnikami natsionalnix respublik i oblastey 12 iyunya 1923 g. https://www.marxists.org/russkij/stalin/t5/final_word.htm

Elbek. 1920. *“Imlo va til qurultoyining chaqirilishi oldidan”*. Ishtirokiyun, 27 noyabr.

1921-yil yanvarda bo‘lg‘on birinchi o‘lka o‘zbek til va imlo qurultoyining chiqarg‘on qarorlari. 1922. Toshkent: Turkiston jumhuriyatining davlat nashriyoti.

Alisher Navoiyning lirik asarlarida takrirlarning sintaktik-semantik xususiyatlari

Mardon Rahmatov¹

Abstrakt

Alisher Navoiyning lirik asarlarida sintaktik tautologiyalar she'riy matnning sintaktik strukturani tashkil etuvchi til birliklaridan sanaladi. Bunday qurilmalar hozirgi o'zbek tilida (she'riyatida) mavjud emas. Shuning uchun ularning mumtoz lirik asarlar strukturasi o'zni, vazifasini o'rganish va bilish nihoyatda muhim. Mazkur sintaktik birliklar she'riy matn strukturasi shoir tomonidan maxsus kiritilgan va o'zining poetik maqsadiga bo'ysuntirilganligi uchun ularning she'riy jumla tarkibida ortiqchaligi sezilmaydi. Alisher Navoiyning lirik asarlarida qo'llangan bunday noodatiy qurilmalar – sintaktik tautologiyalarni diaxron aspektida o'rganish ularning o'ziga xos jihatlari ilmiy asoslashga va muayyan xulosalar yasashga imkon beradi.

Kalit so'zlar: *sintaksis, tautologiya, semantika, asosiy so'z, deytik bo'lak, olmosh, she'riy nutq, estetik vazifa, uslubiy vosita, yuklama.*

Kirish

Tilning sintaktik birliklari she'riy tizimda odatdagidan ko'ra ko'roq sintaktik-semantik o'zgarishlarga uchraydi: ularning she'riy struktura bo'ylab qayta tizilishi favqulotda semantik o'zgarishlarga, semantik moslanuvchanlikka olib keladi. Natijada poetik axborot tili deb atalmish til vujudga keladi va she'riy nutq tizimi murakkab, ba'zan o'ta murakkab tizimga aylanadi. Shuningdek, bunda she'riy nutq sintaktik birliklarining o'zni va ahamiyati, semantik tovlanishlari, o'zgarishlari hamda poetik talab va sintaktik norma (she'riy nutqda odatdagi grammatik normalarning buzilishi) kabi qator masalalarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. She'riy nutqqa xos ayni shu xususiyatlar tilshunoslar e'tiborini tortib kelmoqda va uni tadqiq qilishga bo'lgan qiziqishlarning ortishiga sabab bo'lmoqda.

¹ Rahmatov Mardon Mekhmonovich – filologiya fanlari nomzodi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.
E-pochta: mardonrahmat@gmail.com
ORCID ID: 0000-0001-9238-2541
Iqtibos uchun: Rahmatov, M.M. 2022. "Alisher Navoiyning lirik asarlarida sintaktik tautologiyalar". O'zbekiston: til va madaniyat 3: 56-70.

Klassik lirik asarlar strukturasidan joy olgan sintaktik birliklarning sintaksisi, semantikasi va ularning (muloqot jarayonlarida) o'ziga xos vazifalarni bajarishi kabi masalalarini o'rganish, milliy poetik tilning tadrijiy taraqqiyotini belgilashga, qolaversa, mumtoz ijodkorlarning til imkoniyatlaridan foydalanganlik darajasini belgilashga zamin yaratadi.

Sintaktik tavnologiya

Filologik adabiyotlarda tavnologiya ikki xil talqin qilinadi. Adabiyotshunoslik ilmida tavnologiya deganda she'riy matnda bir so'zning aynan takror qo'llanilishi tushuniladi. Bu qadimdan sharq mumtoz poetikasi tahlillarida "takrir" deb yuritilgan. Takrirlar badiiy san'ati sifatida mumtoz poetik asarlarda nutqning emotsionaligini oshirish, ifodalanayotgan fikr-tuyg'uga aloqador muhim so'zni ta'kidlash orqali ta'sirni kuchaytirish vositasi sanalgan. Har gal bir so'zning me'yorda tarkrorlanishi qo'shimcha tarzda muayyan badiiy estetik yuk tashiydi [Quronov 2010, 297].

Tilshunoslikda esa tavnologiya deganda bir fikr (ma'lumot) ni boshqa so'z yoki so'zlar bilan takroran ortiqcha ifodalash, so'zni ortiqcha ishlatish tushuniladi. Tavnologiyaga uchragan birliklar yangi axborot tashimaydi, u avval ifodilangan axborotni takrorlaydi. Tilshunoslikda tavnologiyaga nisbatan sintaktik hodisa sifatida qaraladi va u sintaktik tavnologiya deb yuritiladi. Masalan, gapirmoq o'rnida gap gapirmoq, tepmoq o'rnida oyoq bilan tepmoq deb qo'llash tavnologiya hisoblanadi, chunki gap, oyoq bilan qismlari yangi informatsiya bermaydi (gapirmoq, tepmoq so'zlaridagi informatsiyani takrorlaydi) [Hojiev 2002, 168].

Biz sintaktik tavnologiya sifatida o'rganayotgan til birliklari klassik asarlar tiliga xos bo'lib, ular o'zining ma'lum bir jihatlari bilan hozirgi o'zbek tilidagi ifoda shakllaridan (yuqoridagi misollar) farq qiladi. Ammo ular o'rtasidagi o'xshashlik muayyan bir sintaktik birlikning she'riy jumla (misra) tarkibida takror qo'llanishi bilan bog'liq holda yuz berishidir.

Sintaktik tavnologiyalar mumtoz adabiy manbalarimizda, xususan, Alisher Navoiyning ham nasriy, ham she'riy asarlarida ham keng qo'llangan. Alisher Navoiyning nasriy asarlarida qo'llangan tavnologiyalarning tarkibiy va ma'no xususiyatlari S.Ashirboev tomonidan maxsus o'rganilgan [Ashirboyev 1990, 291]. Ammo ularning she'riy asarlaridagi ko'rinishlari, ularning she'riy matn strukturasidagi o'rni va vazifasi maxsus tadqiq qilinmagan.

Sintaktik tavnologiyalarning she'riy matndagi o'rni va vazifasi

Rus psixologi va lingvisti A.A.Leontev ta'kidlaganidek, odatdagi nutqqa xos bo'lgan tilning vazifalari bilan nutqning maxsus vaziyatlarda paydo bo'ladigan ixtiyoriy (fakultativ) vazifalarini farqlash lozim. Odatdagi nutqda til vositalaridan tashqari ekstralingvistik vositalar ham mavjudki, ular axborot uzatishning o'ziga xos tayanchi sanaladi, ammo sheriy asarda bunday xususiyat mavjud emas. She'riy nutqqa olib kirilgan har bir sintaktik birlik she'riy matnni tashkil qiluvchi muhim elementiga aylanai va u, albatta, nutq vaziyatiga mos holda ma'lum bir vazifa bajarishga xoslangan bo'ladi, jumladan, tavnologiyaga asoslangan birliklar ham. Shu ma'noda, she'riy matn strukturasidagi boshqa til elementlari qatori tavnologik birliklar ham, shubhasiz, poetik, ya'ni estetik vazifa bajaradi. Shuning uchun sintaktik tavnologiyalar mavjud she'riy parcha boshqa boshqalaridan ko'ra ta'sirliroq, zavqliroq. Ular o'zida nafaqat "semantik axborot" tashiydi, balki u o'quvchi/tinglovchiga "estetik axborot" ham beradi, unga "ta'sir ko'rsatadi". Bu esa ekspressiyani yanada oshiradi.

Alisher Navoiyning lirik asarlarida qo'llangan sintaktik tavnologiyalar uslubiy vosita sifatida estetik (poetik) vazifa bajaradi va she'riy nutqning badiiyligini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur sintaktik hodisa ayrim jihatlari o'zbek tilidagi ajratilgan bo'laklarni eslatca, ayrim jihatlari bilan havola bo'lakli qo'shma gaplarga o'xshab ketadi. Hozirgi o'zbek tilida (eski o'zbek tilida ham) ajratilgan bo'laklar ajratilayotgan bo'lakning ma'nosini to'ldirishga, uning ma'nosiga aniqlik kiritishga xizmat qilsa, biz sintaktik tavnologiya nomi ostida o'rganayotgan nutq hodisasi uning aksi. Ya'ni shoir lirik kechinmalarini bayon qilishda ayrim sintaktik birliklarni she'riy she'riy misra boshiga chiqaradi va uni boshqa til elementlari bilan markerlaydi. She'riy talab bilan shoir tomonidan fikr mavzusini misra boshiga chiqarilishi va maxsus grammatik shakllar bilan markerlashi uning sintaktik-semantik jihatdan alohidalanishiga va o'quvchining diqqat-markazida bo'lishi va o'ziga tortishiga sabab bo'ladi. Natijada alohidalangan, nutqning ahamiyatli qismga aylangan bo'lak va jumla orasida qisman sintaktik-semantik bog'liqlik uziladi va sintaktik tavnologiyani yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Tavnologiyaga uchragan sintaktik birlik deytik xarakterda bo'lib, misra boshidagi maxsus ajratilgan sintaktik shaklga ishora qilish vazifasini bajaradi. Tavnologik birliklarning mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi.

She'riy bayt tarkibidagi muayyan bir she'riy jumla (misra) tarkibida grammatik shakllari bir xil bo'lgan sintaktik birliklar-

dan biri ikkinchisini ham sintaktik, ham senmantik xususiyatlarini takrorlaydi. Aslan bu kabi sintaktik hodisalar ikki qismdan iborat bo'ladi: sintaktik tavnologiyani asos so'zi – tavnologik asos va uning takroridan iborat bo'lgan – sintaktik tavnologiya kabi. Ularning ifoda shakllari bir-biridan farq qiladi. Tavnologik asos asosan turdoshlardan, ba'zan atoqli otlardan, sintaktik tavnologiya (takror)lar esa ko'rsatish olmoshi bilan ifodalanadi.

Ta'kidlanganidek, shoir o'zining lirik kechinmalarini ifodalar ekan, ma'lum bir so'z (poetik obrazlar)ga maxsus poetik vazifa yuklashni va uni til elementlari yordamida markerlashni, alohidalashni maqsad qiladi: ularni misraniing old qismiga chiqaradi va boshqa sintaktik birliklardan ajralib turishini ta'minlash maqsadida vazn talabiga ko'ra u yoki bu grammatik vositalar (yuklamalar)dan birini qo'llaydi. Natijada misraniing bosh qismiga chiqarilgan poetik "tavnologik asos" so'z ma'lum ma'noda sintaktik va semantik jihatdan "mustaqil" pozitsiyasiga ega bo'ladi, she'riy jumlaning mavzu yo'nalishini belgilovchi qismga aylanadi. Ayni shu xususiyat o'zidan keyingi she'riy jumla (misra)ning sintaktik-semantik jihatdan qayta to'liq shakllanishiga sharoit yaratadi. Natijada she'riy jumla boshida maxsus ajratilgan tavnologik asosning sintaktik va semantik xususiyatlarini takrorlovchi, o'z navbatida unga ishora qiluvchi she'riy sintaktik tavnologiya yuzaga chiqishiga sabab bo'ladi.

Tavnologiyaga asos va uning ko'rinishlari.

1. –ki/kim yuklamalari.

She'riy misra (she'riy jumla)ning bosh qismiga chiqarilgan tavnologik asos so'zni ta'kidlash, ajratish maqsadida shoir she'riy vazn talabiga ko'ra –kim yoki –ki yuklamalaridan birini tanlaydi. Natijada shoirning poetik tasvir qahramoni jumla semantikasi-da birinchi planga ko'tarilib, murakkab kommunikativ jarayonda "maxsus axborot" tashish vazifasini bajara boshlaydi. Bu kommunikativ sintaksisning aktual sathida nutq mavzusi, fikr yo'nalishini ko'rsatuvchi [Tema] qismga aylanadi. Keyingi mustaqil jumla esa yaxlit holda axborot mavzusi doirasida yangi axborot tashuvchi [Rema] qismdan iborat bo'lib aylanadi va uning tarkibida fikr mavzusiga ishora qiluvchi, uni mazmunan bog'lovchi deytik bo'lak – "u" olmoshi qo'llanadi.

Tavnologik so'zning asosiy xususiyati bu – uning aldamchi (psevdo) bosh kelishik shaklida bo'lishi. Shuning uchun tavnologik asosning sintaktik maqomini belgilashda sintaktik tavnologiya – belgili yoki belgisiz qo'llangan omoshlarning sintaktik maqomi bilan aniqlashtiriladi.

Ta'kid yuklamalaridan biri bilan qo'llangan shaklan bosh kelishikdagi tavnologik asos va sintaktik tavnologiya har doim grammatik jihatdan bir-biri bilan mos bo'ladi. Masalan: shoh G'oziy(ga) – anga // shoh G'oziyga.

Mumkin ermas shahlar ichra buyla niyatlig', magar

Shohi G'oziykim, muyassar bo'ldi bu davlat anga. (G'S 8)

Ya'ni: Shoh G'oziyga (unga) bu davlat muyassar bo'lgan bo'lsa, shohlar ichida boshqa bunday niyatligi bo'lishi mumkin emas.

Tavnologik birliklarning yana bir o'ziga xos jihati xususiyati mavjud. U ham bo'lsa shoirning baytdagi poetik obrazi shaklan bosh kelishikdagi so'z bilan ifodalansa-da, ammo uning sintaktik o'rni ochiq qoldirilishidir. Bunday hollarda implisit (belgisiz) qo'llangan sintaktik tavnologik birlik – omoshlarning sintaktik o'rni va sintaktik maqomini e'tiborga olish lozim bo'ladi: Dog'lar(ni) – (ani) // dog'larni:

Dog'larkim, qo'ydim ul oy furqati ozorida,

Dudi har birning erur dog'e falak ruxsorida. (G'S 25)

Ya'ni: Dog'larni (uni) ul oy furqati ozorida qo'ydim, har bir birining tutuni falak ruxsoridagi bir dog'dir.

Ta'kidlash o'rinliki, shoir tomonidan maxsus ajratilgan (markerlangan), adresatning e'tiborini tortuvchi tavnologik asosning fikr mavzusini belgilab beruvchi o'ziga xos "markazi"ga aylanishida muhim omil sanalar ekan, she'riy misraning qolgan qismi yangi axborot bilan to'yintirilgan "axborot liniyasi" sanaladi. Demak, aktual sathda sintaktik birliklar orqali uzatilayotgan axborotning muhimligi nuqtai nazaridan ham tavnologik birliklar tahlilida ularni tema va remaga ajratib o'rganish muhim sanaladi.

Ta'kidlash o'rinliki, "tavnologik asos"ning sintaktik pozitsiyasi muqim – u har doim misra boshida qo'llanadi, ammo sintaktik tavnologiyalarning sintaktik o'rni muqim emas. Ular she'riy misraning istalgan o'rinlarida kelishi mumkin, bu esa, birinchi navbatda, shoirning maqsadi va she'riy vazn talabi bilan bog'liq. Agar shoir sintaktik tavnologiyalarni radif sifatida misra oxiriga chiqarishni maqsad qilgan bo'lsa, ularning poetik vazifasi yanada ortadi, o'quvchida qo'shimcha poetik zavq paydo qiladi. Bu qo'proq g'azallarning she'riy unsuri sanalgan radiflarda kuzatiladi, agar u olmosh bilan ifodalangan bo'lsa.

Tahlil ob'yekti sanalgan g'azallarning birinchi – radifli matla baytlarida sintaktik tavnologiyalarning qo'llanishi o'ziga xos. Quyidagi matla bayt yorqin misol bo'la oladi. Masalan: har gado(ga) – anga // har gadoga.

Har gadokim, bo'ryoyi faqr erur kisvat anga,
Saltanat zarbaftidin hojat emas xil'at anga. (G'S 8)

Ya'ni: Har gadoga faqrning bo'yraasi kisvat erur, unga, ya'ni har gadoga saltanat zarbaftidan yasalgan xil'at hojat emas.

Baytda anga olmoshi har ikkala misraning radifi (adabiyot-shunoslik ilmida radiflar takrirning bir turi sifatida qayd qilinadi) sifatida qo'llangan. Baytning birinchi va ikkinchi misralaridagi anga kishilik olmoshi sintaktik tavnologiya sanaladi, chunki u gado poetik obrazining takrori sifatida qo'llangan, ya'ni u "asosiy so'z"ga ishora qilish vazifasini bajargan. Bu turdagi bayt qutilishiga xos yana bir muhim jihatni qayd qilib o'tish o'rinli, deb hisoblaymiz. Ya'ni, ikkinchi misra tarkibidagi anga olmoshining ma'nosi gado so'zi bilan bog'liq bo'lsa-da, sintaktik-semantik jihatdan anchayin mustaqil. U har gado so'ziga ishora qilsa ham, uning aynan takrori bo'lsa ham sintaktik tavnologiya sanalmaydi, ammo uning "tavnologik asos"ga ishora qilishini inkor qilmagan holda keyingi mustaqil jumlaning shakllanishida va uning semantikasida o'z o'rnini borligini alohida ta'kidlash zarur bo'ladi. Ta'kidlash o'rinliki, u radif sifatida o'zining badiiy estetik qimmatini, kuchini namoyon qilaveradi. Ularning deytik birliklarga xos ishora qilish xususiyati jumla tadbilida yanada yaqqolroq ko'rinadi. Quyidagi baytda ham sintaktik tavnologiyaning ayni shu xususiyati mujassamlangan: parivash(ga) – anga // parivashga.

Ul parivashkim, bo'lubmen zoru sargardon anga,
Ishqidin olam menga hayronu men hayron anga. (G'S 9)

Ya'ni: U parivashga zoru sargardon bo'libman, uning ishqidan olam menga, men esa unga hayronman.

Quyidagi baytda anga olmoshi tavnologik asos so'zning aynan qaytarig'i sanaladi. U chehra va zulf so'zlarining sintaktik-semantik xususiyatlarini aynan takrorlagan. Chehra(ga) – anga // chehraga; zulf(ga) – anga // zulfga:

Qani bir chehraki, mayl etkay anga xasta ko'ngul,
Qani bir zulfki, bo'lg'ay anga vobasta ko'ngul. (G'S 377)

Ya'ni: Qani endi bu xasta ko'ngil bir go'zalga mayl etsa, Qani endi bu ko'ngil bir zulfga bobasta bo'lsa (bog'lansa).

Agar "asos so'z"ning sintaktik-semantik xususiyatlarini takrorlovchi tavnologik sintaktik birlik matla baytlarda misra oxirida radif sifatida qo'llangan bo'lsa, uning poetikasiga xos ikki jihatni ta'kidlash lozim bo'ladi:

A) odatdagi (oddiy) tavnologiya: har gado(ga) – anga; ul parivash(ga) – anga kabi. Bunda takroriy so'z (olmosh) she'riy misran-

ing oxirida keladi va odatdagi poetik vazifasini bajaradi.

B) estetik darajasi yuqori bo'ladi:

-bunga radiflarning takroridan hosil bo'luvchi poetik zavq ham qo'shiladi. Ya'ni takroriy so'z radif sifatida misraning oxiridan o'rin egallaydi va uning odatdagi poetic vazifasidan tashqari radiflar tabiatiga xos poetik vazifa bajaradi:

Ul parivashkim, bo'lubmen zoru sargardon anga,

Ishqidin olam menga hayronu men hayron anga. (G'S 9)

-tavgologik so'z radif sifatida misra oxirida takrorlanadi. Bu g'azallarning ichki strukturasidan o'rin olgan baytlarga xos. Bu kabi she'riy jumalalarda yuqoridagi tilga olingan ikki xususiyat mujassam bo'ladi:

a) oddiy; b) radifli baytlarga xos. Chunki anga olmoshi yaxlit holda radif sifatida g'azalning estetik kuchini va ekspressivligini ta'minlashga xizmat qilganligida ko'rinadi.

Mumkin ermas shahlar ichra buyla niyatlig', magar

Shohi G'oziykim, muyassar bo'ldi bu davlat anga. (G'S 8)

Ta'kidlanganidek, bu tur sintaktik tavgologiyalar o'zida yangi axborot tashimasa ham, "asos so'z"ga ishora qiladi hamda sintaktik birlik sifatida she'riy misraning tashkil qiluvchi, uning tarkibini murakkablashtiruvchi (sintaktik takror sifatida) qism sanaladi. Quyida yana g'azallar matniga xos tipik xarakterdagi tavgologik birliklarga misollar keltiramiz: Labing(din) – andin // labingdin.

Labingki, bodayi la'l andin oqti mast o'lg'ach

Erur mushobihi marjonu anda ahmar shox. (G'S 113)

Ya'ni: Mast bo'lganingdan so'ng labingdin la'lrang boda oqti, u erdagi qip qizil shox esa marjonga o'xshar edi.

Shuningdek, Butxona(da) – anda // butxonada:

Ko'r Navoiyniki ko'ngli uyidur butlar ila

Uyla butxonaki, anda to'ladur lotu manot. (G'S 83)

Ya'ni: Navoiyni ko'r, butlar va butxona uning ko'ngli uyidir, u erda lotu manotga (arablar unga islomgacha cho'qinishgan) to'la .

Har er(da) – anda // har erda:

Har erki, anda bir nafas, ishratqa topsam dastras,

Yuz qatla aylarmen havaskim, bo'lsa erdi yor ham. (G'S 415)

Ya'ni: Har erda bir nafas ishrat qilishga imkon topsam, Yonimda yor ham bo'lsa edi, deb yuz marta havas qilaman.

Emin ul qush(ning) – aning // ul emin qushning.

Tutma ulfat bog' arokim sarsari daydin durur,

Emin ul qushkim, aning ma'vosi vayron ichradur. (G'S 165)

Ya'ni: Bog' ichida ulfat tutma, u er qahraton qishning sovug'i

kabi, u emin qushning ma'vosi (uyi) vayron ichradur.

Bir qush – aning // bir qushning:

Sayd o'ldi ko'ngul ko'zlaringa, vah, qutulurmu

Bir qushki, aning qasdida bo'lg'ay iki sayyod. (G'S 118)

Ya'ni: Bir qush ko'ngil ko'zlaringga ov bo'ldi, e voh, uning qasdida ikki ovchi bo'lsa, qutila oladimi?

2. Forsiy “yoyi ishorat”.

Alisher Navoiy g'azallarida forsiy grammatik shakllar ham uchraydi. Ularning aksariyati fors tiliga xos sintaktik qurilmalarni, gap qoliplarini shakllantirshga xizmat qilgan. Shunday grammatik shakllardan biri “yoyi ishorat”dir. Shoir sintaktik tavgologiyaga asos so'zlarni forsiy “yoyi ishorat” shaklini olgan so'zlardan ham hosil qilgan.

Ta'kidlash o'rinliki, bu tur sintaktik tavgologiyalarning shakllanishida ham –kim/-ki yulamasining o'rni katta. Ular grammatik “yoyi ishorat” shaklini olgan so'zlarni tavgologik birliklar qatoriga kiritadi. Shuning uchun butur tavgologik birliklarning ko'rinishida, qo'llanishida, poetik vazifa bajarishida katta farq va o'zgarishlar sezilmaydi. Ammo tavgologik asos so'zning strukturasi ma'lum bir o'zgarish kuzatiladi. Bu tavgologik asos so'zda ko'proq gapga xos belgilarning namoyon bo'lishida ko'rinadi, ya'ni she'riy vazn talab qilgan o'rinlarda “yoyi ishorat” shaklidan keyin –dur/-tur shaklining qo'llanishi bilan bog'liq. Shunga qaramay, bu kabi qurilmalarda ham sintaktik tavgologiyalarning mavjudligi ularning umumiy jihati, o'ziga xos xususiyati sanaladi. Masalan: Chobuke – u // bir chobuk:

Chobukekim, har taraf maydon aro aylar shitob,

Barqi lomi'dur samandi gardi andoqkim sahob. (G'S 43)

Ya'ni: Bir chobuk maydon aro har tomon shitob bilan chopyapti. Uning chiroyli chopqir oti chaqmoqday yaltiroq,

Kalome – anda // so'z(da):

Erur kalomekim, anda hurufi illat yo'q,

Qayu hadiski, sendin bayong'a keldi sahih. (G'S 101)

Ya'ni: Bir so'zda hurufi illati bo'lmasa, qaysi sahih hadis sendan bunyod bo'ldi.

Gule – aning // gulning:

Ul gulekim, bazmida zog'u zag'an qilg'ay xurush,

Avlo ulkim, bulbul uchqay, uchmasa bo'lg'ay xamush. (G'S 266)

Ya'ni: Bir gulning bazmida zog'u zog'on xurush qilsa, yaxshisi shuki, bulbul uchadi, uchmasa jim bo'ladi.

Ayniqsa, –dur/–tur yuklamasining mavjudligi uni ham grammatik jihatdan, ham ohang jigatidan mustaqil kesimga – gapga tenglashtirib qo'yadi. Masalan: zulmate – uning // zulmatning tiriklik suvi. Do'zaxedur – aning // do'zaxning.

Zulmatekim, chashmayi hayvoni aning bo'lmag'ay

Do'zaxedurkim, yonida ravzai rizvoni yo'q. (G'S 310)

Ya'ni: Zulmatning tiriklik bulog'i bo'lmaydi. Do'zaxning yonida jannat bog'i bo'lmaydi (Zulmatda tiriklik bulog'i, Do'zaxda jannat bog'i bo'lmaydi)

Yuqoridagi misoldan ma'lum bo'ladiki, shoir tavgologik asos so'zni maxsus ta'kidlash, urg'ulash (aksentlash) uchun she'riy talabdan kelib chiqib –dur/–tur yuklamasini qo'llagan. Ularning mazmuni, kommunikativ xususiyatlari yuqorida tahlilga tortilgan bayt jumalardan deyarli farq qilmaydi. Bu kabi sintaktik birliklar (tavgologik asos va sintaktik tavgologiya)ga yaxlit holda murakkablashgan sodda gap sifatida qarash o'rinli. Bu turdagi murakkablashish ham bir sodda gap doirasida bo'lib, ular (tadbil jarayonida) ixchamlashishga moyil bo'ladi: Shishaedurkim – aning // bir shishaning.

Soda ko'nglum ichra la'lingning xayoli tushgali,

Shishaedurkim, aning ichiga solmishlar nabot. (G'S 74)

Ya'ni: Sodda ko'nglimga la'lining xayoli kelishi uchun bir shishaning ichiga novvot solishibdi.

Qushedurkim – (aning) // bir qushning.

Ko'rubmen kirpiging boshitin-ayog' teshkan ko'ngul holin, Qushedurkim, tiriglay yulmish o'lg'aylar paru bolin. (G'S 491)

Ya'ni: Kipriging teshgan ko'ngulning holini boshdan oyoq ko'rdim. Bir qushning triklayin paru qanotini yulganlariday bo'libdi.

Tahlillardan ma'lum bo'ladiki, Alisher Navoiyning lirik asarlarida keng qo'llanishda bo'lgan forsiy "yoyi ishorat" shakli poetik so'z darajasiga ko'tarilishida –dur/–tur (–durur/–turur) yuklamalari va –kim/–ki yuklamasining o'rni katta. Forsiy grammatik shaklni olgan tavgologik asos so'zga yuqoridagi til elementlari qo'shilgan bo'lsa, ularning ahamiyatlilik darajasini ko'rsatkichi sifatida misradagi roli yanada ortadi. Tahlil uchun misollar tanlash jarayonida "G'aroyib-us sig'ar" devon tarkibidan joy olgan 310-raqamli g'azal matni e'tiborimizni tortdi. Chunki uning tarkibida tavgologik asos, belgili va belgisiz qo'llangan sintaktik tavgologiyalar aniq ko'rinib yoki bo'rtib turgan bo'lsa-da, lekin ular ayrim xususiyatlari bilan sintaktik tavgologiyalarga, ayrim jihatlari bilan ajratilgan bo'laklarga o'xshab ketadi. Bu kabi qurilmalar hozirgi o'zbek tilida bo'lmagani

uchun ularni ikki xil talqin qilish mumkin bo'ladi.

Sintaktik tavgologiya:

Yordin ayru ko'ngul mulkedurur sultoni yo'q,

Mulkim sultoni yo'q, jismedururkim, joni yo'q (G'S 310)

Ya'ni: Ko'ngil mulkining yordan boshqa sultoni yo'q. Mulkning sultoni yo'q – jismning joni yo'q. (Sultoni yo'q mulk – Joni yo'q jism).

Ajratilgan bo'lak. Qiyoslang:

Yoridan ayru ko'ngil – sultoni yo'q bir mulk (kabi),

Sultoni yo'q mulk – joni yo'q bir jism (kabi).

Mazkur g'azalning 4-5-baytlarida esa tavgologik birliklarning mavjudligi ham ularni ikki xil tahlil qilishga sababchi bo'ladi. Masalan: zulmatedurkim – aning // bir zulmatning:

Ul qorong'u kechakim yo'qtur mahi tobon anga,

Zulmatedurkim, aning sarchashmai hayvoni yo'q. (G'S 310)

Ya'ni: 1. U qorong'u kechada uning mohi toboni bo'lmaydi. Zulmatning sarchashmai hayvoni bo'lmaydi.

2. Uning mohi toboni bo'lmagan qorong'i kecha. Sarchashmai hayvoni bo'lmagan Zulmat.

Zulmatekim, chashmayi hayvoni aning bo'lmag'ay

Do'zaxedurkim, yonida ravzai rizvoni yo'q. (G'S 310)

Ya'ni: 1. Zulmatning chashmai hayvoni bo'lmaydi. Do'zaxning yonida ravzai rizvoni bo'lmaydi.

2. Chashmai hayvoni bo'lmagan zulmat. Yonida ravzai rizvoni bo'lmagan do'zax.

Quyidagi she'riy misralarda ham yuqorida qayd qilingan holatni ko'rishimiz mumkin:

Qon yoshim ta'siridin sarig' yuzumning safhasi

Qog'azedurkim, hino suyi bila rangin erur. (G'S 74)

Ya'ni: 1. Qon yoshim ta'sirida sarg'aygan yuzimning sahifalari bir qog'ozdir. U hino suvi bilan jilolangan.

2. Qon yoshim ta'sirida sarg'aygan yuzimning hino suvi bilan jilolangan sahifalari bir qog'oz kabi.

Shuningdek, ba'zan she'riy misra boshiga chiqarilgan sintaktik birlik o'xshatish belgisi sanalgan –dek shakli bilan qo'llanib aktual sathda fikr mavzusini ifodalashdan iborat o'z mavqeini saqlab qolishi bilan birga yuqoridagi kabi tavgologik belgilarga ega bo'ladi. U bu xususiyati bilan aniqlovchi uzvli qo'shma gaplarni ham a ham o'xshab ketadi.

Qomati hajrida har yon yoradin qonlig' ko'ngul

Bir kiyikdekdurki, o'q zaxmi bila bo'lmish figor. (G'S 142)

Ya'ni: Yorning qomati hajrida har tomoni jarohatdan qonagan ko'ngil bir kiyik kabitirki, u o'q yarasi bilan figor bo'lgan.//O'q jarohatidan yaralangan kiyikdek, ko'ngil ham yor qomati hajrida yaranib qonga to'ldi.

Shuningdek, yuqorida tahlilga tortilgan sintaktik birliklarga o'xshash sintaktik hodisalar ham tez-tez kuzatiladi. Garchi bunday qurilmalar ham tavnologik asos so'zlar kabi yuklamalar bilan ajratilsa-da, ular sintaktik tavnologiyalar sanalmaydi. Ammo ular kommunikativ sathda aktual vazifa bajaraveradi, ya'ni doim ular fikr mavzusini (tema) ko'rsatishda davom etaveradi.

Ko'ngulki, ishqida dersen balo ne bo'lg'usidur?

Nekim, bo'lur, sanga bo'lg'ay, manga ne bo'lg'usidur?!(G'S 142)

Ya'ni: Ko'ngil "yor ishqida ne balo bo'ladi?" demoqchi bo'lsang, bilginki, nimaki bo'lsa ham senga bo'ladi, manga nima bo'ladi?

Ta'kidlash o'rinliki, mazkur baytning birinchi misrasi boshida qo'llangan, grammatik jihatdan maxsus shakllantirilgan ko'ngil so'zini ko'ngil(ning) – (aning) // ko'ngilning ishq ... shakliga o'girish va uni shunday tushunish xatoliklarga olib keladi.

Xulosa

O'zining serqirra ijodi bilan dunyo ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan olim, adib, shoir, eski o'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiyning ijodiy merosi o'zining ilmiy va amaliy ahamiyatini yo'qotgan emas. Ular har doim qadrlashga, ardoqlashga, sevib mutolaa qilishga loyiq asarlardir va yana yangi-yangi tadqiqotlarga asos bo'lib qolaveradi.

Alisher Navoiy lirik asarlarigagina xos bo'lgan she'riy jumla qurilishi, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish, ularning ilmiy bahosini berish o'zbek tilshunosligi oldida turgan dolzarb masala sanaladi va ularni o'rganish, olimlarimiz oldidagi eng muhim vazifalardan sanaladi.

Lirik asarlariga xos sintaktik tavnologiyalar Alisher Navoiyning boshqa tur she'riy asarlarida ham uchraydi.

Bir sintaktik birlikka xos xususiyatlarni o'rganish davomida unga yondosh til belgilarini ham tadqiq qilish uning mohiyatini yada chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

Tavnologik birliklar jumlaning kommunikativ bo'linishida ham o'ziga xos o'ringa egaligini e'tirof qilish o'rinli.

She'riy jumlaning yahamiyatli bo'lagi – temasini shakllantirishda sintaktik tavnologiya muhim o'rin egallaydi. Shoir jumla temasini shakllantirishda turli grammatik shakllardan unumli foydalangan. Ba'zan ularning qavatlangan o'rinlari ham uchraydi.

Adabiyotlar

Алишер Навоий асарлари луғати. 1972. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.

Навоий, А. 1988. *Ғаройиб ус-сиғар*. МАТ, III жилд. Тошкент: Фан.

Аширбоев, С. 1990. *Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари*. Филол. фан. докт. ...дис. Тошкент.

Давлатов, О. 2021. *Маънолар хазинаси. 1-3-жилдлар*. Тошкент: Тамаддун.

Ҳожиев, А. 2002. *Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати*. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.

Исҳоқов, Ё. 1965. *Алишер Навоийнинг илк лирикаси*. Тошкент: Фан.

Исҳоқов, Ё. 1983. *Навоий поетикаси*. Тошкент: Фан.

Қуронов, Д. ва б. 2010. *Адабиётшунослик луғати*. Тошкент: Академнашр.

Раҳматов М. 2008. *Алишер Навоийнинг насрий асарларида эргаштирувчи боғловчили гапларнинг синтактик-семантик хусусиятлари*. Филол. фан. номз. ...дис. Тошкент.

Валгина Н. 2003. *Теория текста*. Москва: Логос.

In the lyrical works of Alisher Navoi, the syntactic semantic features

Mardon Rahmatov¹

Abstract

In Alisher Navoi's lyric works, syntactic repetition is one of the language units that make up the syntactic structure of the text of poetry. Such devices are not exist in modern Uzbek language (in poetry). Therefore, it is very important to study and know the role, function of their classical lyric art. The syntactic units are specially entered in the structure of the text of poetry by the poet and subjected to his own poetic purposes, so it does not seem as an extra line in the composition of a poetic sentence. The study of such unusual devices used in the lyric works of Alisher Navoi - the study of syntactic repetitions in terms of diachronic

¹ Mardon M. Rahmatov – Candidate of philological sciences, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-pochta: mardonrahmat@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-9238-2541

For citation: Rahmatov, M.M. 2022. "In the lyrical works of Alisher Navoi, the syntactic-semantic features". Uzbekistan: Language and Culture 3: 56-70.

perspective allows them to scientifically justify their specific aspects and make certain conclusions.

Key words: *syntax, repetition, semantics, head word, referring part, pronoun, poetic speech, aesthetic task, stylistic device.*

References

- Алишер Навоий асарлари луғати. 1972. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.
- Навоий, А. 1988. *Ғаройиб ус-сиғар. МАТ, III жилд*. Тошкент: Фан.
- Аширбоев, С. 1990. *Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари*. Филол. фан. докт. ...дис. Тошкент.
- Давлатов, О. 2021. *Маънолар хазинаси. 1-3-жилдлар*. Тошкент: Тамаддун.
- Ҳожиёв, А. 2002. *Тилишунослик терминларининг изоҳли луғати*. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.
- Исҳоқов, Ё. 1965. *Алишер Навоийнинг илк лирикаси*. Тошкент: Фан.
- Исҳоқов, Ё. 1983. *Навоий поетикаси*. Тошкент: Фан.
- Қуронов, Д. ва б. 2010. *Адабиётшунослик луғати*. Тошкент: Академнашр.
- Раҳматов М. 2008. *Алишер Навоийнинг насрий асарларида эргаштирувчи боғловчили гапларнинг синтактик-семантик хусусиятлари*. Филол. фан. номз. ...дис. Тошкент.
- Валгина Н. 2003. *Теория текста*. Москва: Логос.

Lakuna – til va madaniyatning mushtarak muammosi

Abdumannon Hasanov¹

Abstrakt

Maqola til va madaniyatning mushtarak muammosi bo'lgan lakuna tushunchasining tavsifiga bag'ishlangan. Unda lakuna tushunchasining paydo bo'lishi, o'rganilishi va lingvistik ahamiyatiga doir mulohazalar bayon etilgan. Xususan, o'zbek tilshunosligida lakuna tushunchasining o'rganilishi va bu boradagi yutuq va kamchiliklar tahlilga tortilgan.

Maqolada lakuna tushunchasining o'ziga xosligi, tavsifiga alohida diqqat qaratilgan. Bu hodisaning yondosh hodisalardan, xususan, realiyalardan farqlanishiga oydinlik kiritilgan. Joriy davrda tilshunoslikda bu ikki hodisaning qorishtirilishi bilan bog'liq holatlar tanqidiy tahlil qilingan.

Lakuna hodisasining chuqur tadqiq etilishi boshqa til va madaniyatni o'rganishga keng imkoniyatlar yaratishi asoslangan. Shuningdek, muayyan tilni turli tillarni qiyoslab o'rganish va shu asosda undagi leksik lakunalarni aniqlash hamda bartaraf etish til leksikasi taraqqiyoti uchun muhim ekanligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: *lakuna, realiya, kontsept, ekvivalentsizlik, lakunarlik, leksik bo'shliq, lisoniy ehtiyoj.*

Kirish

Turli til va madaniyatni qiyoslash jarayonida paydo bo'lgan lakuna atamasi tilshunoslikda so'nggi yillarda keng qo'llanilayotgan tushunchalardan biriga aylandi. Bugungi kunda bu tushuncha lingvokulturologiya, lingvomamlakatshunoslik, tarjimashunoslik, madaniyatlararo muloqot nazariyasi, madaniyatshunoslikka oid tadqiqotlarda faol qo'llanilmoqda. Har bir sohada uning qo'llanilishida mushtarak jihatlar bo'lgani kabi farqli jihatlar ham mavjud. Bu farqli jihatlar tadqiqot sohasining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilinishda ko'zga tashlanmoqda.

Lakuna termini ilk bor kanadalik olimlar J.Vine va J.Darbelnelar tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Mazkur olimlar "Fran-

¹ Abdumannon M. Hasanov – Doctor of Philosophy in Philology (PhD), Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: abdumannonhasanov3137@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-8656-0521

For citation: Hasanov, M. A. 2022. "Lacuna is a common problem of language and culture". Uzbekistan: Language and Culture 2: 57-70.

suz va ingliz tillarini qiyoslash uslubi” nomli kitobida lakunaga ikki til qiyosida aniqlanadigan lisoniy hodisa sifatida quyidagicha tarif bergan: “Bir tildagi soʻzning boshqa tilda muqobili topilmagan oʻrinlarda lakuna hodisasi voqelanadi” [Vinay, Darbelnet 1958, 10]. Tarifdan ham koʻrinib turibdiki, ikki til muqoyasasida aniqlanadigan va tillarning birida muqobili mavjud boʻlmagan tushunchani ifodalash uchun mazkur atama qoʻllangan. Lakuna atamasining keyingi davrdagi juzʼiy semantik oʻzgarishlarga uchrashiga qaramasdan asl terminologik xususiyatlarini saqlab qolishida ayni shu tarif birlamchi asos vazifasini oʻtab kelmoqda.

Lakuna muammosi bilan jiddiy shugʻullangan olimlardan yana biri V.Gak lakunalarni “til leksik sathidagi boʻshliqlar, bor boʻlishi kerak boʻlgan soʻzlarning mavjud emasligi” deb izohlaydi [Gak 1977, 261]. Mazkur izohdan sezish mumkinki, olim til leksikasini boshqa til bilan qiyoslamasdan ham undagi lakunalarni aniqlash va baholash mumkinligini eʼtirof etadi. Albatta, til leksikasidagi boʻshliqlarning mavjudligi tilshunoslik ilmida avvaldan maʼlum. Oʻzbek tilining asoschisi Alisher Navoiy oʻzining “Muhokamat-ul lugʻatayn” asarida turkiy va forsiy tilni chogʻishtirish orqali muayyan tilda ayrim tushunchalarni ifodalovchi soʻzga boshqa tilda doim ham muqobil soʻz mavjud boʻlavermasligini aniq misollar tahlilida tushuntirib oʻtgan [Navoiy 2012, 515–519].

Muammoning oʻrganilganlik darajasi

Lakuna hodisasining lingvistik xususiyatini ochib berishda va alohida lisoniy kategoriya sifatida tan olinishida rus olimlarining xizmatlari katta. I.Sternin ishlarida lakuna hodisasining lingvistik mohiyati, uning bir til ichida ham kuzatilishi eʼtirof etilgan. G.Bikova esa lakunaning voqelanishi, turlari, aniqlanishi va boshqa xususiyatlarini rus tili misolida tavsiflab bergan. Bugungi kunda dunyo tilshunosligida lakuna muammolarini yoritishda rus tilshunoslarining tajribalariga tayanilmoqda [Bikova 2003, 221]. Chunonchi, I.Sternin va uning izdoshlari tomonidan shakllantirilgan lakunologiya maktabida tilning ichki lakunalarini oʻrganishga ham jiddiy eʼtibor qaratilmoqda va bu ishlar dunyo tilshunoslarining katta qiziqishlariga sabab boʻlmoqda.

Lakuna atamasining keng qoʻllanilishi va ommalashishi XX asrning 70-yillaridan boshlangan. Ayni shu yillarda lingvokulturologiya, tarjimashunoslik, lingvomamlakatshunoslik sohalarida tillarni qiyosiy oʻrganish, ularning bogʻliqligi va farqlanishlarini tadqiq etishga eʼtibor ancha kuchaydi. Mazkur tadqiqotlarda lakuna tushuncha-

si oraliq, lakuna, zid soʻzlar, oraliqlar, lakunalar yoki til xaritasidagi oq dogʻlar, tarjima qilib boʻlmaydigan soʻzlar, muqobilsiz, nol soʻz, muqobilsiz yoki fonli leksika, tasodifiy lakunalar, tarjimasiz leksika kabi atamalar bilan nomlangan [Usmanova 2019, 129–130]. Garchi turli manbalarda turlicha nomlangan boʻlsa-da, tilda oʻz nomiga (nomemaga) ega boʻlmagan tushuncha (semema)ni ifodalovchi mazkur hodisa haqida tadqiqotchilarning qarashlari bir-biriga yaqin.

Oʻzbek tilshunosligida lakuna muammosi

Oʻzbek tilshunosligida lakuna hodisasining chuqur oʻrganilishi Z. Xolmanovanning ishlari bilan bogʻliq. Shu olim boshchiligida tayyorlangan “Lingvokulturologiyaga oid tushunchalar tadqiqi”da lakuna hodisasining tilshunoslikda oʻrganilishi, mohiyati, boshqa lingvistik hodisalardan farqlanishi, ichki lakuna (introlakuna) va uni oʻrganish muammolari haqida qimmatli fikrlar mavjud. Z. Xolmanovanning “Alisher Navoiyning zamonaviy tilshunoslik taraqqiyotidagi oʻrni” nomli maqolasi A. Navoiyning tildagi lakuna (boʻshliq) hodisasi haqidagi fikrlarini tahlil qilishga bagʻishlangan [Xolmanova 2021, 9–18]. Olima taʼkidlaganidek, lakuna tushunchasi paydo boʻlmagan davrda ham olimlar til leksikasidagi boʻsh katakchalar haqida oʻz mulohazalarini bayon etgan.

Soʻnggi davrda oʻzbek tilshunosligida lakuna hodisasini oʻrganishga bagʻishlangan ishlardan biri N. Ismatullaevaning “Xitoy va oʻzbek tillarida lakunalarning voqelanishi” nomli dissertatsiyasidir. Olima lakunalarni xitoy va oʻzbek kontseptosferasida tahlil qilgan ekan, ikki til va madaniyatni qiyoslashda bu kabi lisoniy hodisani muqarrar mavjudligini eʼtirof etadi. Jahon tilshunosligida mavjud boʻlgan nazariy qarashlar asosida ularning turlari va aniqlanish usullarini tavsiflaydi. N. Ismatullaevaning taʼkidlashicha, “lakuna biror xalqning kontseptlari majmuida tushuncha sifatida mavjud boʻlgan, biroq leksik shaklda oʻz ifodasini topmagan holatlarda voqelanadi” [Ismatullaeva 2021, 21].

Yana bir tadqiqotchi F. Musaevaning “Oʻzbek shevalarining lingvomadaniy tadqiqi” nomli monografiyasida alohida bir paragraf oʻzbek tilidagi lakunalarni sheva soʻzlari bilan boyitishga bagʻishlangan. Mazkur ishda ham tadqiqotchi lakuna hodisasining voqelanishi, yondosh lingvistik hodisalardan farqlanishi, shuningdek, ularni bartaraf etishda dialektal soʻzlarning imkoniyatlari haqida muhim fikrlarni qayd etgan [Musaeva 2019, 120].

Lakuna va realiya munosabati

Tilshunoslikda bir necha til va madaniyatni chog'ishtirib o'rganishga xizmat qiluvchi ekvivalentsizlik (va unga yondosh ekvivalentlik) tushunchasi ham lakuna atamasi bilan bir vaqtda paydo bo'lgan (bu ikki tushuncha ham kanadalik olimlar J.Vine va J.Darabelnelar tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan). Shuningdek, bir muddat lakuna hodisasi ekvivalentsizlikning bir ko'rinishi sifatida tadqiqqa tortilgan va birgalikda o'rganilgan. Mazkur davrda realiya atamasi qo'llanilmagan va bu hodisa ham ekvivalentsiz so'zlar tarkibida qaralgan. Garchi realiya atamasi o'tgan asrning 20-yillaridayoq paydo bo'lgan bo'lsa-da [Handschin 1924, 208], uni lakuna hodisasi bilan qorishtirish va ekvivalentsiz so'zlarni tavsiflashda munozarali fikrlar bildirilishi hozirgacha davom etib kelmoqda. Buning asosiy sababi realiyaning muayyan bir millat tili va madaniyatigagina xos unsur ekanligini turlicha talqin etish bilan bog'liq. "Realiyalar muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti va madaniyatini tashkil etuvchi insonlar, voqealar, institutlar, narsa-buyumlar" [Handschin 1924, 209] sifatida baholansa-da, ularning qamrovi va chegaralarini belgilashning nisbiyligi realiya haqidagi talqinlarning turfa xillik kasb etishini, u haqidagi izohlarning bir-biridan farqlanishini yuzaga keltiradi. Shu o'rinda bu ikki tushuncha bir-biri bilan o'xshash va farqli jihatlarini aniq belgilashga ehtiyoj tug'iladi [Xasanov, 2021, 30]. Mazkur ikki tushuncha turli til va madaniyatni qiyoslashda seziladi, aniqlanadi; qiyoslanuvchi tillarning birida ularga muqobil so'z mavjud bo'lmaydi. Muayyan bir til (L1) va unga qiyoslanayotgan til (L2) ni shartli ravishda L1, L2 tarzida belgilasak, lakuna L2 tilda ham tushuncha, ham so'z holida mavjud bo'lgan, ammo L1 tilda faqat tushuncha holida mavjud bo'lgan birlik; realiya esa L1 tilda ham tushuncha, ham so'z holida mavjud bo'lgan, ammo L2 tilda so'z holida ham, tushuncha holida ham mavjud bo'lmagan birlikdir.

Realiya va lakuna hodisasining tarjima bilan bog'liqligiga ko'proq e'tibor qaratilgan ayrim ishlarda hanz chalkashliklar uchraydi: M.Shattlvorz, M.Kovie fikrlariga asoslanib tarjimadagi mushkulliklarni lisoniy va madaniy qiyinchiliklarga ajratgan N.Ismatullaeva "lisoniy qiyinchiliklarni yuzaga keltiruvchi obyekt birliklarni lakuna va lakunar birliklar, madaniy murakkabliklarni hosil qiluvchi obyekt birliklarni esa realiyalar deb farqlash maqsadga muvofiq" [Ismatullaeva 2021, 21] deb baholaydi. Realiyada mavjud bo'lgan xususiyatlar noodatiylik, notanishlik, g'ayritabiiylik va tushunarli emaslikni anglash u qadar qiyin emas. Biroq ayrim tadqiqotlarda mazkur xususiyatlarni lakunaga ham mansub deb hisoblovchilar bor [Musayeva 2019, 120]. Ayni shu xildagi qarashlar ham lakuna va realiyaning

qorishtirilishiga sabab bo'lmoqda.

Realiya va lakunaning eng muhim farqi lakuna muayyan millat ongida mavjud bo'lgan, ammo shu millat tilida nomlanmagan (leksemalashmagan) tushuncha; uni shu millat vakillari ham, boshqa til sohiblari ham osongina tushunadi, anglaydi. Realini esa tushunish va tasavvur qilish bir oz mushkul. Chunki u muayyan millatning urf-odatlarini, dunyoqarashi mahsuli bo'lib, u o'ziga millat(lar) ongi (madaniyati)da mavjud emas. Shu bois u boshqa til (va madaniyat) sohibi uchun notabiiy va g'ayrioddiy tuyuladi.

Har bir so'z yaralishidanoq o'z sohibi bo'lgan millatning madaniyati va mentaliteti, lisoniy idroki va dunyoqarashi mahsuli sifatida milliy-madaniy xususiyatlarga ega bo'ladi (Rakhimjonovich, 2020). Ayniqsa realiyalar – millatning o'ziga xos madaniyati bilan bog'liq so'zlarda bu xususiyat yanada yorqin akslanib turadi [Toji-boyev, 2021]. Bu esa mazkur so'zlar (va tushunchalar)ning o'ziga millat vakillari tomonidan o'zgacha qabul qilinishiga asosiy sababdir. Lakunada esa atash semalari milliy-madaniy xoslanganlikdan ustuvor bo'ladi (Khasanov, 2020). Umuman olganda, realini muayyan millatga xos tushuncha va so'z, lakunani esa anglanilishi va qo'llanilishi mumkin bo'lgan atovchisiz (leksemalashmagan) tushuncha tarzida tushunilishi bu boradagi izlanishlarda ilmiy mo'ljalning to'g'ri olinishini ta'minlaydi.

Leksik lakunalarning to'ldirilishi

Til egalariga ma'lum bo'lgan, ammo alohida leksema bilan nomlanmagan tushuncha (lakuna), odatda, ikki til leksikasini qiyoslashda yorqin seziladi. Umuman, bir tilda (boshqa til bilan qiyoslamasdan) ham leksik lakunalarni aniqlash mumkin [Majidovich 2021, 6]. Masalan, o'zbek tilida transport vositalarining harakatini sekinlashtirish (piyodalarning xavfsizligini ta'minlash) uchun yo'lga ko'ndalang o'rnatiladigan sun'iy bo'rtiq o'z nomiga ega emas. Yoki qo'lning kaftdan tirsakkacha bo'lgan qismi bilak deb nomlangani holda tirsakdan yelkagacha bo'lgan qismi alohida so'z bilan nomlanmagan. Bunday leksik bo'shliqlar tilning diaxron va sinxron leksikasini qiyoslashda ham kuzatilishi mumkin: masalan, eski o'zbek tilida "cho'chqa bolasi" cho'rpa nomi bilan atalgan (bugungi kunda ayrim shevalarda chulpak tarzida uchraydi), biroq hozirgi o'zbek adabiy tilida bu tushunchani nomlovchi leksema mavjud emas. Bu kabi leksik lakunalar barcha tillarda istalgancha topilishi mumkin. Chunki ong-dagi barcha tushunchalarning leksema tarzida reallashishi mushkul.

Biror tushunchaning tilda leksemalashishi shu tushunchani

nomlashga bo'lgan lisoniy-nutqiy ehtiyojga bog'liq. Odatda, muayyan tushunchaning relevant (ahamiyatli)ligi va nomlash zarurati shu tushunchaning boshqa til(lar)da nomlangan-nomlanmaganligini o'rganish orqali xolis baholanishi mumkin [Hasanov 2021, 16]. Lakuna hodisasining bugungi kunda keng o'rganilayotgani ham mazkur jihatlariga aloqador.

Ikki til leksikasi qiyoslanar ekan, undagi aksar so'zlar ekvivalent bo'lsa-da, ular butunlay bir-biriga muqobil, mos bo'la olmaydi [Xolmanova va boshqalar 2018, 76]. Buning asosiy sababi muayyan kontsept turli millatlarda turli madaniy semalarga ega bo'ladi. Masalan, ajdar kontsepti o'zbek tilida afsonaviy xayoliy ilon sifatida anglansa, Xitoy madaniyatida u totemistik semasi bilan ulug'vorlik va qudrat timsoli sifatida reallashadi. Bu kabi holatlar til egalarining lisoniy idroki, dunyoqarashi, ruhoniy sajiyasi bilan bog'liq ravishda vujudga keladi. Bundan bilish mumkinki, ikki tilda ekvivalent bo'lgan birliklar ham muayyan semasiga ko'ra lakunarlik kasb etishi mumkin [Xasanov 2021, 68]. Yuqoridagi misolda ajdar kontseptining Xitoy madaniyatidagi diniy-totemistik semasi o'zbek tili uchun lakuna sanaladi.

Yana bir misol: Yangi yil bayrami yangi yilning boshlanishi bilan nishonlanadigan an'ana sifatida ko'pgina xalqlar madaniyatida mavjud. Biroq xalqlarning turli taqvimlardan foydalanishi sabab ularning nishonlanish vaqti bir-biriga nisbatan farqlanishi kuzatiladi. Garchi ularning mohiyati, mazmuni bir xil bo'lsa-da, muayyan milliy-madaniy xususiyatlariga ko'ra bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi. Demak, "borliqdagi ayni bir narsa-voqelik (denotat, atalmish) haqidagi tushunchani ifodalashga xizmat qiluvchi ikki tildagi leksemaning ma'nolari o'zaro o'xshash yoki yaqin bo'lsa-da, har bir tildagi leksemaning ma'noviy qiymati o'zgachadir" [Ne'matova 1996, 22.].

Ikki til muqoyasasida kontseptning farqlanishi semantik va bo'laklab tahlil qilishda yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, rus tilida olma mevasi va daraxtini nomlovchi ikkita leksema (yabloko, yablonya) mavjud bo'lsa, o'zbek tilida bu ikki semema bitta leksema bilan ifodalanadi. Ayni shu kabi jarayonlarda muayyan so'zning ikkita (yoki undan ortiq) sememani nomlashi natijada qiyoslanuvchi tillarda o'sha so'zga yarim muqobil (ya'ni, u ifodalaydigan sememaning bittasini nomlovchi) so'zning o'zaro lakunarligini izohlashda lakuna va lakunar birlik tushunchalarini farqlash lozimligi ta'kidlanadi [Xolmanova va boshqalar 2018, 76]. Aslida ham qiyoslanayotgan tillarda bir necha tushunchani bir nom bilan atalish

holatlari ko'p. Negaki tilning tadrijiy taraqqiyoti, so'zlarning ko'chma ma'nolarda qo'llanilishi va boshqa jihatlar bu kabi holatlarning shakllanishiga turtki berib turadi. Til egalarining mushtarak lisoniy dunyoqarashi sabab bir tildagi muayyan so'zning semantik mundariyasi ikkinchi tildagi so'zga mos kelishi mumkin. Bu kabi holatlar, odatda, monosemantik, kam qo'llaniluvchi so'zlar uchungina amal qiladi. Ko'p ma'noli (polisemantik) va faol qo'llaniluvchi so'zlar haqida bunday moslikning kam kuzatilishi tabiiy.

Tillar qiyosida aniqlanadigan lakunarlikni ikki toifaga ajratib o'rganishni tavsiya etgan L.K.Bayramova qiyoslanayotgan tillarning birida (shartli ravishda L1 tilda) ochiq, tushib qolgan o'rinni lakuna, ikkinchi (qiyoslanuvchi – L2) tilda mavjud bo'lgan tushuncha (sema)ni lakunar birlik sifatida ajratish lozimligini ta'kidlaydi [Bayramova 2005, 78]. Bizningcha ham, mazkur birliklarni bir-biridan ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq. Zero, L1 tildagi bo'shliqni tavsiflash uchun uni muayyan etalon (yoki model)ga qiyoslamasdan o'rganish unchalik o'zini oqlamaydi. Shuningdek, L2 tildagi lakunar birlikning lingvistik ahamiyati va qiymatini bilmasdan turib L1 tildagi lakunani to'ldirish zaruriyatini ham real baholash mushkul.

Lakuna berilgan aksar tariflarda ikki leksik tizim muqoyasasida aniqlanadigan lingvistik hodisa nazarda tutilar ekan, albatta, bu o'rinda qiyoslanuvchi har ikki birlikning farqli va mushtarak jihatlarini yaxshi anglash uchun ham ularni alohida nomlash va tav siflash lozim bo'ladi.

Xulosa

Muayyan leksik tizimdagi lakunalarni tahlil qilishda juda ko'p bo'shliqlarni aniqlash mumkin. Biroq ulardan qaysilarini to'ldirish dolzarbligini aniqlashda ikki leksik tizimning muqoyasa qilinishi ancha to'g'ri qaror qabul qilinishini ta'minlaydi [Majidovich 2021, 289]. Bu kabi jarayonlarda ham ikki leksik tizimdagi qiyoslanuvchi birliklarni alohida va mushtarak jihatlariga e'tibor qaratish talab qilinadi.

Lakuna hodisasining bugungi kunda keng o'rganilayotganligi turli tillarning o'zaro aloqadorligi va farqli jihatlarini aniqlashda ham qo'l kelayotganligi bilan izohlanadi [Majidovich 2021, 291]. Ayniqsa bugungi globallashuv va integratsiya jarayonlari avj olayotgan bir davrda har bir millatning tili va madaniyatiga ta'sir etayotgan turli omillarni o'rganishda ham lakuna tushunchasi bilan bog'liq tadqiqotlarga ehtiyoj sezilaveradi.

Bugungi kunda lakunani o'rganish faqat ikki tildagi farqli ji-

hatlarni aniqlashdangina iborat emas. Til leksikasining tizimli to'ldirilishi, boyitilishi uchun ham mazkur lingvistik hodisani chuqurroq tadqiq etish lozim. Tadqiqotchilar o'z ona tillarini o'zga til bilan qiyoslab, leksik sathdagi bo'shliqlarni aniqlashga va ularni bartaraf etishga intilmoqda, shuningdek, tafakkur va tasavvur bilan bog'liq, ongda shakllanadigan yangi tushunchalarning paydo bo'lishini hamda ularning nomlanish jarayonlarini ham obyektiv o'rganishga harakat qilmoqdalar. O'zbek tilshunosligida ham bu boradagi ishlarni jonlantirish, xususan, o'zbek tilini boshqa tillar bilan qiyoslab, undagi leksik lakunalarni aniqlash hamda to'ldirish til taraqqiyotini, sofligini ta'minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir

Adabiyotlar

Ashirbaev, S. 2020. "Forms of interactions in simple sentences in prose of Alisher Navoi are one of the tools of complicating the sentences". Theoretical & Applied Science. 5: 605-609.

Ashirbaev, S. 2020. "Alisher Navoiy asarlari tili va Andijon shevasi". Uzbekistan: Language and Culture 1(1): 3-36

Bobomurodova, Sh. 2021. "Alphabet reforms in uzbekistan in 20-30s and Elbek's services in this regard". Asian journal of multidimensional research 10: 494-497.

Khasanov, A. 2021. "Enrichment of uzbek lexic reserve with kypchak dialect". Лингвистические исследования и их использование в практике преподавания русского и иностранных языков, 84-89.

Majidovich, K. 2021. "Features of Dialectal Words That Fill in the Gaps in the Language Vocabulary". International Journal on Integrated Education 4(10): 157-164.

Majidovich, K. 2021. "Filling Lexical Gaps In The Uzbek Language With Dialectisms (Based On The Turkic-Kaltatoy Dialect)". International Journals of Sciences and High Technologies 25: 01-07.

Majidovich, K. 2021. "Possibilities of Kipchak Dialects in filling the Lexicon of Uzbek". International Journal on Integrated Education 4: 287-294.

Navoiy, A. 2012. *Muhokamat ul-lug'atayn. To'la asarlar to'plami*, 515-519. Tashkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Khasanov, A. 2020. "The linguocultural significance of euphemisms as a speech lacunae". Лисоний маданиятни шакллантириш: тажриба, муаммо ва ечимлар" мавзусидаги илмий-амалий анжуман материаллари, 100-105. Шахрисабз: TDPU nashriyoti.

Rakhimjonovich T. 2020. "The study of national-cultural units in uzbek and world linguistics". Anglisticum. Journal of the Association-Institute

for English Language and American Studies 9(6): 68-76.

Tojiboev, B. 2021. *Lisonic and nolisonic factors of national-cultural associations*. Scientific Bulletin of Namangan State University 2 (2): 215-220.

Umurzakova, M. 2020. *"The semantic-structural description of segmented constructions of the uzbek language and the problems of their study"*. Theoretical & Applied Science 5: 685-688.

Vinay, J., Darbelnet, J. 1958. *Stylistique comparee du fraicais et de l'anglais*. Paris: 1958.

Xolmanova, Z. 2021. *"Alisher Navoiyning zamonaviy tilshunoslik taraqqiyotidagi o'rni"*. Alisher Navoiy 1: 9-18.

Xolmanova Z., Saidahmedova O., Nurillayeva O. 2018. *Lingvokulturologiyaga oid tushunchalar tadqiqi*. Toshkent: Navro'z.

Быкова, Г. 2003. *Лакуарность как категория лексической системологии*. Благовещенск: Изд-во БГПУ.

Гак, В. 1977. *Сравнительная типология французского и русского языков*. Ленинград: Просвещение, 1977.

Жамоа. 1983-1985. *Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати*. Э. Фозилов таҳрири остида. Тошкент: Фан.

Исматуллаева, Н. 2021. *Хитой ва ўзбек тилларида лакунарнинг воқеланиши*: Фил.ф.б.ф.д (PhD) дисс. Тошкент: ТДШУ.

Мусаева, Ф. 2021. *Ўзбек шевалярининг лингвомаданий тадқиқи*. Тошкент: Фан.

Неъматова, Г. 1996. *"Ўсимлик номларининг маъновий қиймати"*. Ўзбек тили ва адабиёти 6: 22-25.

Хасанов, А. 2021. *"Заполнение лексического лакуна в узбекском языке диалектизмами (на материале животноводственной лексики)"*. Всероссийская студенческая научно-практическая конференция: 179-189. Нижневартонск: Нижневартонского государственного университета.

Хасанов, А. 2021. *"Комментарии по диалектным словам и отношение литературному языку"*. Приоритетные направления развития спорта, туризма, образования и науки: 568-573. Нижний Новгород: Сборник тезисов и докладов статей международной научно-практической конференции.

Хасанов, А. 2020. *"On the differences between literary and dialectal vocabulary"*. Иностраные языки в Узбекистане 6: 41-51. doi: 10.36078/1613982881

Lacuna is a common problem of language and culture

Abdumannon Hasanov¹

Abstract

The article describes the concept of lacunae, a common problem of language and culture. It discusses the origin, study, and linguistic significance of the concept of lacunae. In particular, the study of the concept of lacuna in Uzbek linguistics and the achievements and shortcomings in this area are analyzed.

The article pays special attention to the specificity and description of the concept of lacuna. It is clarified that this phenomenon differs from related events, in particular, from realities. In the present period, linguistics has critically analyzed the cases of mixing these two phenomena.

An in-depth study of the Lacuna phenomenon is based on the fact that it provides ample opportunities for the study of other languages and cultures. It is also emphasized that the comparative study of different languages and the identification and elimination of lexical gaps in them are important for the development of language lexicon.

Key words: *lacuna, reality, concept, inequality, lacunar, lexical space, linguistic need.*

References

- Ashirbaev, S. 2020. *"Forms of interactions in simple sentences in prose of Alisher Navoi are one of the tools of complicating the sentences"*. Theoretical & Applied Science. 5: 605-609.
- Ashirbaev, S. 2020. *"Alisher Navoiy asarlari tili va Andijon shevasi"*. Uzbekistan: Language and Culture 1(1): 3-36
- Bobomurodova, Sh. 2021. *"Alphabet reforms in uzbekistan in 20-30s and Elbek's services in this regard"*. Asian journal of multidimensional researc 10: 494-497.
- Khasanov, A. 2021. *"Enrichment of uzbek lexic reserve with kychak dialect"*. Lingvisticheskie issledovaniya i ix ispolzovanie v praktike prepo-

¹Abdumannon M. Hasanov – Doctor of Philosophy in Philology (PhD), Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi. E-mail: abdumannonhasanov3137@gmail.com
ORCID ID: 0000-0002-8656-0521

For citation: Hasanov, M. A. 2022. "Lacuna is a common problem of language and culture". Uzbekistan: Language and Culture 2: 57-70.

praktike prepodavaniya russkogo i inostrannykh yazykov, 84-89.

Majidovich, K. 2021. *"Features of Dialectal Words That Fill in the Gaps in the Language Vocabulary"*. International Journal on Integrated Education 4(10): 157-164.

Majidovich, K. 2021. *"Filling Lexical Gaps In The Uzbek Language With Dialectisms (Based On The Turkic-Kaltatoy Dialect)"*. International Journals of Sciences and High Technologies 25: 01-07.

Majidovich, K. 2021. *"Possibilities of Kipchak Dialects in filling the Lexicon of Uzbek"*. International Journal on Integrated Education 4: 287-294.

Navoiy, A. 2012. *Muhokamat ul-lug'atayn. To'la asarlar to'plami*, 515-519. Tashkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Khasanov, A. 2020. *"The linguocultural significance of euphemisms as a speech lacunae"*. Lisoniy madaniyatni shakllantirish: tajriba, muammo va yechimlar" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 100-105. Shahrisabz: TDPU nashriyoti.

Rakhimjonovich T. 2020. *"The study of national-cultural units in uzbek and world linguistics"*. Anglisticum. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies 9(6): 68-76.

mologii. Blagoveshensk: Izd-vo BGPU.

Gak, V. 1977. *Sravnitel'naya tipologiya fransuzskogo i russkogo yazykov*. Leningrad: Prosveshchenie, 1977.

Jamoa. 1983-1985. *Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugati*. E. Fozilov tahriri ostida. Toshkent: Fan.

Ismatullaeva, N. 2021. *Xitoy va o'zbek tillarida lakunalarning vo-qelanishi*: Fil.f.b.f.d (PhD) diss. Toshkent: TDSHu.

Musaeva, F. 2021. *O'zbek shevalarining lingvomadaniy tadqiqi*. Toshkent: Fan.

Ne'matova, G. 1996. *"O'simlik nomlarining ma'noviy qiymati"*. O'zbek tili va adabiyoti 6: 22-25.

Xasanov, A. 2021. *"Zapolnenie leksicheskogo lakuna v uzbekskom yazyke dialektizmami (na materiale životnovodstvennoy leksiki)"*. Vserossiyskaya studencheskaya nauchno-prakticheskaya konferensiya: 179-189. Nijnevartovsk: Nijnevartovskogo gosudarstvennogo universiteta.

Xasanov, A. 2021. *"Kommentarii po dialektnym slovam i otnoshenie literaturnomu yazyku"*. Prioritetnye napravleniya razvitiya sporta, turizma, obrazovaniya i nauki: 568-573. Nijniy Novgorod: Sbornik tezisov i dokladov statey mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii.

Hasanov, A. 2020. *"On the differences between literary and dialectal vocabulary"*. Inostrannyye yazyki v Uzbekistane 6: 41-51. doi: 10.36078/1613982881

Alpomish dostoni matnlarining alfavit va chastotali lug'atlari hamda statistik tahlillari

Muhammadsolih Tursunov¹

Abstrakt

Ushbu maqolada korpus yaratish dasturiy vositalari asosida Alpomish dostonlari matnlarini tadqiq etishga bag'ishlangan. Bunda Alpomish dostonlari matnlarini tanlab olish, alfavitli va chastotali lug'atlarini tuzish jarayonlari va natijalari tavsiflangan. So'ng Alpomish dostonlari matnlarining statistik tahlili natijalari bayon qilingan. Lug'atda birato'la so'zlar chastotasining va ters holatning berilishi ham ilmiy, ham amaliy ahamiyatga egadir. Undan ijodkor uslubi uchun xarakterli bo'lgan so'zlarni aniqlash mumkin bo'ladi. Lug'at kompyuter yordamida tuzilganligi sababli bu borada yuqori darajadagi aniqlikka erishildi, deb ayta olamiz. Dastur yordamida lug'at tuzish vaqtida uchrashi mumkin bo'lgan ba'zi kamchiliklar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: *Alpomish, lug'at, alfavit-chastotali lug'at, chastotali lug'at, so'z, chastota, so'z turkumi, statistika;*

Kirish

“Alpomish” – qadimiy dostonlardan biridir. U qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi sevgi va sadoqat, oila mustahkamligini kuylovchi ulkan eposdir. Unda bir oila taqdiri misolida vaziyat taqozosi bilan bog'lanib ketgan qadimiy bir o'zbek urug'ining qayta birlashishini badiiy aks ettirish orqali millat birligi g'oyalari, uning qahramonona shon-shuxrati va istiqboli, el-yurt farovonligi, oila baxti va Vatan ravnaqi uchun kurash baralla kuylangan. Qahramonlik dostonlarimiz asrlar mobaynida xalqimizga juda katta ruhiy va ma'naviy quvvat berib kelayotir. Shuning uchun ular ma'naviy qadriyatlarimizning alohida tarkibiy qismi sanaladi. Marosimlarga aloqador urf-odat va an'analarning bevosita dostonlarda berilishi masalasiga, ikkinchidan, doston kuylashning maro-

¹ Tursunov Muhammadsolih Sa'din o'g'li – mustaqil tadqiqotchi, Sharof Rashidov

nomidagi Samarqand davlat universiteti.

E-pochta: muhammadsolih927@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-6485-3630

Iqtibos uchun: Tursunov M.S. 2022. “Alpomish dostoni matnlarining alfavit va chastotali lug'atlari hamda statistik tahlillari”. 3:

simlar bilan bog'liq tarzda davom etayotgani masalasiga ahamiyat berish kerak. «Alpomish» dostoni o'zbek xalqi qadimiy qahramonlik eposining yorqin namunalaridan biridir. Unda Alpomishning o'z yaqinlari tinchligi, baxtu saodati yo'lida ko'rsatgan qahramonliklari madh etiladi. Shu bilan birga, ushbu dostonida jamiyat va inson hayoti masalalari o'ziga xos reallikda – qahramonlik va go'zallik haqidagi xalq ideallari doirasida kuylanadi.

«Alpomish» dostoni o'zbek xalqi orasida ikki versiya va ko'plab variantlarda juda keng tarqalgan. O'tgan asrda uning variantlari o'ttizga yaqin xalq baxshisidan qirqqa yaqin variantda yozib olingan. Uning to'la variantlari Fozil Yo'ldosh o'g'li, Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'ltan, Berdi baxshi, Bo'ri Sodiq o'g'li, Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, Abdulla Nurali o'g'li, Saidmurod Panoh o'g'li, Umir Safar o'g'li kabi etakchi dostonchi baxshilardan yozib olingan. Shular orasida eng mukammali, badiiy jihatdan eng yuksagi atoqli xalq shoiri Fozil Yo'ldosh o'g'lidano yozib olingan nusxa hisoblanadi. Unda shoirning yuksak dostonchilik mahorati to'la namoyon bo'lgan. Fozil Yo'ldosh o'g'li «Alpomish» dostonini butun umr bo'yi kuylab kelgan. Atoqli shoir Hamid Olimjonning obrazli iborasi bilan aytganda, bu doston uning shoirlik beshigi bo'lgan. Binobarin, «Alpomish» dostonida ham buning yorqin guvohini ko'rish mumkin.

Shu paytga qadar yozuvchi asarlari tilini lingvistik, lingvostilistik nuqtai nazardan o'rganish bo'yicha anchagina ishlar amalga oshirildi va ular adibning badiiy merosini, tili va uslubini o'rganishga, o'zbek badiiy matni tahlili taraqqiyotiga munosib hissa bo'lib qo'shildi [Qo'ng'urov, Karimov, 1984; Karimov, Jo'rayev 2001]. Lekin zamon oldimizga dostonni yangicha talqin etish vazifasini qo'yayotgan ekan, uning ma'naviy merosini o'rganishga eskicha usullar bilan yondashib bo'lmaydi. Binobarin, Alpomish dostonining variantlarini o'rganishning tahlil metodlari ko'lamini ham kengaytirish lozim bo'ladi.

Aslida lug'at tartib berish jahon tilshunosligida ham, turkiy, xususan o'zbek tilshunosligida ham qadimdan davom etib kelayotgan an'analardan hisoblanadi. Ulug' Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari lug'atchilikning nodir namunasi [Karimov 2002]. Xorazmlik yurtdoshimiz Abulqosim Mahmud ibn Umar az-Zamahshariyning XII asrda yaratgan «Muqaddimat ul-adab» lug'at-glossariysi ham lug'atshunoslik tajribasining ajoyib namunasi hisoblanadi [Borovkov 1965, 101].

Ko'pqirrali leksikografik tadqiqotlarda yozuvchilik leksik-

ografiyasi, ya'ni aniq bir ijodkor yoki uning asari lug'atini tuzish yuzasidan olib borilgan ishlar ham muhim o'rin tutadi. Bu an'ana o'zbek lug'atchiligida Navoiy zamonlaridan beri davom etib kelmoqda [Hamidov 1983, 12-15]. Bunday tajriba jahon tilshunosligida yangicha mazmunda XX asrning o'rtalaridan davom ettirildi [Bektayev, Kenesbayev 1973, 14-20; Karpova, Stupin 1982, 13-20]. Amalga oshirilgan ishlar natijasi o'laroq A.S.Pushkin, T.G.Shevchenko, M.Gorkiy, S.Yesenin, N.A.Nekrasov, A.V.Kolsov, M.A.Sholoxov, Gyote, A.Miskevich, Abay, M.Avezov va boshqa klassiklar ijodi yuzasidan tuzilgan lug'atlar buning isboti bo'lib hisoblanadi.

Asta sekinlik bilan bo'lsa-da, bu kabi ishlar o'zbek tilshunosligida ham amalga oshirilmoqda. Biz bunda, birinchi navbatda, Alisher Navoiy ijodi bo'yicha tuzilgan lug'atlarni nazarda tutamiz. «Navoiy asarlari lug'ati» (1972) va «Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati» (1983-1985) hozirgi o'zbek leksikografiyasining jiddiy yutug'i sifatida e'tirof etilishga loyiqdir.

Badiiy adabiyot matnini o'rganishga ko'maklashuvchi leksikografik kuzatishlar qatorini o'zbek tilshunosligida I.A.Kissen [Kissen 1972], S.Rizayev [Rizayev 1980; 1986], S.Muhammedov [Muhammedov 1982], R.Qo'ng'urov, S.Karimov [Qo'ng'urov, Karimov 1981, 6-7] va Sh.Maxmatmurodovlar [Maxmatmuradov 1989] tomonidan yaratilgan lug'atlar hisobiga kengaytirish mumkin.

O'zbek leksikografiyasi bu kabi an'analarga ega bo'lishiga qaramasdan, hozirgi paytda olib borilayotgan ishlar talablar darajasida emas. Shu ma'noda rus leksikografiyasining taniqli namoyandalaridan P.N.Denisov aytgan quyidagi gaplar o'zbek leksikografiyasiga ham tegishlidir: «Leksikografiya hamon leksikologiya uchun o'gayligicha qolmoqda, nazariy leksikografiyaning qat'iy o'rnatilgan prinsip va xulosalari yuzasidan tortishuvlar davom etmoqda, ko'pincha bu mustaqil lingvistik sohaning hammaga ma'lum bo'lgan haqiqatlarni go'yoki yangidan kashf etilmoqda. Bu esa izohli-kombinator, birikmali, semantik, chastotali va boshqa u yoki bu aniq lug'atning baholanishida sub'yektivizmga, isbot qilib bo'lmaydigan qat'iylikka olib kelmoqda» [Denisov 1980, 2-3].

Badiiy adabiyot tilning yuqori fazada – badiiy-estetik vazifani ado etishida o'ziga xos maydondir. Badiiy matn boshqa matnlardan, masalan, ilmiy va rasmiy matnlardan farq qilib, unda ushbu vazifani amalga oshirishga qaratilgan umumxalq tilidagi barcha lingvistik vositalarning ishtirok etishi me'yor hisoblanadi. Shuning uchun ham shoir va yozuvchilar asarlari matni lingvistik material sifatida nafaqat ona tilimiz rivojlanishi va taraqqiyoti, balki har bir ijodkor

uslubiga xos bo'lgan jihatlar to'g'risida ilmiy xulosalar chiqarish uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Masalaning ana shu muhim jihatlari hisobga olinib, o'zbek tilshunosligida Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Rabg'o'ziy, Muhammad Solih, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Yusuf Amiriy, Durbek, Abulg'oziy Bahodirxon, Umar Boqiy, Muhammad Shaboniy, Muqimiy, Furqat, A.Qodiriy, Cho'lpon, H.H.Niyoziy, Elbek, G'.G'ulom, Oybek, A.Qahhor, K.Yashin, H.Olimjon, Zulfiya, Sh.Rashidov, Shuhrat, Oydin, S.Ahmad, M.Shayxzoda, A.Muxtor, E.Vohidov, A.Oripov, Sh.Xolmirzaev kabi ko'plab shoir va yozuvchilarimizning asarlarini, xalq og'zaki ijodi namunalarini, jumhuriyatimizda paydo bo'lgan ilk vaqtli matbuot materiallarini til aspektida o'rganishga bag'ishlangan monografik kuzatishlar yuzaga kelgan.

Ushbu tadqiqotlar shoir va yozuvchilar yashagan davr tilining taraqqiyot bosqichlari, ijodkorlar tili va uslubi, ularning til boyligi va ma'naviyatga qo'shgan hissasi to'g'risida muhim ilmiy xulosalar berganligini e'tirof etgan holda, bu xulosalarning to'laqonli emasligini ham ta'kidlab o'tishi joiz. «...badiiy asar tili bo'yicha tipologik kuzatishlar olib borishda faqat kuzatuvchining intuisiyasigagina asoslanib qolish yaramaydi. Chunki bunday ishda intuisiya kuzatuvchi uni xohlaydimi, xohlamaydimi, qat'iy nazar, sub'yektivizimga olib bori-shi, kuzatishlarda bir yoqlamalikka yo'l qo'yishi tabiiy.

Yozuvchining badiiy mahoratini, san'atkorligini aniqlashda ham faqat intuisiyagagina asoslanish yuqoridagi kamchilikning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Ayrim individning o'z intuisiyasi asosida olib borgan ishini dengiz qa'ridan mohir javohir teruvchi mehnatiga qiyos qilaylik. U qanchalik mohir bo'lmasin, dengiz yoki daryo tagidagi javohirning hammasini to'liq terib ola olmaydi, ko'ziga ko'rinib turgan katta-katta javohirlarni terib olsa-da, ko'pgina mayda javohirlar, ayrim tosh yoki tuproq tagidagi ko'zga tezdagina tashlana bermaydiganlari qolib ketadi. Ba'zan ana shu nazardan chetda qolgan mayda javohir ko'zga aniq tashlanib turgan katta-katta javohirdan qimmatliroq, tozaroq bo'lishi mumkin.

Masalaga shu nuqtai nazardan qaralsa, ma'lum bir davrda ijod etgan shoir yoki yozuvchilar guruhining, yo ayrim olingan ijodkorlar asarlari tilining to'liq lug'atini tuzishning ahamiyati qay darajada ekanligini tushunish qiyin bo'lmaydi» [Qo'ng'urov, Karimov 1981, 6-7].

Demak, bu maqsadga erishishning ishonchli yo'li matn tahlilining dastlabki bosqichida leksikografik va statistik kuzatishlar olib

borishdir. Ta'kidlaganimizdek, bu borada o'zbek leksikografiyasida olib borilayotgan ishlarni talablar darajasida, deb bo'lmaydi.

O'zbek tilshunos olimlarimiz A.Nurmonov va B.Yo'ldoshevlarining «Hozirgi o'zbek adabiy tilining chastotali lug'atini yaratish juda murakkab muammo sanaladi, shuning uchun hozirgi kunga qadar tilimizning to'la chastotali lug'ati yaratilganicha yo'q. Bu muammoni hal qilish uchun eng avvalo umummilliy adabiy tilning barcha asosiy uslublari (ilmiy, badiiy, so'zlashuv, rasmiy, publisistik kabilar) ni, janrlarni (vaqtli matbuot, badiiy adabiyot, xalq og'zaki ijodi, jonli so'zlashuv tili kabilarni) statistik metodda to'liq o'rganib chiqilishi asosida yuqori chastotali so'zlarni, grammatik formalarni har bir uslub va janr bo'yicha aniqlab olish lozim bo'ladi. Ana shundan keyin o'zbek adabiy tilining to'la chastotali lug'ati tuzish, uning chegarasi, tamoyillari haqida fikr yuritish mumkin», deb aytgan mulohazalari ham fikrimizni qo'llab-quvvatlaydi [Nurmonov, Yo'ldoshev 2001, 125].

So'z haqidagi asosiy fakt uning qanchalik keng tarqalganligidir. Ma'lumotlar til o'rganuvchilar uchun ayniqsa qimmatlidir, chunki u so'zni o'rganish qanchalik muhimligini darhol ko'rsatadi. Katta kompyuterlashtirilgan til korpusining paydo bo'lishi bilan birinchi marta talabni qondirish mumkin [Adam Kilgarriff, 2013]. Chastotalar lug'at - odatda bir tilli lug'at turi bo'lib, unda leksik birliklar butun tilni, ma'lum bir uslubni yoki alohida muallifni matnlar majmuasida foydalanilgan so'zlar lug'ati, chastotasiga qarab tavsiflanadi. Bunday lug'atlar tekshirilayotgan leksik birlik turiga ko'ra so'z shakli, so'z (leksema), o'zak (axborot fanida qo'llaniladigan), semantik (alohida ma'noli so'zlar) va so'z turkumi chastotali lug'atlarga bo'linadi.

X leksik birlik qo'llanilishining mutlaq va nisbiy belgilari ajratiladi. Mutlaq xarakteristika ma'lum leksik birlikning f chastotasi x ning o'rganilayotgan matnlar korpusidagi $f(x)$ dan foydalanish soniga tengdir. Chastota lug'ati $f(x)$ yoki normallashtirilgan $f(x)/N$ chastotasiga ega, bu erda N - matndagi tekshirilgan so'zlar soni. Lug'aviy birlik qo'llanilishining nisbiy xarakteristikasi yoki birlik darajasi, ya'ni lug'atdagi mutlaq qo'llanish xususiyati berilgan leksik birliknikidan kattaroq yoki unga teng bo'lgan leksik birliklar soni yoki leksik birlikdan foydalanishga imkon beradigan ba'zi xususiyat. unvonini ko'proq yoki kamroq aniq hisoblash kerak. Ko'pgina chastotali lug'atlar ham mutlaq, ham nisbiy xususiyatlarni beradi [<https://encyclopedia2.thefreedictionary.com/Frequency+Dictionary>].

Shunday ekan, matnning lingvistik tahlilida leksikografik va

statistik metodlarga tayanib ish ko'rish, ayniqsa, yozuvchilik leksikografiyasi bilan shug'ullanish bugungi o'zbek tilshunosligining dolzarb masalalaridan biri bo'lib turadi.

Tilga olganimiz «Alisher Navoiy tilining izohli lug'ati» o'zbek yozuvchilik leksikografiyasi tarixida juda katta voqea bo'lganligi shubhasiz. Ammo lug'atning yaratilganiga 20 yildan ortiq vaqt o'tdi. Bu an'anani izchil davom ettirib, boshqa o'zbek shoir va yozuvchilari asarlari lug'atini yaratish haqidagi g'oya esa hamon amalga oshmasdan qolmoqda. Bunday holatda o'zbek tili leksik fondining mukammalligiga da'vo qilish qiyin bo'lib qoladi.

Shoir va yozuvchilar lug'atini tuzishga kirishishdan avval uning yaratish prinsiplarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Soha mutaxassislari lug'at uchun dastlab manba tanlash, tuzish usulini belgilab olish va shundan so'ng so'zlikni yaratishga kirishish lozimligini qayd etishadi.

Doston lug'atlarini yaratish

Manba sifatida olinishi ko'zda tutilgan ijodkor asarlarining mukammal to'plami yaratilmagan taqdirda, hatto yaratilgan taqdirda ham, ma'lum bir shoir yoki yozuvchi asarlarining to'liq so'zligini tuzib bo'lmaydi. Chunki shunday paytda ham ijodkor arxividagi materiallar, nashr etilmagan qo'lyozmalar e'tibordan chetda qolib ketishi mumkin. Balki bunday mukammallikka uning alohida olingan bir asari misolida erishish mumkin bo'lar. Shuning uchun bo'lsa kerak, ko'pchilik tilshunos-leksikograflar masalaga differensial yondashishdan voz kechib, yozuvchilarning to'liq so'zligini tuzishning maqsadga muvofiqligi haqida mulohaza yuritadilar.

Ushbu o'rinda «Alpomish» dostonining matni lug'atini yaratish uchun uch variant tanlab olindi. Birinchisi doston variantlaridan eng mukammali bo'lgan 2010 yilda «Sharq» nashriyoti tomonidan chop etilgan Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti, Abdunazar Poyonov varianti, 2018 yilda O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti tomonidan chop etilgan Mardonaqul Avliyoqul variantlari material vazifasini o'tadi. Bu material adib ijodiy tafakkuri, badiiy mahorati va tildan foydalanishdagi o'ziga xos uslubi haqida birmuncha to'la va asosli xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Shuma'noda o'zbek xalq og'zaki ijodining dostonlari matnining lug'atini yaratish ham ma'lum ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'ladi. Tadqiqotda xalq og'zaki ijodidan «Alpomish» dostonining uch xil varianti (Fozil Yo'ldosh o'g'li variant, Abdunazar Poyonov varianti va Mardonaqul Avliyoqul varianti) bo'yicha alfavit-chastotali lug'at va

chastotali lug'at tuzilgan va tahlil qilingan.

Ikkinchi masala - so'zlikni tuzish usulini belgilash bo'lib hisoblanadi. Jahon leksikografiyasida lug'at tuzishning tematik, kombinator, g'oyaviy, alfavitli kabi usullari orasida alfavitli so'zlik tuzish usuli ma'qullangan va yozuvchilik leksikografiyasida shu usuldan ko'proq foydalanilmoqda [Karpova, Stupin 1982, 13-20]. Bu o'rinda ham ana shu an'anaga sodiq qolindi. Ayni paytda, u chastotali va ters lug'atlar hisobiga boyitildi.

Nihoyat, uchinchi masala – so'zlik tuzish masalalasi. Bugungi kompyuter texnologiyasi zamonida so'zlik yaratish muammosi osonlik bilan hal etiladi. Qo'lda bir necha yillar davomida bajariladigan ishni kompyuter yordamida sanoqli kunlarda uddalash mumkin. Faktlarning ishonchliligi bilan esa u qo'lda yaratilgan lug'atlarga nisbatan ancha yuqori turadi.

Alpomish dostoni matnining lug'atini shu yaxlitda yaratish va unda muallifning badiiy-publisistik merosining leksik-semantik arsenalini birmuncha to'liq aks ettirish maqsad qilib qo'yildi. O.M.Karpova va L.P.Stupinlarning «Yozuvchi tilining lug'ati uning ijodida mavjud bo'lgan barcha leksik birliklarni, jumladan, eskirgan va to'liq iste'moldan chiqqan so'zlarni, shuningdek, individual-mualliflik yasalmalarini ham aks ettirishga mo'ljallangan bo'ladi. Boshqacha aytganda, umumxalq tili lug'ati o'z so'zligini sinxron va diaxron jihatdan qandaydir ma'noda chegaralaydi. Yozuvchi tili lug'ati esa, mohiyat e'tibori bilan sinxron planda ham, diaxron planda ham hech qanday cheklovlar qo'yish kerak emas. Shuni ham ta'kidlash muhimki, yozuvchilik lug'atida me'yoriy va nome'yoriy leksika tarzida tanlanish yo'q. Bunda odatda so'z ustasining faqat umumtil fondiga kiradigan materialnigina emas, balki u yoki bu darajada me'yordan, umumiy so'z qo'llashdan chekinadigan faktlarni ham qamrab oladigan qat'iy to'liqlik bilan qayd etiladi» [Karpova, Stupin 1982, 13-20] degan fikrlari ushbu so'zlikda e'tiborga olinib, ularni shakliy va miqdor jihatdan aks ettirish birinchi darajali vazifa qilib belgilandi.

Lug'atda so'zlar matnda qanday holatda uchragan bo'lsa, shu holatda keltirildi va kompyuter yordamida ularni statistik jihatdan ishlashning imkoni paydo bo'ldi. Alpomish dostonining uchta variantining statistik tahlil natijalari olindi (1-jadval).

1. Alpomish dostonining Fozil Yo'ldosh o'g'li variantining elektron lug'ati olindi. Doston MS Word dasturida tayyorlangan 623 Kb hajmli *.txt formatdagi fayldan iborat. Dostonning ushbu varianti dastur yordamida qayta ishlangan so'ng unda jami 14413ta

so'z ishlatilgan va ularning qo'llanilishi 82106 so'zni tashkil qilgan. Elektron lug'atda 82106ta birlik hosil bo'ldi.

2. Alpomish dostonining Abdunazar Poyonov variantining elektron lug'ati olindi. Doston MS Word dasturida tayyorlangan 631 Kb hajmli *.txt formatdagi fayldan iborat. Dostonning ushbu varianti dastur yordamida qayta ishlangan so'ng unda jami 19098ta so'z ishlatilgan va ularning qo'llanilishi 78632 so'zni tashkil qilgan. Elektron lug'atda 78632ta birlik hosil bo'ldi.

3. Alpomish dostonining Mardonaqul Avliyoqul variantining elektron lug'ati olindi. Doston MS Word dasturida tayyorlangan 488 Kb hajmli *.txt formatdagi fayldan iborat. Dostonning ushbu varianti dastur yordamida qayta ishlangan so'ng unda jami 13520ta so'z ishlatilgan va ularning qo'llanilishi 62100 so'zni tashkil qilgan. Elektron lug'atda 62100ta birlik hosil bo'ldi.

№	Matn nomi	Jami so'zlar soni	Qo'llanilgan so'zlar soni
1.	Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti	82106	14413
2.	Abdunazar Poyonov varianti	78632	19098
3.	Mardonaqul Avliyoqul varianti	62100	13520

1-jadval. Doston variantlarining so'zlar chastotasi


Doston ishtirok etgan harflar statistik tahlili

Dostonlarda ishtirok etgan so'zlarning bosh harfi bo'yicha statistik tahlillar olindi. Bu aytuvchi dostonning kuylaganda qaysi harf bilan boshlangan so'zni qancha ishlatganlik bo'yicha tahlillarni beradi. U quyidagi jadvalda ifoda etilgan (2-jadval).

Harflar	Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti	Abdunazar Poyonov varianti	Mardon-aqul Avliyoqul varianti	Jami
A	754	800	517	2071
B	1589	1726	1379	4694
D	463	619	396	1478
E	410	408	548	1366
F	75	105	31	211
G	218	307	227	752
H	303	427	256	986
I	332	474	260	1066
J	290	353	223	866
K	1260	1431	1245	3936

L	59	148	75	282
M	580	633	384	1597
N	239	397	192	828
O	729	1063	834	2626
P	219	362	222	803
Q	1429	1992	1392	4813
R	117	137	69	323
S	852	1254	876	2982
T	1037	1907	1268	4212
U	450	489	323	1262
V	74	87	51	212
X	257	445	279	981
Y	1001	1373	885	3259
Z	181	267	147	595
O'	665	657	598	1920
G'	126	164	76	366
Sh	263	399	177	839
Ch	441	674	590	1705

Alpomish dostonining Fozil Yo'ldosh variant matnining
so'z turkumlariga nisbatan so'zlarning ulushi



So'z turkumlarining statistik tahlili

Alpomish dostonining Fozil Yo'ldosh variantini asoslar va turkumlar bo'yicha statistika tahlil natijalari olindi. Bunda lug'atdagi so'zlarni turkumlarini biriktirib chiqishda 12 turdagi so'z turkumlaridan foydalanildi: fe'l, ot, sifat, son, olmosh, ravish, bog'lovchi, ko'makchi, yuklama, modal so'z, undov so'z va taqlid so'z. Fozil Yo'ldosh variantida 14413 ta so'z shakllari bir-birini

takrorlamay kelgan. Ushbu lug'atdagi so'z shakllaridan asoslar lug'ati tuzilganda 3126 ta asos so'zdan iborat lug'at hosil bo'ldi (3-jadval).

M	Turkum	Matndagi so'zlarni so'z turkumlariga nisbatan ko'rsatkichlari			
1	Fe'l	562	18,0	5168	35,9
2	Ot	1769	56,6	7027	48,8
3	Sifat	461	14,7	1112	7,7
4	Son	37	1,2	135	0,9
5	Olmosh	38	1,2	357	2,5
6	Ravish	160	5,1	412	2,9
7	Bog'lovchi	14	0,4	24	0,2
8	Ko'makchi	7	0,2	16	0,1
9	Yuklama	9	0,3	15	0,1
10	Modal so'z	31	1,0	60	0,4
11	Undov so'z	28	0,9	68	0,5
12	Taqlid so'z	10	0,3	19	0,1

3-jadval. Alpomish dostonining Fozil Yo'ldosh variant matnining so'z turkumlariga nisbatan so'zlarning ulushi

Natijalarni diagramma ko'rinishida taqdim etish.

Leksik birliklarni statistik metod bilan tahlil qilish leksikologiya va leksikografiyaning ko'plab masalalarini hal etishga ko'maklashadi. Bu metod yordamida yozuvchi ijodi uchun xarakterli bo'lgan lingvistik birliklar aniqlanadi va boshqa ijodkorlar matniga qiyoslanadi. Yaratilgan ters lug'atlar yordamida ijodkor uslubi uchun xos bo'lgan grammatik vositalar ko'lamini aniqlashning ham imkoni

yaratiladi.

So'zlikning yana bir ahamiyati shundan iboratki, bir joyga to'plangan material lug'atga differensial munosabatda bo'lishga zamin yaratadi. Undan funksional uslublarga xos bo'lgan, umumiste'moldagi yoki dialektal leksik elementlarni ajratib olib, ilmiy-tadqiqot maqsadlarida foydalanish mumkin bo'ladi.

Harqalay, lug'at shaklida amalga oshirilayotgan ishning filologik tadqiqotlar olib borishdagi, shoir va yozuvchilar tili va uslubini o'rganishdagi afzalliklari va kamchiliklarini aniq tasavvur qilish lozim. Uning ijodkor tili va uslubini o'rganish va belgilashdagi beqiyos ahamiyatini qayd etish bilan birgalikda, uning o'z zimmasiga ololmagan jihatlarini ham ko'ra bilish kerak.

Lug'atni avtomatik yaratishda uchragan kamchiliklar

Jumladan, kompyuter yordamida ishlash jarayonida quyidagi kamchiliklar ko'zga tashlandi:

- lug'atda ayrim so'zlar, masalan, obrazlarning nomlari qo'shtirnoq ichida keltirilgan. Kompyuter qo'shtirnoq ichidagi har bir so'zni alohida o'qimoqda. Qo'shtirnoqdan keyin ayrim qo'shimchalar bor bo'lsa, masalan, «qo'l ushlatar»ini, «Qultoy»dan yoki «Qultoy bobo»ning deb yozilgan bo'lsa, uning tarkibidagi ini va ning ham alohida so'z tarzida qayd etmoqda. «Qultoy»dan deb yozilgan so'zdagi qo'shtirnoqni hisobga olmasdan Qultoydan tarzida keltirmoqda. Matndan Qultoydan so'zi izlanganda esa kompyuter uni topib bera olmayapti. Chunki qo'shtirnoq bunga xalaqit bermoqda. Matnda Qultoyni, Qultoyda, Qultoyning, Qultoyga, Qultoydan kabi so'zlarining barchasida Qultoy qo'shtirnoqqa olingan. Ularning lug'atda berilishida qo'shtirnoqdan holi qoldirilgan;

- matnda ba'zi so'zlarning oxirgi yoki o'rtasida harflar yoki qo'shimchalar to'rtburchak qavsga olingan. Masalan, rostdi[r], dash[t]i, Qo'ng'irotni[ng]. Bunda so'zni lug'atga kiritishda ikki xil variantini olinadi. Misol uchun, rostdi[r] so'zi lug'atga ham rostdi, ham rostdir tarzida kiritildi;

- ikki so'z birikuvining qo'shma so'z ekanligi faqat inson fikri orqaligina anglashiladi. Shuning uchun hozircha qo'shma so'zlarning lug'atda aks etishi muammoligicha qolmoqda;

- ayrim so'zlar, masalan, Ultontoz so'zi personaj tilida aytilishiga qarab Ulton, Ultonshoh shaklida berilgan. Ularni ham ikkita so'z sifatida qayd etishga to'g'ri keladi. Shunday bo'lmasa, lug'atning «kompyuter prinsipi» buzilib ketadi;

- Yig'in-tudani, damba-dam, ort-sirtidan, qilmading-ku

kabilar matnda chiziqcha bilan berilgan va bu qo‘shilmalarni ham kompyuter lug‘atda juft so‘zlar sifatida qayd etgan;

- matndagi qisqartma so‘zlar ham lug‘at kiritilgan;

- ba‘zi so‘zlar matnda ikki xil berilgan: boryapti - borayapti, bo‘lmasmikan – bo‘lmasmikin, ko‘targuli - ko‘targulik ko‘rinishida ikki xil yozilgan. Kompyuter ularni alohida-alohida lug‘at birliklari sifatida qayd etgan. Bu o‘rinda lug‘atga qo‘ldan qo‘shimcha ishlov berishga yoki ularni shu holicha qoldirib, ikki holatni ikki so‘z sifatida e‘tirof etishga to‘g‘ri keladi. Biz ularni o‘z holicha qoldirishni maqsadga muvofiq deb hisobladik;

- kompyuter matndagi raqamlarni qayd etmagan. Masalan, matnda 8ta, 10ta yoki 8tasi, 10tasi deb yozilgan bo‘lsa, ta yoki tasi ni alohida so‘z sifatida ko‘rsatgan;

- qandaydir bir harf boshqa shriftda yozilib qolgan bo‘lsa-yu, umumiy matndagi shriftlarga mos kelmasa ham kompyuter so‘zni o‘qimaydi yoki lug‘atda uni alohida qayd etadi.

Bu kabi holatlarga qo‘ldan o‘zgartishlar kiritish lug‘atni tartibga keltirishda chalkashlikarga olib kelishi tabiiy. Shuning uchun bu ish faoliyatimizdagi dastlabki tajriba bo‘lganligini va kamchiliklar asta sekinlik bilan tuzatilib va bundan keyin tuzadigan lug‘atlarimiz takomillashib borishini hisobga olib, ular hech bir o‘zgarishsiz qoldirildi.

Xulosa

Shunday qilib, *Alpomish dostoni* variantlarini til lug‘ati ustida olib boriladigan ishning birinchi bosqichida dostonning badiiy-publisistik merosining umumiy inventari to‘plandi va shu orqali uning umumiy lug‘at fondi aniqlandi.

Matnlarning alfavit va chastotali lug‘atlari tuzildi hamda statistik tahlillari olindi. Matnning statistik lug‘atlarini yaratish dasturiy ta‘minotida lug‘atni to‘liq va aniq tuzishda yo‘l qo‘yiladigan ba‘zi kamchiliklar ko‘rsatib o‘tildi.

Adabiyotlar

Қўнғуров Р., Каримов С. 1984. *Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти. Библиографик кўрсаткич*. Самарқанд: СамДУ нашри.

Каримов С., Жўраев Т. 2001. *Ўзбек тили услубияти ва нутқ маданияти. Библиографик кўрсаткич*. Самарқанд: СамДУ нашри.

Каримов С. 2002. *Маҳмуд Кошғарийнинг «Девону луғотит*

турк» асари ва унинг туркий халқлар маданияти ҳамда жаҳон цивилизациясида тутган ўрни. Халқаро конференция материаллари. 2002 йил 25-26-ноябр. Самарқанд: СамДУ нашри.

Боровков А.К. 1965. *“К истории словаря «Мукаддимат ал-адаб» Замахшари”*. Вопросы языкознания 2: 101.

Ҳамидов З. 2004. *Луғатишунослик тарихи ва қўлёзма луғатлар*. Тошкент: Адолат.

Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1983. 2 том. Тошкент: 12-15-бетлар.

Бектаев К.Б., Кенесбаев С.К., Пиотровский Р.Г. 1973. Об инженерной лингвистике // Вопросы языкознания, № 2, 14-20;

Қўнғуров Р., Каримов С. 1981. *Зулфия поэзияси тилининг луғати*. Тошкент: Ўқитувчи.

Карпова О.М., Ступин Л.П. 1982. *“Советская писательская лексикография”*. Вопросы языкознания 1: 13-20.

Киссен И.А. 1972. *Словарь наиболее употребительных слов современного узбекского литературного языка*. Тошкент.

Махматмурадов Ш. 1989. *Словарь языка поэтических произведений Хамзы*. Ташкент: Изд-во литературы и искусства имени Гафура Гуляма.

Муҳаммедов С. 1982. *Ўзбек тилининг алфавитли-частотали луғати (газета текстлари асосида)*. Тошкент.

Ризаев С. 1980. *Ўзбек совет болалар адабиёти тилининг частотали луғати*. Тошкент.

Ризаев С., Бўронов Н. 1986. *Абдулла Қаҳҳор «Синчалак» повести тилининг частотали луғати*. Тошкент.

Nurmonov A., Yo'ldoshev B. 2001. *Tilshunoslik va tabiiy fanlar*. Toshkent: Sharq.

Adam Kilgarrieff. 2013. *“Putting Frequyensiyes in the Distionary”*. International Journal of Lexisography.

<https://encyclopedia2.thefreedictionary.com/Frequency+Dictionary>.

Alphabetical and frequency dictionaries and statistical analyzes of Alpomish epic texts

Muhammadsolih Tursunov¹

Abstract

This article is devoted to the research of the texts of Alpomish epics based on corpus creation software. It describes the processes and results of selecting the texts of Alpomish epics, compiling alphabetical and frequency dictionaries. Then the results of the statistical analysis of the texts of Alpomish epics are described. Giving the frequency of absolute words and the negative case in the dictionary is of both scientific and practical importance. From it, it will be possible to determine the words characteristic of the artist's style. Since the dictionary is compiled with the help of a computer, we can say that a high level of accuracy has been achieved in this regard. Some shortcomings that can be encountered during the creation of a dictionary with the help of the program are considered.

Key words: *Alpomish, dictionary, alphabet-frequency dictionary, frequency dictionary, word, frequency, phrase, statistics.*

References

Qo'ng'urov R., Karimov S. 1984. *O'zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati. Bibliografik ko'rsatkich*. Samarqand: SamDU nashri.

Karimov S., Jo'raev T. 2001. *O'zbek tili uslubiyati va nutq madaniyati. Bibliografik ko'rsatkich*. Samarqand: SamDU nashri.

Karimov S. 2002. Mahmud Koshg'ariyning «*Devonu lug'otit turk*» asari va uning turkiy xalqlar madaniyati hamda jahon sivilizasiyasida tutgan o'rni. Xalqaro konferensiya materiallari. 2002-yil 25-26-noyabr. Samarqand: SamDU nashri.

Borovkov A.K. 1965. «*K istorii slovarya «Mukaddimat al-adab» Zamaxshari*». Вопросы языкознания 2: 101.

Hamidov Z. 2004. *Lug'atshunoslik tarixi va qo'lyozma lug'atlar*.

¹ Muhammadsolih S. Tursunov – independent researcher, Samarkand State University named after Sharof Rashidov.

E-mail: muhammadsolih927@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-6485-3630

For citation: Tursunov, M.S. 2022. "Alphabetical and frequency dictionaries and statistical analyzes of Alpomish epic texts". Uzbekistan: Language and Culture 3:

Toshkent: Adolat.

Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 1983. 2 tom. Toshkent: 12-15-betlar.

Bektaev K.B., Kenesbaev S.K., Piotrovskiy R.G. 1973. *Ob inzhernoy lingvistike* // Voprosi yazikoznaniya, № 2, 14-20;

Qo'ng'urov R., Karimov S. 1981. *Zulfiya poeziyasi tilining lug'ati*. Toshkent: O'qituvchi.

Karpova O.M., Stupin L.P. 1982. *"Sovetskaya pisatelskaya leksikografiya"*. Voprosi yazikoznaniya 1: 13-20.

Kissen I.A. 1972. Slovar naibolee upotrebitelnix slov sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazika. Toshkent.

Maxmatmuradov Sh. 1989. Slovar yazika poeticheskix proizvdeniy Xamzi. Tashkent: Izd-vo literaturi i iskusstva imeni Gafura Gulyama.

Muhammedov S. 1982. O'zbek tilining alfavitli-chastotali lug'ati (gazeta tekstlari asosida). Toshkent.

Rizaev S. 1980. O'zbek sovet bolalar adabiyoti tilining chastotali lug'ati. Toshkent.

Rizaev S., Bo'ronov N. 1986. Abdulla Qahhor «Sinchalak» povesti tilining chastotali lug'ati. Toshkent.

Nurmonov A., Yo'ldoshev B. 2001. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. Toshkent: Sharq.

Adam Kilgarrieff. 2013. "Putting Frequyensiyes in the Distionary". International Journal of Lexisography.

<https://encyclopedia2.thefreedictionary.com/Frequency+Dictionary>.

Jahon tilshunosligida detektiv asarlarning lingvistik aspektida o'rganilish davrlari

Gulnoraxon Niyazova¹

Abstrakt

Mazkur maqolada tadqiqodchi tomonidan jahon tilshunosligida detektiv asarlar tilining lingvistikaning turli aspektlarda o'rganilishi, uning turli bosqichlarda rivojlanishida tilshunos olimlarning qarashlari tahlil va muhokama qilingan. Maqolada jahon tilshunosligida detektiv asarlarning lingvistik xususiyatlarini tahlil va tadqiq qilish tendensiyalari XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'zining yangi bosqichiga ko'tarilganligi, uning qamrovi va ilmiylik nuqtai nazaridan kengayganligi borasida amalga oshirilgan ishlar tahlil qilingan. Ushbu maqolada muayan darajada ushbu masalalar keng qamrovli yoritilishi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: Jahon tilshunosligi, detektiv fantastika, jumboq, lingvistik aspekt, klassik detektiv, adabiy muammo, janr, lingvistik xususiyat.

Kirish

Jahon tilshunosligida detektiv asarlarning lingvistik xususiyatlarini tahlil va tadqiq qilish tendensiyalari XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'zining yangi bosqichiga ko'tarildi, qamrovi va ilmiylik nuqtai nazaridan kengaydi.

Detektiv fantastika XX asrning eng mashhur janrlaridan biridir. Adabiyotning boshqa janrlari bilan solishtirganda detektiv hikoyaning paydo bo'lganiga ko'p vaqt bo'lmagan. U XIX-asrning birinchi yarmida paydo bo'lgan va 1841 yilda E.Poning "Morg ko'chasidagi qotillik" birinchi detektiv hikoyasi nashr etilishi bilan bog'liqligi ta'kidlanadi [ANSYFEAROVA 1994]. Olimlarning fikriga ko'ra, detektivning elementlari Bibliyada, arab ertaklarida, o'rta

¹Ниязова Гулнора уломовна- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.
E-pochta: niyazovagulnorakhon@gmail.com
ORCID ID : 0000-0001-5905-2129

asr Xitoy qissalarida, qadimgi yunon faylasuflarining asarlarida (masalan, Sofokl) va keyingi Yevropa adabiyotida Shekspir, Volter nomlari bilan aloqador. Bomarshe, Dikkens, Balzak, Xoffmanlar barcha detektiv asarlarning asosini insoniyat sivilizatsiyasi paydo bo'lganidan beri ta'qib qilib kelgan jinoyatga qarshi kurashning abadiy muammosi va uning yechimi sifatida talqin qilishgan. Ushbu janrdagi asarlarda jinoyatlarni ochishning murakkab jarayoni va adolat tantanasi tasvirlangan. Detektiv har doim jumboq bo'lib, uni o'quvchi muallifga ergashib, o'zi hal qiladi, unda u nafaqat mantiqiy fikrlash, detektiv qobiliyatlarni namoyon etish, balki odamlarning psixologiyasini ham tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, yaxshi detektivning o'ziga xos xususiyati – unda mujassamlangan axloqiy g'oya, jinoyatchini fosh qilish va jazolashga bog'liqligi bilan xarakterlanadi.

Detektiv asarlarning o'rganilishining muhim davrlari

Detektiv janri uzoq vaqt davomida jiddiy tanqidlar e'tiboridan chetda qolgan adabiyot turiga tegishli bo'lgani holda mazkur janrdagi asarlarning g'ayrioddiy umumiy mavjudligi va ularning badiiy-estetik jihatlariga ega ekanligini inkor qilib kelgan. Biroq, 20-asrning boshidan boshlab, toki hozirga qadar o'tgan davr mobaynida detektiv asarlar tadqiqotchilarning eng faol tadqiqot ob'ektlaridan biriga aylanib ulgurdi. Ushbu izlanishlarda tadqiqotchilar birinchi navbatda, detektiv janrining bir yarim asrlik mashhurligi sirini ochishga harakat qildilar. Mavjud ishlar tahlili turli mamlakatlar filologiya fanida detektiv asarlarni tadqiq etishning shartli ravishda 5 davrini (bosqichini) ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

Detektivni o'rganish bo'yicha birinchi tadqiqotlar XX asr boshlarida paydo bo'lgan. Keng adabiy materiallar [E.Po, G.Chesterton, A.Konan Doyl, U.Kollinz, A.K.Grin, Ye.Wallace, Ye.Gaborio, S.Van Dayne, D.Hammet, J.Chese detektiv asarlari] asosida Angliya va Amerikada detektiv nazariyasi bo'yicha ko'plab maqolalar nashr etilgan. Shunday qilib, 1902 yildan boshlab ingliz essenavisi, faylasuf va yozuvchi G.Chesterton o'zining bir qancha tanqidiy maqolalarini detektiv janrga bag'ishladi, u nafaqat detektiv asar yaratish tamoyillari va qonuniyatlarini ko'rib chiqadi ["Detektiv hikoya qanday yoziladi?", 1925], balki detektiv hikoyaning tuzilishi jiddiy tarkibga ega bo'lishi kerakligini asoslaydi ["Ideal detektiv", 1930]. Shuningdek, u detektiv adabiyot mashhurligining yashirin psixologik sababini ham ochib beradi ["Mudofaada", 1902]. 1924 yilda ingliz detektiv hikoyasining yetakchi ustalari Frimanning

“Detektiv san’ati” maqolasini nashr ettirishadi. Muallif tomonidan qo’llangan barcha mulohaza va dalillar “detektiv hikoya yaxshi adabiyot bo’lishi mumkin va detektivni chuqur anglovchilar buni ijobiy qabul qiladilar, chunki bu ularga aqlning intellektual gimnastikasida qatnashish va undan zavqlanish imkonini beradi. O’qish qanchalik qizg’in bo’lsa, mos keladigan o’quvchilarning ehtiyojlari shunchalik to’liq qondiriladi”, [Andjaparidze 1990] – degan fikrlarni isbotlashga qaratilgan. Amerikalik jurnalist, san’atshunos va yozuvchi U.Raytning (S.Van Dayn taxallusi bilan ham mashhur) “Buyuk detektivlar”, “Detektiv romanlar yozishning yigirma qoidasi” va boshqa bir qator asarlari paydo bo’ldi. Ularda muallif bir qancha muhim muammolarni hal qiladi. U professor va jamiyatning ziyoli qatlami bunday romanlarni “yengil-yelpi” deya baho berishlarining sabablarini tushintirishga harakat qiladi. Rayt yana bir asarida detektiv janrining qonuniyatlarini ochib berib, yaxshi detektiv yozmoqchi bo’lganlar uchun nazariy ko’rsatmalarni shakllantirdi. Bu, muallif ta’kidlaganidek, “qisman detektiv janrining barcha buyuk ustalari amaliy tajribasiga va qisman halol yozuvchining vijdon ovozig aсосlangan o’ziga xos detektiv e’tiqodidir” [o’sha manba b-40]. Detektiv roman yozish bo’yicha yana bir qo’llanma 1929 yilda ingliz R.Noks [1929] tomonidan tuzilgan. Teologik va cherkov faoliyatini detektiv romanlar yozish bilan muvaffaqiyatli uyg’unlashtirgan R.Noks tanqidiy maqolalar ham yozadi. Ular orasida “Detektiv fanning o’n amri” kichik istehzoli maqola borki, uning boshida R.Noks: “Detektiv charchab qolish ehtimoli bilan tahdid qilmoqda. Syujetlar borgan sari takomillashib, kitobxonlar ham murakkablashib bormoqda. Hozirgi kunda zukko kitobxonlar tomonidan tan olinmaydigan adabiy-detektiv asar yozish kerak emas”, – deb ta’kidlaydi. R.Noksning fikricha, detektiv janri, bir tomondan, yangilanishni, ikkinchi tomondan, asosiy tamoyillarga qaytishni talab qiladi. Uning o’nta amri qisman yuqorida aytib o’tilgan S.Van Dayn qoidalariga mos keladi. Jumladan, “halol o’yin” tamoyili (ya’ni, barcha dalillarni aytish kerak); janrlarni aralashtirishni taqiqlash; jinoyatchi allaqachon roman boshida paydo bo’lishi kerak; detektiv uchun tasodif ham, g’ayritabiiy sezgi ham ishlamasligi kerak va hokazo. Biroq, bu qoidalarning ba’zilari ayrim vaqtlarda detektiv janrining ko’plab taniqli ustalari tomonidan buzilgan va bu har bir qoidada istisnolar mavjud, degan fikrni yana bir bor isbotlaydi. Slavyan mualliflarining detektiv janr sifatidagi ilk asarlari orasida chex yozuvchisi K.Chapekning 1931 yilda nashr etilgan “Xolmsiana yoki detektiv romanlar haqida” maqolasini alohida qayd etish lozim.

Bunda u boshqa mualliflar singari qanday qilib yaxshi detektiv yozish haqida gapiradi, shuningdek, detektiv hikoyani yaratishga yordam beradigan asosiy motivlarni ham ta'kidlaydi. Bu janrning xususiyatlari haqida so'z yuritar ekan, muallif shunday ta'kidlaydi: "Har bir harakat ustaning mutlaqo o'ziga xos ixtirosi, zukkolik mevasi va yangi jahon rekordi bo'lishi kerak. Yangidan yangi burilishlarni izlash kerak..." [Chapek 1977]. Agar ommaning detektivga bo'lgan istagi bo'lsa, bu juda yaxshi. Detektiv – izlanuvchanlik va mantiqning ajoyib maktabi, u eng olijanob quvonchni – "mushaklarning bilim hissi" quvonchini beradi [Berkovskiy 1989]. Janrning o'ziga xosligi va detektiv tuzilishi masalalari mashhur rus rejissyori, csenariynavis va o'qituvchisi S.M.Eyzenshteynning XX asrning 30-yillarida Kinematografiya instituti rejissyorlik bo'limi talabalariga o'qigan ma'ruzalarida yoritib berilgan. Ushbu janr kinematografik materiallarni jamlaydi. S.M.Eyzenshteyn detektiv qissani "adabiyotning eng samarali janri" va "odamni undan (detektivdan) uzib bo'lmaydi", deb ta'kidlaydi [Eyzenshteyn 1968]. U shunday vositalar va texnikalar bilan qurilganki, odamni o'qishga jalb etadi va bog'laydi. Detektiv hikoya boshqa qator adabiyotlardagi eng kuchli vosita, eng nafis qurilishdir. Bu ta'sir vositalari chegaralangan janrdir".

Detektiv adabiyotni o'rganishning keyingi bosqichi urushdan keyingi davrga to'g'ri keladi. 1948 yilda ingliz shoiri va faylasufi, detektiv U.Odenning ishtiyoqli muxlisi Uinks Robin U. [Winks, Robin W, 1948] "Vikar uyidagi jinoyat" essesinde ushbu janrning jozibadorligini tushuntirishga harakat qiladi. "Men uchun boshqalar kabi, detektiv hikoyalarni o'qish tamaki yoki spirtli ichimliklar bilan bir xil giyohvandlikdir. Buning alomatlari ravshan: birinchidan, jozibadorlikning qaytarilmasligi, agar biror bir ishim bo'lsa, men ehtiyot bo'lishim kerak, detektiv mening qo'llarimga tushmasin, chunki uni ochishim bilanoq, men boshqa ishlamayman. Men uni o'qib tugatmagunimcha ishlash yoki uxlash imkoniyatiga ega bo'lmayman. Ikkinchidan, uning o'ziga xosligi: kitob ma'lum qoidalarga mos kelishi kerak. Uchinchidan, ta'sirning qisqaligi. Men detektiv hikoyani o'qib bo'lgach, mazmunini unutaman..." [A collection of Critical Essays 1980]. Shuningdek, u detektiv hikoyani yaratishda muhim rol o'ynaydigan ba'zi fikrlarni izchil muhokama qiladi. V.Oden detektiv hikoyaning majburiy komponentlarini (sahna, qurbon, qotil, gumonlanuvchilar) va klassik detektiv hikoyaning Sherlok Xolms [Artur Konan Doyl], Inspektor Franwuz [Friman Uills Krofs] va Pater Braun [Chesterton] kabi eng muhim mualliflari hamda qahramonlarini nomlaydi. Shunga o'xshash masalalar Raymond

Chandlerning "Oddiy o'ldirish san'ati" [1950], Jak Barzinning "Detektiv tergov va adabiy san'at" [1961], fransuz tadqiqotchilar P. Boile va T. Narseyakning "Detektiv estetikasi" [1961] asarlarida yoritilgan.

Ingliz tadqiqotchilari D. Sayersning "Ingliz detektiv romani" [1968], V.Moemning "Detektivning tanazzuli va qulashi"[1969] asarlarida detektiv janri aks ettirilgan bo'lib, uning adabiyot janri sifatida shakllanishi va rivojlanishi tarixi, milliy xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ular detektiv janri haqida bildirilgan ba'zi e'tirozlarni ko'rib chiqishadi, ularning afzallik va kamchiliklarini tahlil qilishadi. Rus shoiri va yozuvchisi, publitsist va adabiyoshunos K.Chukovskiy ham shunday tanqidchi sifatida faoliyat yuritgan. "Trillerlar va chillers" [1969] maqolasida detektiv fantastikadagi bunday jadal rivojlanishga va miqdorning sifatdan ustunligiga qarshi chiqadi: "Bu, aslida, juda tor janrning ajoyib darajada keng, chinakam okeanik ko'lami kishida xavotir uyg'otadi. Bu adabiyot o'quvchining soddadil, ishonuvchan bo'lishiga yo'l qo'ymaydi" [Chukovskiy 1997]. Lekin, shu bilan birga, K.Chukovskiy klassik detektivning ahamiyati va sifatini zarracha inkor etmaydi hamda "bu janrning eng zo'r ustalari romanlari sahifalarida dunyoqarashni ochib beradigan mulohazali odamlar paydo bo'ladi", – deb ta'kidlaydi, "Yigirmanchi asr o'rtalaridagi detektiv fantastikaning yildan-yilga keskinroq namoyon bo'layotgan bu xususiyatlari uni yaratgan yozuvchilarga emas, balki uning fikri, didi va talablari ushbu kitoblarda ko'zgudek aks etgan ommaviy iste'molchiga xosdir.", deb ta'kidlaydi.

Keyingi davrda, ya'ni 1970 yildan boshlab detektiv adabiyotga turli millatlar tanqidchilarining qiziqishi ortdi. Avvalgidek ingliz mualliflari [J.Fovlek, R.Bernard] bunga katta e'tibor berishadi, ular detektiv ustalari Konan Doyl, Agata Kristi, Uilki Kollinz va boshqalar ijodini tahlil qilishadi. Yozuvchi va publitsist Jon Faulz 1974 yil "Konan Doyl" [1974] essesinde birinchi marta (ilgari detektiv, asosan, adabiy pozitsiyalardan hisoblangan) Konan Doyl asarlarining lingvistik, ya'ni stilistik tomoniga ishora qiladi. U detektiv hikoyalar matnlarida muallif tomonidan qo'llanadigan nutqning asosiy turlarini (hikoya, tavsif, mulohaza yuritish) ko'rib chiqadi, shuningdek, uning dialogni hikoya bilan muvaffaqiyatli uyg'unlashtirishdagi o'ziga xos qobiliyatini ochib beradi: "Doyl barcha romannavislarga tanish bo'lgan muammoni hal qilishga muvaffaq bo'ldi, ya'ni dialogning rivoyat bilan tabiiy mos kelmasligi muammosini hal qildi. Bundan tashqari, birinchi marta adabiy va lingvistik xususiyatga ega detektiv janrdagi asarlar materiallari

bo'yicha amalga oshirilgan alohida dissertatsiyalar paydo bo'ldi (Ye.F.Shcherbina "Detektiv hikoyadagi kirish paragrafining tarkibiy-semantik va funksional xususiyatlari" [1982], I.B.Protsenko "Edgar Allan Po romanistik nasrining estetikasi" [1981] va b.). Bu davrdagi rus (sovet) olimlarining filologik tadqiqotlari, asosan, detektiv janri poetikasiga [A.Vulis], uning milliy turlariga [Yu.V.Kovalyov], zamonaviy detektivning yozishmalarga mos kelmasligiga bag'ishlangan edi. XX asrning 90-yillarida detektiv janrdagi adabiyotga qiziqish ortdi va ko'plab yangi mualliflar paydo bo'ldi, hozirda detektiv hikoya yozuvchilar va kitobxonlar orasida mashhur janrga aylanib bormoqda. Afsuski, bu har doim ham yaratilgan asarlarning sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi, ammo bu - boshqa tadqiqot mavzusi. Aytish mumkinki, ko'p yillar davomida birinchi marta sovet hududida rus va ukrainalik tadqiqotchilarning detektiv haqidagi juda ko'p asarlari paydo bo'ldi. Adolat uchun shuni ta'kidlash kerakki, bular, qoida tariqasida, kitoblar, qisqa maqolalar, insholar, eslatmalar va hatto feletonlardagi alohida boblardir. Ammo ular mavjud, ularning ko'plari hozir ham bor va ularning mavzulari juda xilma-xildir, bu esa tadqiqotchi va yozuvchilarning ushbu janrga qiziqishini tasdiqlaydi. Bu asarlarda mualliflar turli masalalarga murojaat qiladilar: detektivning janr sifatida paydo bo'lishi tarixiga (S.Bavin "XX asr xorij detektivi" mashhur bibliografik ensiklopediyaga so'zboshi" [1991], A.Goryanin "Piggi banki va detektivlar haqida" [1992]), M.Tugusheva "Keling, detektiv haqida gapiraylik" [1991], M.Slavinskiy "Detektiv: janr anatomiyasi" [1997]) kabi g'arb ustalarining alohida asarlari tahliliga (Yu.K.Shcheglov "Detektiv hikoya tuzilishini tavsiflash to'g'risida" [1992], A.A.Piruzyan "Agata Kristi detektivlari va Shekspir tragediyalari olami, V.M.Nazares va Artur Konan Doyl" [1999], janrni o'rganish muammolariga (V.V.Melnik "Detektiv janr adabiyotining kognitiv-evristik ahamiyati" [1992], O.Yu.Ansiferova "Detektiv janr va romantik badiiy tizim", M.Novikova va O.Drum "Detektiv ramzi", N.Zorkaya "Detektivni o'rganish muammolari: nemis adabiyoshunosligi tajribasi" [1996], N.Gorlanova "Sovet detektivi" [1999]. Bu davrda ham ukrainalik, ham rus tadqiqotchilari zamonaviy milliy detektiv hikoyasiga murojaat qilishadi. Ommaviy adabiyotning janrlaridan biri sifatida zamonaviy detektivga bag'ishlangan birinchi maqolalar paydo bo'ldi. Ular zamonaviy detektiv romanlarning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqadilar [V.Razin "Detektiv labirintlarida" (2000), R.Kuxaruk "Ukraina detektivining ikki yuzi" [1997], A.Serov "Zamonaviy hazillarda Ukraina detektivi" [2000] kabi mualliflar yangi detektiv

hikoyani ham ayblaydi, ham himoya qiladi [A.Vasilevskiy "Makulatura adabiyot sifatida" 1997], K.Shaxova "O'ta ommabop janrning ajoyib odobi" [1998]; N.Podyablonskaya "Ayollar romanlari qanday paydo bo'ladi?" [1998], A.Oksenchuk "Detektiv ayolning ko'zi bilan ..." [1999], N.Smirnova "Ayollar detektivi" [1999], N.Gladkix "Agar u bo'lmaganida, ixtiro qilinishi kerak edi" [1998]]. XX asr sovet va rus detektiv adabiyoti tarixining ocherklari" (2000) asarida muallif [Razin 2000] o'tgan bir yarim asrdagi rus-sovet-rus detektiv hikoyasini batafsil ko'rib chiqadi. U rus adabiyoti klassiklarining asarlarida detektiv janrning ilk ko'rinishlarini qayd etadi. F.M.Dostoevskiy, L.N.Tolstoy, A.P.Chexov, V.M.Razin va boshqalar birinchi navbatda rus detektivining xususiyatlarini bosqichma-bosqich tasvirlaydi. Uning G'arb modellari bilan o'xshamasligini qayd etib, uchta o'ziga xos xususiyatni aytib o'tadi: "Inqilobdan oldingi detektiv romanning birinchi va asosiy farqlovchi xususiyati uning gumanistik yondashuvidir. Rus yozuvchilari asosiy e'tiborni tergovning o'ziga emas, balki psixologik yo'nalishga qaratdilar: jinoyatchining holati, jinoyatga olib kelgan sabablarni aniqlashga urinish muhim hisoblanadi. Rossiya milliy detektivining ikkinchi xususiyati shundaki, jinoyatga olib keladigan sabab ko'pincha shaxsiy manfaatlar emas, balki kuchli his-tuyg'ular va javobsiz halokatli sevgi, eshitilgan yolg'on, xiyonat, qasos va boshqalar bo'ladi. Uchinchidan, rus jinoiy romani G'arb romanidan farq qiladi, chunki ko'plab rus mualliflari o'z asarlarining syujetlarini tom ma'noda "tuzmaganlar", balki tayyorlaridan foydalanganlar – yozuvchilar jinoiy ishlarni olib, ular asosida badiiy asarlar yaratganlar" [Razin 2000]. Keyin yozuvchi 1917 yildan SSSR parchalanishigacha bo'lgan sovet detektivining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Urushdan oldingi va urushdan keyingi detektiv hikoyaga, shuningdek, josuslik romaniga alohida e'tibor qaratilgan. Yangi rus detektiviga bag'ishlangan bobda V.M.Razin detektivning xilma-xilligi muammosi mavjudligini ta'kidlab, uni detektiv deb atash mumkinmi, deb o'ylaydi. XX asr oxiri detektiv hikoyalarida zamonaviy voqelikning aks ettirilishi haqida yozadi. Xulosa qilib aytganda, yozuvchi detektiv janrining inqirozi haqida xulosa qiladi va umidsizlikka uchragan xulosalar chiqaradi hamda hech bo'lmaganda adabiyot sifatiga ta'sir ko'rsatadigan, shuningdek, yosh yozuvchilarga buning munosib namunalarini yaratishni o'rganishga yordam beradigan biror-bir organ yo'qligidan shikoyat qiladi. Ushbu kitob muallifi vafotidan so'ng nashr etilgan "Razina" detektiv asari bo'yicha tadqiqotlar rivojlanishining navbatdagi bosqichini yakunlaydi va shu bilan birga

yangisini ochadi. Bu nafaqat yangi o'n yillik, balki yangi asrdir. Chunki hozirgi yozuvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham zamonaviy bo'lgan yangi davr, shuning uchun 2000 yildan keyin tanqidiy va publitsistik adabiyotlarda detektiv asarlarga qiziqish yanada ortdi va g'arb mualliflarining qiziqarli, saviyali asarlari paydo bo'lishi kuzatildi. Bular, birinchi navbatda, detektiv hikoya yozish qoidalarini takomillashtirish masalalari bilan bog'liq edi. Shunday qilib, qoidalar detektiv janrining ko'p turlarida mavjudligining asriy tajribasini umumlashtirdi. Shu bilan birga, amerikalik adabiyotshunos va o'qituvchi, Edgar Po mukofotiga nomzod Jeyms Frey "Yorqin detektiv hikoya qanday yoziladi?" qo'llanmasini yaratadi, 2005 yilda u tez, samarali va eng muhimi, qiziqarli ishning sirlari bilan o'rtoqlashadi. Uning fikriga ko'ra detektiv hikoya: "Titanik harakatlar bo'lmagan "qonli ter" yo'q -qotillar, tergovchilar, qurbonlar, gumonlanuvchilar va guvohlar ishtirokidagi katta sarguzasht" dir. Muallif yosh yozuvchilarga detektiv hikoya yaratish, personajlar tanlash, ularning obrazlarini yaratish bo'yicha aniq maslahatlar beradi. Bundan tashqari, kitobda hikoya qilishning to'g'ri shaklini tanlash, roman uslubini takomillashtirish va jilolash tushuntirilgan. J.Frey kitobxonlar bilan birgalikda detektivlarning zamonaviy adabiyotda qanday o'rin egallashi, madaniyat mifologiyasini yaratishda qanday rol o'ynashi haqida fikr yuritishga harakat qiladi. Oldingi davrlarda bo'lgani kabi xorijiy va mahalliy mualliflar ham klassik detektiv hikoya mavzusiga murojaat qilishadi. G.Chesterton, Ye.Po, K.Doyl va boshqalar ijodiga bag'ishlangan ko'plab asarlar nashr etilgan (L. Romanchik "Chesterton romanistik sikli" [2002], A.Qo'shtalov "Konan Doyl siri" [2006], K.Pittard "Viktoriya detektivi" [2003], A. Borisenko "Faqat Xolms emas" [2008], P.A.Moiseev va N.N.Volskiy "Edgar Poning rus o'tmishdoshlari: Chulkov, Baratiynskiy, Zagoskin" [2010], O.Ponomareva "XX asr boshidagi frantsuz detektiv hazil romanining lingvistik va pragmatik xususiyatlari" [2007]. Asr boshlarida detektiv tadqiqotining jihatlari tobora rang-baranglashib bordi. 2001 yilda ingliz yozuvchisi Richard Xoning "Lupa orqali: XIX asr detektiv fantastikasida fanning roli" asari nashr etildi. Maqola muallifi zamonaviy ilm-fanning turli sohalaridagi yutuqlari detektiv asarlarda: matematika, grafologiya, kriptografiya, geologiya, mantiq va boshqalarda qanday aks etganligi haqida gapiradi. Belarus tadqiqotchisi B.M.Lepeshko "Formal mantiq va detektiv janr: evristik ishonchlilikning birligi" [2003] va rus psixologi N.N.Volskiy "Detektiv dialektik fikrlash modeli sifatida" [2006] asarlari orqali rasmiy mantiqiy nazariyalar va adabiyotdagi detektiv janr amaliyoti

Jahon tilshunosligida detektiv asarlarning lingvistik aspektida o'rganilish davrlari o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishga hamda detektiv hikoyani qurishda dialektik mantiqning rolini aniqlashga harakat qilishdi. XXI asrda detektiv asarlar tadqiqot geografiyasi sezilarli darajada kengaydi: belorus, ozarbayjon, tatar, ispan, frantsuz, ukrain, rus detektivlarini o'rganishga oid asarlar mavjudki (S.Mir-Bagirova "Ozarbayjonda detektiv janr" [2002], Byazlepkin "Belorus detektiv hikoyasi: janrning o'ziga xos xususiyatlari" [2003] va b.), bu tadqiqotchilarning taqdim etilgan janrga qiziqishi ortib borayotganidan dalolat beradi. Bu davrda yuzaga kelgan detektiv asarlar tadqiqining yana bir muhim jihati uni ommaviy madaniyat kontekstida ko'rib chiqishdir. Bunday maqola mualliflari detektiv asar zamonaviy o'quvchiga nima berishini, uning vazifalari nimadan iboratligini, bunday asarlarni o'quvchilar sonining ko'payish sabablarini aniqlashga harakat qilmoqda. Xuddi shunday muammolar V.Vladimirovning "Detektiv - zamonaviy madaniyat hodisasi sifatida", O.Kozarogning "Ommaviy adabiyotning oltin davri" maqolalarida, M.Skalitskiyning "Detektiv fenomeni", M.Chernyakning "XX asr ommaviy adabiyoti fenomeni", T.Tveritinovanning "Engil madaniy jarayondagi detektiv" asarlarida tahlil etilgan. Yuqorida aytib o'tilganidek, so'nggi o'n yillikda detektiv asarlarni tekshirishning tematik doirasi tobora kengayib bormoqda.

Xulosa

1. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sifatli kontent-tahlil tadqiqotining asosiligi tegishli kategoriya shakllanishiga va nazariyaga umumlashtirilishi mumkin bo'lgan haqiqiy natijalarga bog'liq.

2. Xolsti ta'kidlaganidek, "umumiylik tamoyili bo'lishi kerak", ya'ni "mazmun tahlili nazariy ahamiyatga ega bo'lishi lozim". Boshqacha qilib aytganda, "matnli ma'lumotlardan aloqa modelidagi komponentlarning boshqa ma'lumotlariga umumlashtirish mumkin".

3.To'liq tugatilmagan ma'lumotlarning muvofiqligi bilan aniqlangan toifalarning haqiqiyliigi turli tasniflagichlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi. Bir nechta tasniflagichlardan foydalangan holda, har bir konsepsiya toifasi sinonimlarni o'z ichiga olishi uchun kengaytirilishi mumkin. Bunday hollarda, bir atama aniq o'zgaruvchi, boshqa(lar) esa yashirin o'zgaruvchi sifatida qabul qilinishi mumkin. "Kontentni tahlil qilish muayyan muammo uchun eng mazmunli toifalarni qo'llash kerak, nisbatan o'ziga xos va aniq toifalar ko'pincha eng mazmunli bo'ladi".

4.Adabiy asarning ta'sir kuchi va muallif mahoratini poetikaning

eng asosiy unsuri bo'lgan badiiy nutqqa va uslubga bog'liq ravishda tadqiq etish o'zining yaxshi samaralarini beradi. Chunki ijodkor so'z vositasida obraz yaratadi, epik tasvir va badiiy ifodaning aniqligi adib qo'llagan original so'z hamda iboralarga tegishli bo'ladi. Zero, adabiyotshunos olim Yo'ldosh Solijonov juda o'rinli ta'kidlaganidek, "voqealarni tasvirlashga, qahramonlarning tabiatiga mos keladigan badiiy nutq shakli chinakam san'at asarining go'zalligini ta'minlovchi ko'zgu hisoblanadi.

5.XXI asr boshlariga qadar detektivlarni o'rganish, qoida tariqasida, adabiy pozitsiyadan olib borilgan. Detektivning paydo bo'lish va rivojlanish tarixi, janri va tuzilishi xususiyatlari, detektiv yozish qoidalarini turli mamlakatlardan va turli millat vakillari bo'lgan taniqli olimlar o'rgandilar. Detektivning tili va uslubiga oid savollar kamdan-kam hollarda tadqiqot mavzusiga aylandi, bu "o'rtacha uslub, stereotipli til, dasturlash" ekanligi bilan izohlandi.

Adabiyotlar

Анцыферова О. Ю. 1994. *Детективный жанр и романтическая художественная система* // Национальная специфика произведений зарубежной литературы 19-20 вв. Иваново., - С. 21-36.

Г. Анджапаридзе.1990. *Как сделать детектив* / сост., пер.– Москва., – С. 32.

Чапек К. 1977. *Собрание сочинений в семи томах: Т. Статьи, очерки, юморы* / К. Чапек. — Москва. Художественная литература,– С. 327.

Берковский Н.Я. 1989. *Мир, созданный литературой*. – Москва, – С. 117.

Эйзенштейн С. 1968. *Литература в кино* / С. Эйзенштейн // Вопросы литературы, – № 1. – С. 102.

Detective Fiction // *A Collection of Critical Essays [ed. R.I. Winks]*. , 1980. – New Jersey: Prentice-Hall Englewood Cliffs– P. 15-24. – [перевод А.А. Брусов].

Чуковский К.И. 1997. *Триллеры и чиллеры* / К.И. Чуковский // Книжное обозрение,– № 31. – С. 39.

Разин В.М. 2000. *В лабиринтах детектива. Очерки истории советской и российской детективной литературы XX в.* / режим доступа: <http://www.rulit.net/author/razin-vladimir>.

Фрэй Дж. 2005. *Как написать гениальный детектив* / Дж. Фрэй [пер. с англ. Н. Буля]. – СПб.: Амфора, - С. 226

Герасименко Э.Н. 2011. *Детектив глазами современных лингвистов* / Э.Н. Герасименко // Научн. журнал: Культура народов Причерноморья. – Тавр. нац. унив. им. В.И. Вернадского, 2011. – № 211 – т.1 – С. 120.

Ирисбоев Т. 2021. *Ўзбек миллий детектив адабиёти муаммолари* // Academic Research in Educational Sciences. February. – P. 35-41.

Periods of study of detective works in linguistic aspect in world linguistics

Gulnorakhon Niyazova¹

Abstract

In this article, the researcher analyzed and discussed the study of the language of detective works in world linguistics in various aspects of linguistics, the views of linguists on its development at different stages. The article discusses the trends in the analysis and study of the linguistic features of detective works. In the world linguistics the study of language of detective fiction have risen to a new stage since the second half of the twentieth century, and the work done is analyzed in terms of its scale and scientific expansion. This article is especially important in that it covers these issues comprehensively.

Key words: *World linguistics, detective story, mystery, linguistic aspect, classic detective story, literary problem, genre, linguistic attributes.*

References

Ansiferova O. Yu. 1994. *Detektivniy janr i romanticheskaya xudojestvennaya sistema* // Nasional'naya spesifika proizvedeniy zarubejnoj literaturi 19-20 vv. Ivanovo, 1994. - S. 21-36.

¹ Gulnorakhon G. Niyazova – Doctor of Philosophy in Philology (PhD), Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.
E-mail: aidabumatova@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-5905-2129

G.Andjaparidze. 1990. *Kaksdelat' detektiv* / sost., per – Moskva, – S. 32.

Chapek K. 1977. *Sobranie sochineniy v semi tomakh*: T. Stat'i, ocherki, yumori / K. Chapek. — Moskva. Xudojestvennaya literatura, – S. 327.

Berkovskiy N.Ya. 1989. *Mir, sozdanniy literaturoy*. – Moskva, – S. 117.

Eyzenshteyn S.1968. *Literatura v kino* / S. Eyzenshteyn // Voprosi literaturi, 1968. – № 1. – S. 102.

Detective Fiction // *A Collection of Critical Essays* [ed. R.I. Winks]. – New Jersey: Prentice-Hall Englewood Cliffs, 1980 – R. 15-24. – [perevod A.A. Brusov].

Chukovskiy K.I. 1997. *Trilleri i chilleri* / K.I. Chukovskiy // Knijnoe obozrenie, – № 31. – S. 39.

Razin V.M. 2000. *V labirintax detektiva. Ocherki istorii sovetskoy i rossiyskoy detektivnoy literaturi XX v.* / rejim dostupa: <http://www.rulit.net/author/razin-vladimir>.

Frey Dj. 2005. *Kak napisat' genial'niy detektiv* / Dj. Frey [per. s angl. N. Bulya]. – SPb.: Amfora, - S. 226

Gerasimenko E.N. 2011. *Detektiv glazami sovremennix lingvistov* / E.N. Gerasimenko // Nauchn. jurnal: Kul'tura narodov Prichernomor'ya. – Tavr. nas. univ. im. V.I. Vernadskogo, – № 211 – t.1 – S. 120.

Irisboev T. 2021. *O'zbek milliy detektiv adabiyoti muammolari* // Academic Research In Educational Sciences. February. – P. 35-41.

ADABIYOTSHUNOSLIK. TARJIMASHUNOSLIK
LITERATURE. TRANSLATION STUDIES**“Shimol shamoli” yoki Buxoroning uygʻonishi:
Istanbuldan bir nazar**Zaynabidin Abdirashidov¹**Abstrakt**

XX asr boshlarida Turkistonda amaliy faoliyatga kechgan jadidchilik harakati qisqa vaqt oraligʻida katta kuchga aylandi. Turkistondagi fikriy va siyosiy harakatlar nafaqat mahalliy rus idorasi, balki xoriждан turib ham diqqat bilan kuzatildi. Bu borada, ayniqsa XX asr boshlarida Turkiyada paydo boʻlgan yangi yoʻnalishdagi davriy matbuot ajralib turadi. Ushbu matbuotda Turkiston, xususan Buxoro amirligi ijtimoiy va siyosiy hayotida sodir boʻlayotgan voqealar bilan bogʻliq turli mazmundagi xabarlar, maktublar va tahliliy maqolalar koʻplab chop etila boshladi. Matbuotdagi bu materiallar orqali XX asr boshlaridagi turk ziyolilari turk jamiyatini Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan xabardor qilish barobarida oʻz munosabatini ham bildirib bordi. Ayniqsa, turk matbuoti rus matbuotida Buxoro davlatining kelajakdagi taqdiri bilan bogʻliq maqolalar chop etilgan maqolalarni diqqat bilan kuzatib bordi. Maqolada turk matbuotida Turkistonga oid chop qilingan maqolalar birlamchi manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: *Turkiston, Buxoro, jadidchilik, Istanbul, matbuot.*

Kirish

XIX asr oxiri XX asr boshlari Sharq musulmon mamlakatlari tarixida keskin burilish qilgan davr sifatida tarixga aylandi. Musulmonlar oʻzlarining oʻsha davrdagi haqiqiy ahvoli va mavqeini anglashga hamda siyosiy va maʼnaviy turgʻunlikdan chiqish yoʻllarini izlay boshladilar. Xususan, musulmon jamiyatlaridagi tanazzulga yuz tutgan intellektual salohiyatni faqatgina ong va qalblarda haqiqiy inqilobni amalga oshirish orqali yana yuzaga chiqish mumkin edi.

Oʻsha davrdagi barcha musulmon ziyolilari taʼkidlaganidek,

¹ Abdirashidov Zaynabidin Sharabidinovich – filologiya fanlari doktori, professor, филология фанлари доктори, профессор, Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi. E-pochta: zaynabidin.abdirashidov@hbv.edu.tr
ORCID ID: 0000-0002-6869-4315

Iqtibos uchun: Abdirashidov, Z. 2022. “Shimol shamoli” yoki Buxoroning uygʻonishi: Istanbuldan bir nazar”. Oʻzbekiston: til va madaniyat 3: 75-99.

jaholat butun musulmon olamidagi siyosiy inqirozining asosiy sababi edi. Natijada 20-asr boshlarida deyarli butun Sharq G'arb hukmronligi ostiga o'tdi. Bir paytlar o'zini butun musulmonlar hukmdori deb hisoblagan eng qudratli imperiya – Usmonli davlati o'z davlatchiligini saqlab qolish uchun kurashar edi. Bir paytlar uning hukmronligi ostida bo'lgan ulkan hududlar G'arbning buyuk davlatlari yordamida mustaqillikka erishdi yoki undan ajralib, o'zini mustaqil deb e'lon qildi.

Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan keyin uning hududi siyosiy jihatdan Rus Turkistoni va yarim mustaqil Buxoro va Xiva xonliklaridan iborat edi. Xonliklar, garchi tashqi siyosiy mustaqilligini yo'qotgan bo'lsa-da, lekin Rossiya bilan tuzilgan ittifoq shartnomalariga ko'ra, ichki siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini saqlab qoldi. Bu hududlarda siyosiy va intellektual tendensiyalarning rivojlanishi faqat XX asr boshlariga kelibgina reallikka aylandi. U vaqtda butun musulmon Sharqi allaqachon XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan siyosiy va ijtimoiy islohotlarning ma'lum bir bosqichiga chiqqan edi. XX asrning boshlarida qo'shni Eron va Usmonli imperiyasida hamda Rossiyaning o'zida sodir bo'lgan inqilobiy xarakterdagi voqealar Turkiston o'lkasi musulmonlarining ijtimoiy hayotida islohotlarning boshlanishi, ma'lum ma'noda siyosiy tafakkurning rivojlanishiga katta turtki berdi.

20-asr boshlarida mintaqada islohotchilik g'oyalarining tarqalishi, Turkistondagi siyosiy vaziyat va intellektual muhit nafaqat Rossiya imperiyasi hukumat doiralarida, balki rus va musulmon davriy nashrlari sahifalarida ham muhokama mavzusiga aylandi. Xususan, Rossiya imperiyasida nashr qilingan "Tarjimon" (1883-1918) hamda "Vaqt" (1906-1918) gazetalari bilan bir qatorda Turkiyadagi 1908 yil 2-konstitutsiyaviy inqilobidan keyin paydo bo'lgan islomchilik va turkchilik yo'nalishidagi yangi turk matbuoti ham Turkiston musulmonlarining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoriga ko'proq e'tibor bera boshladi. Bu davriy nashrlar o'zlarining siyosiy yo'nalishlaridan kelib chiqib, ko'p hollarda axborot xarakteridagi tahliliy, taqriz materiallar hamda mintaqa ziyolilari tomonidan yuborilgan turli ma'lumotlarni chop etdi.

Ushbu maqolada 20-asrning ikkinchi o'n yilligi boshlarida Turkistonda siyosiy va fikriy tendensiyalarning rivojlanishi borasida umumiy va tahliliy ma'lumotlar chop qilgan turk davriy nashrlari materiallarining dastlabki o'rganish amalga oshirilgan. Tadqiqot doirasida Turkiston musulmonlari o'qish imkoniyatiga ega bo'lgan

“Siroti Mustaqim”¹ va “Taarufi Muslimin”² kabi gazeta va jurnallar materiallari tahlilga tortildi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, mazkur maqolada, asosan Turkistondagi vaziyatni baholashga qaratilgan turli qarashlar, xususan Usmonli jamiyatida hokim boʻlgan asosiy mafkura jihatlarini hisobga olgan holda, turklarning Turkistondagi siyosiy va intellektual jarayonlarga munosabatini ifoda etgan materiallar sharhlangan va dastlabki xulosalar chiqarilgan. Bundan tashqari, maqolada oʻz vatanidagi siyosiy va intellektual oqimlarga baho berishga harakat qilgan turkistonliklarning turk matbuotida eʼlon qilingan turli darajadagi materiallar ham sharhlangan. Turk matbuotining islohotchilik tendensiyalarining rivojlanishi haqidagi qarashlarini oʻrganishga qaratilgan bu dastlabki urinish 20-asr boshlarida Turkistonda sodir boʻlgan voqealarni tushunish va xolisona baholashga birmuncha oydinlik kiritadi.

Istanbul matbuoti va Turkiston

Turkiyada 1908-yilgi 2-konstitutsiyaviy inqilob islomchilik va turkchilik gʻoyalarga tayangan “Ittihad va Taraqqiy” partiyasini iqtidorga olib keldi. Ayni shu davrda Istanbulda islom islohotchiligini, Usmonli sultoni homiyligida barcha musulmonlarning birlashishini targʻib qiluvchi koʻplab davriy nashrlar birin-ketin paydo boʻla boshladi. Ushbu turk matbuoti butun dunyo musulmonlarini birlashtirishga loyiq, islom olamining yagona himoyachisi hisoblangan Usmonli davlatini targʻibot-tashviqot ishlarini keng koʻlamda olib borishga harakat qildi. Matbuot vositasida targʻib qilingan bu gʻoyaning asosiy mohiyati barcha musulmonlarga Usmonli homiylikdagi ozodlik, yaʼni islomiy erkinlik, yanada aniqroq aytadigan boʻlsak, islomiy birlik (vahdatun islamiyatun)dan iborat edi [Husni 1910a, 350].

Bundan tashqari, ushbu matbuot musulmonlar birligining asosi turkchilikda, turkiy xalqlarning birligi musulmonlarning birligiga olib keladi degan gʻoyani ham keng tashviq qila boshladi [Ibrāhīm 1910a, 17-20; Ibrāhīm 1910b, 57-58]. Ana shunday shiorlar orqali yangi turk matbuoti qisqa vaqt ichida nafaqat Turkiyada, balki

¹ “Siroti Mustaqim” 1908-yil avgust oyidan Istanbulda chiqarila boshlagan islomchilik yoʻnalishidagi jurnal. Uning bosh muharriri mashhur turk shoiri Mehmet Akif Ersoy (1873-1936) edi. Jurnal 183-sonidan keyin nomini “Sabilur Rashod”ga oʻzgartiradi va 1925 yilga qadar shu nom bilan nashr qilinadi.

² “Taarufi Muslimin” 1910-yil 16-apreldan 1911-yil 2-fevralgacha Istanbulda nashr qilingan gazeta. Gazetaning bosh muharriri diniy olim, sayohatchi Abdurashid Ibrohimov (1857-1944) edi.

xorijda ham juda ko'p obunachi va g'oya tarafdorlarini jalb qilishga muvaffaq bo'ldi.

Islomchilik va turkchilik g'oyalarini targ'ib qilishda "Siroti Mustaqim" jurnali va "Taarufi Muslimin" gazetasi alohida ajralib turadi. Ushbu nashrlarning shiori ham bir xil edi, ya'ni. "Allohning yagona arqonini mahkam ushlang va tarqab ketmang". Mashhur islom sayyohi Abdurashid Ibrohim¹ muharrirligida nashr etilgan "Taarufi Muslimin" gazetasi Qur'oni karimning "Albatta, musulmonlar birodarlardir..." degan oyati ma'nosidan kelib chiqib chiqadigan g'oyaga yo'naltirilgan va nashrning barcha materiallari musulmonlar birligini targ'ib qilishga qaratilgan edi.

"Siroti Mustaqim" jurnali mashhur shoir Mehmet Akif² tomonidan nashr qilinib, asosan diniy mazmundagi maqolalar, jumladan islom falsafasi, ilmi, fiqhi, adabiyoti, tarixi, siyosatiga oid materiallar hamda musulmonlar ahvoliga oid turli masalalar yoritilgan maqolalar chop etilgan. Jurnal taniqli turk ziyolilari qatorida Rossiyadan Turkiyaga kelgan musulmon muhojirlari, xususan, tatar ziyolilari uchun ham o'z sahifalarini ochdi va ularning ijod qilishlari uchun yangi imkoniyatlarni yaratib berdi [Komatsu 2001, 169-170].

Yuqorida tilga olingan turk nashrlarida Turkistondagi siyosiy va fikriy tendensiyalarning rivojlanishini yoritgan maqolalarning asosiy qismi Buxoroga bag'ishlangan. Rus Turkistoni va Xiva turk matbuotini bu davrda u qadar qiziqdirmadi. Buxoroga oid tahliliy maqolalar, voqealar sharhlari, asosan Troitskli Ahmad Tojuddin, Nur Alizoda G'iyosuddin hamda Muxobiri Maxsus nomlari bilan nashr etilgan [Kanlidere 2014a, 167-176; Kanlidere 2014b, 552-

¹Abdurashid Ibrohim (1857-1944) – mashhur diniy olim, siyosatchi, yozuvchi va sayyoh. Sibirdai yerlashib qolgan Buxoro savdogarlarining avlodidan. 1912-yili Turkiya fuqaroligini qabul qilgandan keyin Sharqiy Osiyo bo'ylab sayohat qiladi. Sayohat taassurotlari "Olamī islom" nomida nashr qilingan. 1936-yildan Yaponiyada yashab Tokio-da vafot etgan.

² Mehmet Akif Ersoy (1873-1936) – turk shoiri va siyosatchisi. Ersoy Turkiya Respublikasining milliy gimni muallifi sifatida "Vatan shoiri", "Milliy shoir" unvonlarini olgan. 1911-1933-yillarda yozgan she'rlarini o'z ichiga olgan "Safahot" asari bor. 1908-1912-yillarda "Siroti Mustaqim" va 1912-1936-yillarda "Sabilur Rashod" jurnallarining bosh muharriri bo'lgan.

565]. Troitskli Ahmad Tojuddin¹ va Nur Alizoda Gʻiyosuddin² oʻzlari tayyorlagan tahliliy materiallardan tashqari Buxorodan joʻnatilgan maktublarga izohlar ham yozdi. Muxobiri Maxsusdan tashqari bu ikki muallif Istanbulda istiqomat qilar edi.

Buxoro haqidagi ilk xabar “Siroti Mustaqim” jurnalining 1909-yil 21-oktabrdagi 57-sonida eʼlon qilindi [Sibiriyali 1909, 111-112]. 1909-yil kuzida yangi usul maktabi atrofidagi tartibsizliklar va 1910-yil yanvaridagi shia-sunniy nizolaridan soʻng turk matbuotida Buxoroga bagʻishlangan materiallar soni juda koʻpayganini kuzatish mumkin. Ushbu maqolalarda asosan Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy hayot koʻproq tahlilga tortildi [Bukhārī 1909, 221-222; Bukhārādan maktūb 1909, 266-268; Husnī 1910b, 75; Husnī 1910v, 228-230; Bukhārādan maktūb 1910, 74]. Ammo Buxoroga boʻlgan bunday qiziqish tez orada soʻndi. 1912-yildan boshlab Turkiston mavzusi turk nashrlari kun tartibidan deyarli tushib qoldi. Voqealarning bunday kechishiga, ehtimol, Bolqon yarim orolida boshlangan harbiy harakatlar sabab boʻlgandir.

Matbuot va Buxorodagi qonli nizo

Turkistondagi siyosiy va fikriy oqimlar tahliliga oid turk matbuotida eʼlon qilingan maqola yoki maktublarning katta qismi Buxoroda 1910-yil yanvar oyida sodir boʻlgan sunniy va shia oʻrtasidagi qonli voqealar, shuningdek, 1909-yil sentabr oyida ochiq imtihondan soʻng yopilgan yangi usul maktabi masalasiga bagʻishlangan. Buxorodan kelgan xatlarning bir qismi Muxobiri Maxsus nomidan chop etilgan. Afsuski, biz bu muxbirning ismini bilmaymiz. Bu maktublarda muxbir Buxorodagi gʻalayonlar haqida batafsil maʼlumot berib, bu voqealarning baʼzi muhim ijtimoiy-siyosiy oqibatlarini bayon qiladi. Jumladan, ana shunday maktublarning birida sunniy-shia gʻalayoni bostirilgandan soʻng Rossiyadan Buxoroga ikki komissiya kelganligi maʼlum qilinadi. Har ikki komissiya ham Buxoro xonligining butun aholisini roʻyxatga olish bilan shugʻullangan. Bu komissiyalar xodimlari, muallif

¹Ahmad Tojuddin Rahmonqul ulu (1889-1955) – tatar maʼrifatparvari, dramaturg. Istanbulda tahsil olgan, 1909-1912-yillar oraligʻida Turkiya matbuotida faol ishtirok etgan va Rossiya imperiyasidagi musulmonlar, Turkiston va Buxoro haqida koʻplab maqolalar yozgan. Dramaturg sifatida 1920-yillardan boshlab sahna asarlari yoza boshlagan. Bundan tashqari, Tojuddin bir qator kinossenariylar muallifi hamdir. Umrining oxirigi yillarida Oʻzbekistonda yashagan.

²Gʻiyosiddin Husniy haqida maʼlumot juda kam. Istanbulda Dorul Mualliminni tamomlagandan keyin 1912-yili Buxoroga qaytadi va shu yili sentabr oyidan “Turon” gazetasining bosh muharriri lavozimida ish boshlaydi.

ta'kidlaganidek, eng chekka va kichik qishloqlarni ham nazardan qochirmagan. Bundan tashqari, komissiyalar soliq masalalari bilan ham alohida shug'ullangan hamda barcha ro'yxatga olish kitoblarini qayta ko'chirib chiqqan. Shuningdek, komissiyalar hay'ati barcha mahalliy amaldorlar va yer egalari bilan shaxsan suhbatlashib ham chiqqan. Muallifning xabaridan shuni bilish mumkinki, ikkinchi komissiya raisini asosan diniy qarorlar (fatvo) va shariatning zamonaviy oqimlarga munosabati qiziqtirgan. Qushbegi orqali komissiya raisi muftiy Ikromni uchrashuvga taklif qilgan, lekin mufti Ikrom uchrashuvni rad etgan. Shundan keyin komissiya raisi mufti Ikrom xonadoniga tashrif buyuradi va o'zini qiziqtirgan savollarga atroflicha javob olgan [Bukhārā mukhābirlarimizdan 1910, 29-30].

Nuralizoda Husniyning yozishicha, 1910-yil boshidagi qonli voqealar Buxoro hukumatidagi barcha muhim davlat idoralarini egallab turgan shia-forslarning aybi bilan sodir bo'lgan. Shuningdek, Nuralizodaning yozishicha, Buxoro aholisining ko'pchiligi turkiyzabon bo'lishiga qaramay, shia-forslar ta'sirida fors tili Buxoroning rasmiy tiliga aylangan. Nuralizodaga ko'ra, Buxoroning mustaqilligini qayb etishi va davlatchiliginining tanazzulga yuz tutishida yuqori mansablarni egallagan shia-forslarning juda katta aybi bor. Buxoro armiyasidagi yuqori martabali shia qo'mondonlar Amir Muzaffarni jang maydonini tark etishiga va rus qo'shiniga taslim bo'lish qarorini qabul qilishiga ham katta ta'sir o'tkazgan. G'iyosuddin Husniy bu boradagi fikrlarini davom ettirar ekan, barcha tarixiy manbalarda rus to'pining ilk zarblarini eshitgan zahoti Buxoro qo'shini jang maydonini tark etganliklari qayd qilingan, deb yozadi. Uning fikricha, bunday tarix yolg'on gapiradi va voqealarning bunday rivojida faqat Buxoro qo'shiniga boshchilik qilgan shialar aybdor. Agar ularning ruslar bilan tilbirligi bo'lmaganida edi, Buxoroning shonli qo'shini jang maydonini tark etmagan bo'lardi [Husnī 1910a, 350-352]. Husniyning yozganlari haqiqatga yaqin deb aytish mumkin. Chunki ruslar Buxoroni o'zlariga bo'ysundirgandan keyin shialarga katta ishonch bildirgan va o'zlarning Buxorodagi ayrim ishlarini ular bilan muvofiqlikda olib borgan. 1910-yil yanvarida Buxoroda shia va sunniylar o'rtasida yuz bergan qonli voqealar va 1911-yil sentyabridagi g'alayonlardan so'ng ruslar bu hududdagi "Rossiyaga sodiq bo'lgan yagona guruh – shialarning yordamiga" tayandi. Ruslar shialarning yordami bilan "ularning hayotini xavf ostiga qo'yib bo'lsa-da, Buxoro shahriga hatto kichik rutbali bo'lsin rus zobitini kiritmay barcha hodisalar" [Котюкова 2016, 101] bostirilganligi to'g'risida hisobot bergan edi.

“Siroti Mustaqim” maxsus muxbirining Buxoroda shia va sunniylar oʻrtasida sodir boʻlgan qonli voqealar haqidagi yana bir maktubida bu mavzuda koʻplab soxta xabarlar tarqalgani uchun ham voqeaning sababi va rivojini haqqoniy maʼlumotlar asosida taqdim etishga qaror qilgani haqida xabar beradi. Muxbirning taʼkidiga koʻra, u voqealar rivojining ishonchligini bir necha usul bilan tekshirib koʻrgan va shu tarzda hodisaning kunlik kechishini batafsil tasvirlab bergan [Bukhārā mukhābir-i makhūsimizdan 1910a, 382-384]. Xabarning ana shu kichik tafsiloti Buxoroda jurnalistikaning qanchalik tez rivojlanganini koʻrsatadi. Qolaversa, bundan kelib chiqib Buxoroda milliy jurnalistikada ilk bor jurnalistik tekshiruv yoki surishtiruv usuli qoʻllanilganligini taʼkidlash mumkin.

Ushbu maktubda ilgari nomaʼlum boʻlgan tafsilotlar va oʻsha qonli voqealarning asl sabablari haqida anchagina batafsil xabar berilgan. Maktub muallifiga koʻra, ishning shunday oqibatlariga olib kelishiga mutasaddilarning uzoqni koʻra olmaslik va boshqaruvdagi koʻplab xatolari sabab boʻlgan. Uning fikricha, buxorolik sunniylar oʻzlarini himoyasiz his qilib kelganlar, chunki barcha asosiy davlat lavozimlarini doimo shialar egallab kelgan. Qolaversa, davlat xazinasining katta qismi Mashhaddagi takya faoliyati uchun sarflangan. Lekin, muallifning fikricha, bu voqealarning yuzaga kelishining asosiy sabablaridan biri shia amaldorlarining xorijiy banklardagi hisob raqamlariga katta miqdorda pul oʻtkazib yuborishidir. Voqealar boshlanishidan oldin Qushbegi ingliz bankiga oʻz nomiga 50 ming lira oʻtkazgan [Bukhārā mukhābir-i makhūsimizdan 1910a, 384].

Bundan tashqari, muallif tartibsizliklar sabablariga oid dastlabki tergovlarga tayangan holda diniy asosdagi ushbu xunrezlikka siyosiy tus berilganini alohida taʼkidlaydi. Aftidan, maktub muallifi Buxoroga 1300 rus askari va 12 toʻpning kiritilishi va shahar boʻylab joylashtirilganligi asos qilib shunday xulosaga kelgan. Rus askarining Buxoroga kiritilganligining bu tasdiqi yuqorida rus manbasidan keltirilgan fikrlarni, yaʼni birorta rus askari kiritilmadi, shialar hayoti xavf ostiga qoʻyilgan boʻlsa-da, gʻalayon bostirildi, degan gaplarni inkor etadi. Muallif bu fikrini tasdiqlash maqsadida Qushbegi gʻalayon boshlanishini oldindan bilgani holda Buxoroning butun shia aholisini oʻqotar qurollar bilan taʼminlaganligi haqidagi xabarni ham ilova qiladi [Bukhārā mukhābir-i makhūsimizdan 1910a, 384].

Yuqorida keltirilgan maqolada muallif Buxorodagi qonli qoʻzgʻolonang siyosiy tus berilganini alohida taʼkidlaydi. Aslida

voqeaning bu tarzda rivojlanishida chor Rossiya ma'murlarning katta ta'siri bo'lganligi aytib o'tish joiz. Yuqorida yozilganidek, ruslarning shialar bilan tilbirligi, Buxoro ichki siyosatini shialar orqali boshqarishga harakat qilishi faqat bir maqsadga yo'naltirilgan edi. Bu ham bo'lsa, Buxoroni davlat sifatida yo'q qilish va viloyat maqomiga olib kelish edi. Shu sabab ham ruslar eng avvalo Buxoro qo'shinini tugatish masalasini 1890-yillardan boshlab kun tartibiga qo'ygan edi [Becker 1968, 153].

Nur Alizoda Husniy mazhablar o'rtasidagi bu jiddiy to'qnashuvni boshqa tarafdin tahlil qilishga uringan. Unga ko'ra, islom sunniylik bilan ham, shialik bilan ham ajratilmaydi. Yagona Allohga ishonch barcha musulmonlarni birlashtirdi va bu birlikni buzishga qaratilgan har qanday urinish, xuddi Buxoroda bo'lgani kabi, musulmon ruhoniylari va ilohiyot olimlarining harakatsizligi natijasidan kelib chiqqandir. Husniy vijdon erkinligini boshqarish qurol kuchi bilan emas, balki ilmiy-ijtimoiy vositalar bilan amalga oshirilishi kerak, deb hisoblaydi [Husni 1910v, 229]. Buxoro hukmdori, uning fikricha, jamiyatda kuchlar muvozanatini tiklashi yoki shialarni yuqori lavozimlarga tayinlash an'anasidan butunlay voz kechishi kerak. Bu, Husniyning fikricha, musulmonlar o'rtasidagi adovatni yo'q qilishga xizmat qiladi. Jamiyat rivoji va taraqqiyoti bilan davlatchilik va vatanparvarlikni himoya qilish o'rtasidagi bog'liqlik hech qachon inkor qilinmasligi, aksincha umumiy muvozanatni ta'minlash uchun unga doimo rioya qilish kerak [Husni 1910v, 228]. Husniyning fikricha, Buxoro hukumati zudlik bilan hal qilishi lozim bo'lgan ikkinchi muhim masala bu, aholi o'rtasidagi murosasizlikni, betoqatlikni yo'q qilish, bag'rikenglik tamoyilini tiklashdir. Buxoro jamiyatida yuzaga kelgan murosasizlik, yagona jamiyatning faqatgina e'tiqod sabab turli qismlarga bo'linib ketishi aslida hukumatning bu borada olib borgan noto'g'ri siyosatining bevosita natijasidir. Davlat amaldorlari o'z cho'ntaklarini o'ylab yoki ta'sir doirasini kuchaytirish maqsadida aholi o'rtasida diniy adovat qo'zg'atdi va buning uchun yuzlab vatandoshlarimiz hayotini qurbon qildi. Bu odamlar davlat va millat kelajagi haqida o'ylash yoki qayg'urishga moyil emaslar. Bundan tashqari, Nur Alizoda Husniy ikkinchi tarafdin sodir bo'lgan voqealar uchun mas'uliyatni Buxoro madrasasi zimmasiga yuklaydi. Uning so'zlariga ko'ra, madrasa va ulamo bir necha asrlar davomida Buxoroda istiqomat qilib kelayotgan turli din yoki mazhab vakillarini birlashtirish uchun ma'naviy jihatdan hech qanday ish amalga oshirmagan. Husniy o'z mulohazalarining so'ngida ana shunday xatolar tufayli qanchadan-qancha buyuk davlatlar yer yuzidan yo'q

boʻlib ketganini yozadi. Agar Buxoro oʻziga kelmasa, taraqqiyot yoʻliga tushmasa, tez orada oʻtmishda yoʻq boʻlib ketgan davlatlarning taqdiri uning boshiga tushishi aniq. Husniyning taʼkidiga koʻra, Gʻarb mustamlaka qilingan xalqlarga oʻz odob-axloqi, maʼnaviyatini singdirish maqsadida yuzlarcha missionerlarni tayyorlash uchun katta mablagʻ va kuch sarflamoqda va nasroniy dinini yoyish niqobi ostida butunlay boshqa ishlarni amalga oshirmoqda. Hatto Usmonli davlati ham musulmon jamiyatining boʻlinishiga yoʻl qoʻymaslik va bu kabi ishlarning oldini olish uchun hech qanday amaliy chora koʻrmayotir [Husnī 1910v, 230].

Koʻrinib turganidek, davr voqealarini oʻz koʻzi bilan kuzatgan va guvohi boʻlgan shaxslarning ham Buxoroda sodir boʻlgan qonli voqealarga munosabati turlicha. Ular jarayonni kuzatar ekan, voqeaning kelib chiqish sabablarini qidirishga harakat qiladilar. Shu sabab ham, matbuotda chop etilgan bunday materiallarda fikrlar yakdilligi kuzatilmaydi. Aslini olib qaraganda, oʻsha davr ziyolilarining voqeaga nisbatan bildirgan fikrlari XX asr boshlarida Buxoroda kechgan ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni turli rakurslardan kuzatish imkonini beradi, yangicha qarashlarni oʻrtaga chiqishiga zamin yaratadi.

Turk matbuotida Turkiston ijtimoiy va siyosiy hayoti bilan bogʻliq tahliliy materiallar berib boruvchi mualliflar orasida troitsklik Ahmad Tojuddin alohida oʻrin tutadi. Uning Turkistonning yarim mustaqil hukmdorlari va ulamosiga nisbatan tanqidiy munosabati oʻta achchiq va oʻtkirliqi sabab boshqalardan ajralib turadi. U Buxoro amirini buyuk Temurning “adolat taxti”ni butunlay vayron qilgan dunyodagi eng baxtsiz hukmdor deb ataydi. Uning fikricha, mamlakatni shunday ahvolga olib kelgan Abdulahaddir va Buxoro oʻzining soʻngi kunlarini yashamoqda. Ahmad Tojuddin bu muvaffaqiyatsiz siyosatning asosiy sababini amirning mamlakatni boshqarishga qodir emasligi va hokimiyatning siyosiy ishlardan zarracha ham xabari boʻlmagan bir guruh johillar qoʻliga toʻliq oʻtganligida deb hisoblaydi. Bu yerda Tojuddin amir Abdulahadning doimiy tarzda Karmanada istiqomat qilishi, Buxorodagi arkda esa qushbegining hokimiyati oʻrtantilganiga shama qilmoqda. Unga koʻra, mamlakatda davlat ahvolini tushunadigan qobiliyatli odam yoʻq. Ahmad Tojuddin “Siroti Mustaqim” jurnalining Buxorodagi muxbiri tomonidan yuborilgan, yuqorida tahlil qilingan maktubidagi fikrlarga munosabat bildirar ekan, Buxoro, garchi tobe davlat sifatida tashqi mustaqilligini yoʻqotgan boʻlsa-da, ichki siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini saqlab qolgan davlat boʻla turib rus amaldorlarining

mamlakat bo'ylab to'siqsiz harakatlanishi hamda aholi tarkibi, g'aznaga kelib tushayotgan kirimlar, soliqlar to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni yig'ishi, hududlarning batafsil xaritalarini tuzib ularning fotosuratlarini olishini qanday tushunish va baholash mumkin, degan savolni o'rtaga tashlaydi. U rus hukumatining mamlakat ichida o'zini bu kabi tutishini Buxoro xonligining ichki ishlariga aralashish va Rossiya imperiyasining bosqinchilik harakati deb hisoblaydi va baholaydi. Shu bilan bir qatorda, Usmonli hukumatini bunga e'tibor qaratmayatgani uchun qoralaydi va hech bo'lmaganda Rossiyaga bu kabi harakati uchun norozilik notasi yubormaganligi uchun tanqid qiladi. Ahmad Tojuddin Rossiya rasmiylarining shariatning zamonaviy ijtimoiy-siyosiy tendensiyalarga munosabatini o'rganishdan manfaatdorligi va bu masalalar bo'yicha shariat qarorlari (fatvolari) qabul qilinishini o'tkir siyosiy masala deb hisoblaydi. Chunki mahalliy ulamo tarafidan ushbu yo'nalishga oid chiqariladigan har qanday shar'iy qaror chor hukumatining xonliklarga nisbatan kelgusida qo'llaydigan siyosatini va qabul qiladigan siyosiy qarorlarni qonuniylashtirishga poydevor bo'lishi mumkin. Tojuddinning ta'kidlashicha, Rossiya rasmiylarini qiziqtirgan masalalar bo'yicha olingan har qanday fatvo bugun chiqarilib, ertaga bekor qilinadigan qarorlar emas. Shunday ekan, Buxoro muftiylari o'z harakatlarida nihoyatda ehtiyot bo'lishlari kerak. Ertaga bu qarorlar bekor bo'lmaydigan qonunga aylanishi mumkin [Träiskli 1910a, 43-46].

Yuqorida keltirilgan maqola tahlilida Tojuddin Buxorodagi ijtimoiy va siyosiy holatga Istanbuldan turib nazar tashlaydi. U Buxoroning siyosiy jihatdan istiqbolini tahlil qilar ekan, Buxoro amiri bilan bir qatorda turk sultonini ham tanqid qiladi. Bu jihatdan Tojuddin voqelikka ob'ektiv qarashga intiladi va shu nuqtai nazardan kelib chiqib fikrlaydi.

Buxorodagi siyosiy tanglik

Ahmad Tojuddin mintaqadagi siyosiy vaziyatni tahlil qilar ekan, Rossiya-Afg'on munosabatlari va bu munosabatlarning mintaqaga, xususan, Buxoro xonligi uchun qanday oqibatlar keltirib chiqarishi masalasiga e'tibor qaratadi. Ahmad Tojuddinning fikricha, Afg'oniston hukumatining Turkiston general-gubernatoriga chegarani demarkasiya va delimitasiya qilish masalasi qaysi tomon, ya'ni Buxoro hukumati bilanmi yoki rus hukumati bilan muhokama qilinishi kerakligini aniqlashtirish borasidagi yuborgan maktubi, mintaqada Rossiya siyosatining ancha zaiflashgani hamda mavqeini sezilarli darajada yo'qotganini ko'rsatadi. Xususan, Tojuddinning

taʼkidlashicha, Rossiyaning rus-yapon urushidagi magʻlubiyati bunga asosiy sabab va qoʻshni davlatlar yuzaga kelgan bunday qulay imkoniyatdan unumli foydalanib qolmoqchi [Träisklī 1910b, 128-129]. Tojuddinning yozishicha, rus hokimiyati Buxoroga iqtisodiy boylik manbai sifatida qaragan boʻlsa, keyingi paytlarda ular Buxoroning ichki ishlariga tez-tez aralashib, uni Rossiya tarkibidagi viloyatlardan biri deb hisoblay boshlaganlar. Rossiya mintaqadagi siyosatini oʻzgartirishga harakat qilmqoda, chunki u oʻz mavqeini yoʻqotayotgani seza boshladi. Tojuddin Rossiyaning Turkistondagi siyosiy taktikasini oʻzgartirishining ikki asosiy sababini keltiradi. Birinchidan, mahalliy aholining asta-sekin uygʻonishi va islohotchilik harakatining kuchayishi. Ikkinchidan, Afgʻoniston. Tojuddinning fikricha, Afgʻoniston Rossiyaning rus-yapon urushidagi magʻlubiyatidan foydalanib, Rossiyaga urush eʼlon qilishi mumkin. Aynan shu tahdid Rossiyani Buxoroning ichki ishlarini oʻz nazoratiga olishga undadi. Afgʻoniston, Tojuddinning fikriga koʻra, Rossiyaning bu siyosiy qadamlarini juda yaxshi tushunadi va chegarani demarkasiya va delimitasiya qilish masalasida bevosita Buxoro hukumatiga murojaat qildi. Buxoro, yozadi Tojuddin, bu safar Rossiya va Afgʻoniston oʻrtasida savdo vositasiga aylandi. Agar mintaqada urush boshlansa, bu tahdid Buxoro davlatchiligiga barham berishi mumkin [Träisklī 1910b, 132].

Nur Alizoda Gʻiyosuddin Husniy Rossiya matbuotidagi Buxoro xonligining davlat sifatida tugatilishi haqidagi bahs-munozaralarni tahlil qilar ekan, nasroniy dunyosining islomga qarshi davom etayotgan harakatlari har bir musulmon qalbida qasos tuygʻularini uygʻotadi, degan fikrni bildiradi [Husnī 1910g, 412]. Jurnalda berilgan bu fikrlarni, har qanday yoʻl bilan boʻlsa-da, musulmon olamini junbushga keltirish orqali Gʻarb hukmronligiga qarshi toʻlaqonli kurash boshlashni targʻib qilishga uringan turk matbuotining umumiy yoʻnalishi sifatida talqin qilish mumkin. Bu kurashning asosiy mohiyati Gʻarb ilm-fanining ilgʻor yutuqlarini egallash orqali taraqqiyotga erishish va bu yoʻl bilan Gʻarbning mustamlakasidan qutilish edi.

XX asrning 10-yillari boshlarida rus matbuoti ayrim yirik siyosatchilarning yarim mustaqil Oʻrta Osiyo xonliklarini yoʻq qilish gʻoyasini qattiq qoʻllab-quvvatladi. Bu yoʻnalishda Rossiya hukumatining rasmiy matbuot organi “Novoe Vremya” etakchilik qildi. Gazeta mavzu doirasida Rossiya va Afgʻoniston oʻrtasidagi savdo aloqalariga bagʻishlangan tahliliy materiallarni qayta-qayta chop qildi. Nur Alizoda Gʻiyosuddin Husniyning yozishicha, gazeta Rossiya-

Afg'oniston savdo aloqalarini batafsil tahlil qilganidan so'ng, Buxoro o'z urf-odatlarini va chegaradagi ayrim amaldorlarning harakatlari bu munosabatlarning rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda, degan xulosani ilgari sura boshladi. Ruslar Buxoro bojxonasi tomonidan Rossiyadan yuborilgan yuklar uchun bojxona to'lovlarining undirilishini nohaqlik va Buxoro davlatining bu harakati Rossiya va Buxoro amirligi o'rtasidagi kelishuvning 6-7-bandini to'g'ridan-to'g'ri buzilishi ekanligiga ishora qila boshladilar. G'iyosuddin Husniy rus gazetasida berilgan fikrni tahlil qilar ekan, o'quvchiga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: buxoroliklar rus mollarini Afg'oniston chegaralariga tekin etkazib berishni o'z zimmalariga olganmi? Dunyoning qayerida bunday adolatsizlik bor? Qo'yilgan savolga o'zi javob berar ekan, Husniy shunday yozadi: bunday adolatsizlik faqat Rossiya rasmiylarining musulmonlarga nisbatan amalga oshirayotgan "o'ta g'amxo'rlik" siyosatida bo'lishi mumkin [Husni 1910g, 413]. Husniy maqola tahlilini davom ettirar ekan, ruslar shu yo'l bilan Eronda ko'rgan zararini qoplashni istamoqda, degan xulosaga keladi. Eronliklar rus mollarini boykot qila boshlaganligi sababli, rus savdosi deyarli to'xtab qolgan va katta yo'qotishlarga duch kelgan edi. Husniyga ko'ra, agar ruslar gazetalarda aytilayotgan va keng targ'ib qilinayotgan bu "jinoyat"ni sodir etsa, Afg'onistondagi savdolarini butunlay yo'qotishi mumkin. Chunki afg'onlar ruslardan ko'ra buxoroliklarga ko'proq ishonadi. Muhokama so'ngida Husniy agar ruslar o'z mollarini Afg'onistonga etkazib bermog'chi bo'lsa, Buxoroga qarshi bunday ig'vogarlik harakatlarini to'xtatishni maslahat beradi [Husni 1910g, 413].

Husniy Turkistondagi siyosiy va ijtimoiy vaziyatni tahlil qilish uchun rus matbuotiga tez-tez murojaat qiladi. Bu safar u Toshkentda chiqadigan "Srednyaya Aziya" gazetasida buxoroliklarning haq-huquqlari umuman yo'qligi, oddiy xalqqa tinim bilmay zulm qilayotgan amaldorlarning barcha narsaga qodirligi haqida yozilgan maqolani tahlilga tortadi. Rus gazetasi chop qilgan bu maqolaning oxirida Buxoro xonligini tugatish, Rossiyaga butunlay qo'shib olish va mamlakatda ijtimoiy-siyosiy islohotlar o'tkazish taklif qilingan edi. Husniy bu mavzuda fikr yuritir ekan, agar gazetada yozilganlarning hammasi to'g'ri bo'lsa, barcha mas'uliyat shariat qonun-qoidalariga asoslangan Buxoro ulamosining zimmasiga tushadi, deb yozadi. Ular Buxoro davlatchiligini saqlab qolish uchun zudlik bilan behuda siyosiy o'yinlarni to'xtatib, mamlakat taraqqiyotiga e'tibor qaratishlari kerak. Husniy so'zining oxirida, Rossiya siyosatiga xizmat qilayotgan barcha matbuot bilsinki, agar Buxoro davlati tugatilsa, bu butun

musulmon olamining Rossiyaga qarshi kurashining boshlanishi boʻladi, deb yozadi [Husnī 1910g, 413].

Koʻrinib turganidek, turk matbuotida Buxoroning istiqboli masalasi, Rossiya bilan munosabatlarida qoʻshni Afgʻonistonning oʻrni va roli, XX asr boshlarida Rossiyada vujudga kelgan ham siyosiy, ham iqtisodiy boʻhronidan istifoda qilish kabi masalalar yetarlicha tahlil qilingan. Bu kabi davrga oid tahliliy materiallar nafaqat Buxoro, balki butun Turkiston oʻlkasi bilan bogʻliq amalga oshirilayotgan tarixiy tadqiqotlar uchun yangicha qarashlarni shakllantirishdagi ahamiyati katta.

Davlat yoki viloyat

Rossiya matbuotida tez-tez muhokama qilina boshlagan yarim mustaqil Buxoro va Xivaning tugatilishi mavzusi turk matbuotning ham eʼtiboridan chetda qolmadi. Turk matbuotida bu mavzudagi maqolalarning ikki turini uchratish mumkin: muxbirlarning rus gazetalarida chop etilgan maqolalarga munosabati hamda boshqa musulmon gazetalaridagi materialning qayta nashri. “Siroti Mustaqim” jurnali Orenburgda nashr qilingan “Vaqt” gazetasida Toshkentda chiqadigan “Russkaya pochta”da Buxoroni davlat sifatida tugatilib viloyatga aylantirish mavzusida chop etilgan navbatdagi maqolaga munosabatni koʻchirib bosgan. Xususan, rus gazetasi mavzu boʻyicha quyidagilarni yozgan edi: “Rossiya Buxoro bilan 40 yildan beri tigʻiz munosabatda. Bu yillar davomida Buxoro faqatgina bizni ojiz deb hisobladi va ruslarga boʻlgan munosabati ham shunga muvofiq boʻldi. Biz bu holatni zudlik bilan bartaraf qilishimiz, Buxoro davlatini yoʻq qilish orqali haqiqiy rus kuchini koʻrsatib qoʻyishimiz kerak. Ilgari Angliya va Afgʻoniston tufayli bu masalani ochiq muhokama qila olmas yoki umuman koʻtara olmas edik. Biroq, oʻtgan yillar davomida koʻp narsa oʻzgardi. Hozirda bizning Angliya bilan munosabatlarimiz aʼlo darajada, agar Buxoro tugatilib Rossiya tarkibiga qoʻshib yuborilsa ham, u hech qanday chora koʻrmaydi” [Bukhārā istiqlālina suʼ-i qashd, 1910, 68-69].

“Siroti Mustaqim” jurnali Turkiston xonliklarining suvereniteti masalasini muhokama qilar ekan, Angliya vaqtida Buxoro va Xivaning Rossiya tomonidan toʻliq bosib olinishga toʻsqinlik qildi, deb yozadi. Jurnalning talqiniga koʻra, ruslar xalqaro hamjamiyat oldida oʻzini “aybdor” his etmaslik maqsadida ikki xonlikni butunlay egallab olish yoki tugatishga botina olmagan. Boshqa tarafdin, Rossiya Buxoro va Xivadan olib kiriladigan savdo mollari uchun bojxona toʻlovlari undirish va oʻzaro aloqalar orqali iqtisodiy jihatdan foyda olish va foydalanishni maqsad qilgani sabab bu xonliklarni butunlay

tugatmoqchi emas edi. Jurnaldagi tahliliy maqola muallifiga ko'ra, ruslar tarafidan qo'yilgan shartlarni ma'qul ko'rgan Turkiston xonliklari "oq podshohning himoyasi"ni qabul qildi va abadiy ittifoq to'g'risidagi shartnomalarni imzoladi. Imzolangan shartnomaga ko'ra, Buxoro va Xiva hukmdorlari boshqa davlatlar bilan mustaqil tarzda biror harakat yoki aloqa qila olmaydi. Qolaversa, ikki xonlik, garchi ichki mustaqilligini saqlab qolgan bo'lsa-da, Turkiston general-gubernatori va rus agentlari bilan kelishmasdan biror-bir siyosiy qaror qabul qila olmaydi [Zābid Afandi 1910, 78-79].

Turk matbuoti bu tarzda tahliliy maqolalar orqali o'z o'quvchilarini Turkiston va uning yarim mustaqil xonliklari bilan tanishtirib bordi hamda mintaqaning umumiy ijtimoiy-siyosiy manzarasini ko'rsatishga harakat qildi. Tabiiyki, Turkiston xonliklari bilan bog'liq bu tahlillar turk matbuotining, yuqorida yozilganidek, yo'nalishidan kelib chiqqan holda amalga oshirilganligini nazardan qochirmaslik kerak. Bunday tahliliy materiallar, albatta turk jamiyatida XX asr boshlarida kechgan fikriy jarayonlarni o'rganish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tojuddinining fikricha, mahalliy yarim mustaqil davlatlar XX asr boshlarida yuzaga kelgan qulay fursatdan foydalanib, mintaqadagi iqtisodiy va siyosiy mavqelarini mustahkamlash o'rniga, shaxsiy manfaatlarini qondirish uchun bir-biri ustidan chaqimchilik qilish va qoralash orqali o'zlarini muqarrar o'limga mahkum etmoqdalar. Muallif ta'kidlashicha, mintaqada kundan kunga bir-biri ustidan yozish kuchaymoqda va bu tarzda rus hukumatiga ishlovchi mahalliy josuslar tarmog'i jadallik bilan kengaymoqda. Tojuddinining so'zlariga ko'ra, Ostroumovlarning 5-6 rubl mukofot pulini olish yoki gubernatorning olqishiga sazovor bo'lishga intilish millat uchun ham, davlatchilik uchun ham halokatli bo'lgan chaqimchilik virusning yoppasiga tarqalishiga sabab bo'lgan [Trāisklī 1910b, 130]. Bundan tashqari, Buxorodan kelgan yana bir boshqa xabardan ma'lum bo'lishicha, mahalliy aholi tarkibidan bo'lgan maxfiy josuslar taraqqiyparvarlar haqida ma'lumot to'plamoqda va ularni ikki joyga, ya'ni amir idorasiga va Kogon (Yangi Buxoro)dagi rus agentiga taqdim etmoqda. Xabarda yozilishicha, bu josuslar taraqqiyparvarlarning Turkiya bilan aloqalari, shuningdek, u yerga yuborilgan xabarlar va u yerdan olingan turli kitoblar, gazeta va jurnallar haqida etarlicha ma'lumot taqdim qilmoqda [Bukhārāda khufya usūli 1910, 69-70].

Ayni paytda, shia-sunniy tartibsizliklari ortidan Rossiya hukumati xorijiy adabiyot va davriy nashrlarni olib kelinishi va tarqatilishi ustidan nazoratni kuchaytirdi. Buxorodan "Taarufi

“Shimol shamoli” yoki Buxoroning uygʻonishi: Istanbuldan bir nazar

Muslimin” gazetasiga yuborilgan xabarda yozilishicha, rus amaldori Kogondagi mahalliy matolar bilan savdo qiluvchi doʻkondorning oldiga kelgan. Amaldor doʻkondorning Istanbuldan xat hamda turli gazetalar olgani haqida maʼlumotga ega ekanligini, ularni topshirishi kerakligini aytib unga tahdid qilgan. Qilingan doʻq-poʻpisalarga qarshi bu savdogar biror bir joʻyali javob bera olmay, hech qanday xat olmagan, obuna boʻlgan jurnallarni oʻzi oʻqimay, boshqalarga berishini aytgan. Bundan tashqari, xabardan maʼlum boʻlishicha, bu amaldor doʻkondorni juda qattiq haqorat qilgan va bu ishni oxiriga etkazishga vaʼda bergan. Gazeta tahririyati ushbu xabarga yozgan izohida: “Buxoro hukmdori va buxoroliklar ruslarning mamlakat ichida bunday siyosat yuritishiga qarshi turishlari va yoʻl qoʻymasliklari kerak. Har bir buxorolik oʻz uyi ostonasidan istalgan rusni kiritmaslik uchun jurʼatli boʻlishi lozim. Aks holda, vaziyat butunlay ruslar qoʻliga oʻtadi” [Bukhārādan aldighimiz bir waraqa 1910, 151-154]. Koʻrinib turganidek, gazeta buxoroliklarni chor hokimiyati bosimiga qarshi turishga, Buxoro davlatchiligini saqlab qolish uchun zoʻravonlikka qarshi koʻtarilishga chaqiradi.

Siyosiy hamkorlik masalasi

Ahmad Tojuddinining maqolalari Turkistondagi, xususan, Buxoro xonligidagi siyosiy-intellektual oqimlarni tashqaridan umumiy tahlil qilish nuqtai nazaridan katta qiziqish uygʻotadi. Bundan tashqari, ushbu maqolalarda Sharq va Gʻarb siyosiy va madaniy fikrlarining maʼlum bir simbiozi mavjud. Ahmad Tojuddin siyosiy vaziyat va intellektual tarbiya darajasini tahlil qilar ekan, baʼzan turkistonliklarning ijtimoiy nuqtai nazardan yuksak martabada boʻlgan kattalarga hurmatni singdirishga qaratilgan mahalliy madaniy va maʼnaviy tarbiyasini inobatga olmaydi. Oʻz vaqtida Nikolay Ostroumov bu tarbiyaviy tendensiyaga alohida urgʻu berib, shunday yozgan edi: “Musulmon maktabining birdan bir bir yaxshi jihati shundan iboratki, u oʻz oʻquvchilariga hayo va hurmatning qorishmasi boʻlgan tashqi odobni juda yaxshi singdiradi” [Остроумов 1908, 250].

“Taarufi Muslimin” gazetasidagi tahliliy materiallarning aksariyati mintaqadagi siyosiy jarayonlarga bagʻishlangan. Jumladan, gazeta chor hokimiyatining Buxoroning ichki ishlariga aralashuviga oʻz munosabatini bildirishga harakat qiladi. Shu bilan birga, bu materiallar aksariyatining muallifi boʻlgan Ahmad Tojuddin bu borada ruslarni emas, balki buxoroliklarning oʻzlarini ayblaydi. Ahmad Tojuddin oʻz tahlillarida buxorolik musulmonlarning Rossiya musulmonlaridan farqli jihatlariga koʻproq urgʻu berganini kuzatish

mumkin [Träisklī 1910v, 241]. Tojuddin Buxoroni, tashqi siyosiy mustaqilligini qoʻldan boy bergan boʻlsa-da, alohida davlat sifatida taʼriflaydi. Uning fikricha, bugunda tahsil olayotgan talabalar nafaqat Buxoroning, balki butun dunyo musulmonlari najot topishiga umid beruvchi yagona omildir. U buxorolik talabalar haqida soʻz yuritar ekan, agar ular endi Buxoro va boshqa mamlakatlar oʻrtasidagi taraqqiyot farqini, oʻz vatanlari oʻlim yoqasida ekanini anglab olsalar, tez orada “ulamo” nomini olgan johillar guruhining biror bir maʼnosi qolmaydi, biz uchun oʻz ahamiyatini yoʻqotadi, deb yozadi. U Volgaboʻyi va buxorolik musulmonlarni qiyoslaydi, ular orasidagi ijtimoiy-siyosiy yoʻnalishdagi farqlarni ochiqroq koʻrsatishga harakat qiladi. Rossiya musulmonlari rasmiy hokimiyatning har qanday noqonuniy xatti-harakatiga tepki koʻrsatayogan yoki norozilik bildirayotgan vaqtda, davlat sifatida ichki siyosiy va iqtisodiy mustaqillikka ega boʻlgan buxorolik musulmonlar istalgan rus amaldorining bir soʻziga ham munosib javob bera olmaydi. Kogonda oʻtirgan rus amaldori Buxoroga kelib, xayoliga kelgan hamma ishni qila oladi va buxoroliklar bunga ogʻiz ochgancha qarab turishdan boshqa ishga yaramaydi. Ahmad Tojuddin bu qadar ojizlik, bu qadar jaholatni hatto mustaqillik tuygʻusini ozroq boʻlsa ham singdirishga qodir boʻlmagan qoloq taʼlimda deb hisoblaydi. Uning fikricha, madrasaning 20 yillik dasturini tamomlagan keyin ham oddiy tramvay chiptachisining haqoratli harakatlariga bir turli javob bera olmaydigan inson qanday qilib oʻz vatanini, dinini, eʼtiqodini rus tajovuzidan himoya qilishi mumkin. Tojuddin zamona ziyolisiga tavsif berar ekan, davlatchilikni harakatlantiruvchi va asosini tashkil etuvchi barcha kuchlar yaroqsiz holga kelib qolgan taqdirda ham millatning umidi boʻlgan talaba kelajakdagi oʻzining missiyasini aniq bilishi va boʻlayotgan jarayonlarga sergak boqishi kerak, deydi. Haqiqiy ziyoli, Tojuddin fikricha, hech narsaga qaramay, doimo eʼtiqodi va vatanini himoya qila olishga qodir boʻlmogʻi kerak. Ammo, Tojuddin taʼkidlashicha, ilm oʻrniga jaholat va ojizlikni tarqatayotgan Buxoro madrasalarining bugungi ahvoli bilan bunday maqsadlarga erishib boʻlmaydi. Tojuddin buxoroliklarni qoʻlga qurol olib kurashga kirishga chaqirmaydi. Unga koʻra, hozirgi sharoit muqarrar oʻlimga olib keladigan qurolli qoʻzgʻolonning vaqti emas. Bu davrda musulmonlar oʻz vatani va millatining kelajakdagi farovonligi uchun barcha bu xoʻrliklarga biroz chidashlari va sabr qilishlari lozim. Kelajakdagi farovonlikka erishish uchun Buxoro zudlik bilan talabalarni musulmon dunyosi markazi boʻlgan Istanbulga oʻqishga yuborishni boshlashi kerak. Buxoro har yili 20-25 nafar talaba

yuborsa, oʻn yildan soʻng haqiqiy vatanparvarlar, Temurning haqiqiy avlodlari yetishib chiqadi. Va shundagina, katta ehtimol bilan, 20-30 yildan keyin Buxoro Rossiya imperiyasiga qarshi tura oladi [Träiskli 1910v, 242-245].

Ahmad Tojuddin yana bir tahliliy maqolasida “Novoe vremya” gazetasining Turkiston konlarini inglizlarga sotish tashabbusini qattiq qoralaydi va turkistonliklarning bunday siyosiy va iqtisodiy tahdidlarga qarshi turishini talab qiladi. Uning yozishicha, muxtoriyat yoki mustaqillik faqatgina soʻz bilan qoʻlga kiritilmaydi. Buning uchun, bir tomondan vaqt kerak boʻlsa, ikkinchi tomondan esa qobiliyat ham kerak. Uning fikricha, agar turkistonliklar bugundan harakat qila boshlasalar, bu qobiliyatga ega boʻlishlari uchun yana 50 yil kerak boʻladi [Träiskli 1910g, 275-278].

Matbuot va Buxorodagi taʼlim

Turkiston taʼlim muassasalarining, Turkiya matbuotiga koʻra, zamon talablariga javob beradigan ziyolilarni tayyorlashda, shuningdek, musulmonlar aql-zakovati va umuman, intellektual salohiyatini rivojlantirishdagi oʻrni deyarli yoʻq hisobi. Turk matbuotida Turkiston mavzusida tahliliy materiallar yozgan yana bir muallif, asli tatar boʻlgan Olimjon al-Idrisiyning¹ taʼkidlashicha, boshlangʻichdan oliy taʼlimgacha boʻlgan zanjirli bosqichdan iborat bu taʼlim maskanlari asosan chalasavod, eng muhimi, maʼnaviy jihatdan buzilgan yosh avlodni tayyorlamoqda edi. Unga koʻra, bunday ayanchli va tahlikali vaziyatni oʻnglashda turk ulamosi va ziyolilari yordam berishi mumkin. Buning uchun ular uzluksiz yozishmalar orqali yangicha taʼlim-tarbiya usullarini tushuntirishi va hozirgi madrasa va maktabni isloh qilish yoʻllarini koʻrsatib borishlari kerak [Sibiryali 1909, 111-112].

Ahmad Tojuddin Turkistondagi jadidlar va qadimchilar oʻrtasidagi kurash haqidagi gapirar ekan, rus missionerlarining boshligʻi (u Nikolay Ilminskiyni nazarda tutgan boʻlsa kerak) “bizning asl maqsadlarimizni amalga oshirishda eng qoʻl keladigani bu ulamodir. Birinchi navbatda ularni oʻz qoʻlimizga olishimiz, yoshlardan esa ehtiyot boʻlishimiz kerak”, deganida juda haq ekanligini yozadi. Uning fikricha, bu missionerning yoshlar haqida fikri juda toʻgʻri edi. Chunki ular kelajagimiz umidi va tayanchidir. Ahmad Tojuddin

1 Sibiryali Olimjon Idrisiy (1887-1959) – tatar taraqqiyparvar ulamolaridan.

Buxorodagi Mir-i Arab madrasasida, Istanbul universitetining Ilohiyot fakultetida tahsil olgan. 1913-yili Orenburgdagi Husayniya madrasasida oʻqituvchilikka boshlaydi. 1914-1921-yillarda Evropada yashaydi. 1921-yili Buxorodan Germaniyaga 50 talabaga bosh qilib yuboriladi. 1924-yilgacha Buxoro jumhuriyatining Germaniyadagi vakili sifatida faoliyat olib boradi.

Rossiya imperiyasining ichki qismidagi yangi va eski g'oyalar o'rtasidagi kurashga to'xtalar ekan, Buxorodagi intellektual muhit borasidagi salbiy qarashlarini yashirmaydi. Uning ta'kidlashicha, Volgabo'yi va boshqa musulmon mintaqalarida islohotlar uchun shiddatli bahs-munozaralar, millat kelajagini asrash uchun jiddiy kurashlar kechayotgan bir vaqtda Buxoroda musulmolar jaholat iskanjasida mutlaq sukunatda turishi ajablanarli. Buxoroliklar vaqti-vaqti bilan masjidga boradilar, "muhtaram amirimiz dunyoning yagona hukmdori" deya duo qiladilar va yana qorong'i hujralariga qaytib, afyun chekishdan zavqlanadi. Tahlil davomida Tojuddin Buxoro madrasalari masalasini ham tilga oladi. Uning fikricha, millat kelajagi bo'lmish yoshlar befoyda sharhlar bilan tarbiyalanayotgani juda achinarli. Bu holat faqatgina o'z qonuniyatlari bo'yicha yashovchi zulm, qonunsizlik va boshboshdoqlikning yanada chuqurroq ildiz otishiga, yanada ko'proq yoyilishiga xizmat qiladi [Träiskli 1909, 187-188]. Bundan tashqari, Tojuddinning yozishicha, A'lam G'iyos Maxdum olomon huzurida shunday degan: "Yangi usul [maktabi] haromdir. O'qish va yozishga o'rgatish Qur'onni o'rganish uchun lozim, lekin ayni vaqtda savod chiqarish gazetalarni o'qish uchun ham bir vosita hisoblanadi. Bu esa muhtaram Amirimiz amalga oshirayotgan ishlarini muhokama qilish yo'llarini ko'rsatishga xizmat qiladi. Bunday o'qish va yozishning yangi usulini taqiqlash to'g'ri qaror bo'ladi, chunki Amirimizning xatti-harakatlarini muhokama qilish xalqni Qur'onni to'g'ri o'qishdan mahrum qilishdan ham kattaroq gunohdir". Tojuddin gazeta o'quvchilariga bir savol bilan murojaat qiladi: "Agar davlatning yuqori martabali, ziyoli odami bu so'zlarni gapirgan bo'lsa, boshqa nodonlardan nimani kutish mumkin?" Ahmad Tojuddin o'z mulohazalarining yakunida Buxoroning yuqori martabali amaldorining bunday adolatsizligi Eron shohi va turk sultoni tarafidan amalga oshirilgan nomaqbul ishlardan ham oshib tushganini yozadi: "Hattoki butun dunyo musulmonlari zolim deb hisoblaydigan bu hukmdorlar ham "Bizning amallarimizni muhokama qilmaslik uchun xalq Qur'on o'qimasin", deyishga jur'at topolmagan" [Träiskli 1909, 189-190].

Ahmad Tojuddinning ta'kidlashicha, Buxoro ayni damda soxta masxarabozlar va poraxo'rlar qo'lida. Buxoro zulm o'chog'iga aylanib qolgan. Nima bo'lganda ham, yozadi Ahmad Tojuddin, shimoldan esayotgan umid shamoli tez orada yo'lidagi hamma narsani uchirib ketadi. Xalq ularni qutqarib, ozodlikka etaklovchi va XX asrda munosib hayot kechirishini ta'minlovchi asosiy omil ta'lim ekanligini anglab etadi. Ahmad Tojuddinning fikricha, bu

haqiqiy inqilob boʻladi, har qanday boshqa inqilob kabi tinchgina oʻtmaydi, changi uzoqlargacha koʻrinadi. Muallif Buxorodagi yangi usul maktabi atrofidagi voqealarni muhokama qilar ekan, aynan mana shu inqilobning qonunbuzarliklarga barham berishi, muftiy domulla Ikrom kabi insonlar boshchiligidagi buxoroliklar taraqqiyot sari qadam tashlashining xabarchisi ekanligini taʼkidlaydi. “Shimol shamoli”, Tojudinning soʻzlariga koʻra, aholini jaholat uyqusidan uygʻotib, Buxoroning haqiqiy ahvolini koʻrsatib beradi [Träiskli 1909, 187-189].

Buxorodagi yagona yangi usul jadid maktabining yopilishi bilan bogʻliq voqealar ham turk nashrlarida koʻp muhokama qilingan mavzuga aylandi va Turkiston, xususan Buxoroning maʼrifiy hayoti va intellektual salohiyatini tahlil qilish uchun zamin yaratdi. Buxorodan turk nashrlariga yuborilgan maktublar maktabning yopilishi ortidan sodir boʻlgan voqealar rivojini batafsil ochib berdi. Buxorodan yuborilgan ana shunday maktublardan birida Qozi Kalonning jadid maktabiga qarshi turgan asosiy shaxslar, yaʼni Buxoro raisi, mufti Muhammad Razzoq va Gʻiyosuddin aʼlam bilan boʻlib oʻtgan suhbat tafsilotlari yozilgan. Bu suhbatda Qozi Kalon mavjud yagona maktab yopilgandan keyin Buxoro ulamosi butun dunyo musulmonlari tarafidan katta bosim ostida qolganligini ochiqalaydi. Majlisda ishtirok etgan Buxoro raisi Qozi Kalonning bu soʻziga javoban, Istanbul maktablarida oʻqitilayotgan darslik kitoblarni Buxoroga olib kelish masalasida Istanbuldagi Oʻzbeklar takyasi shayxi muhtaram Abdulmajid afandiga maktub yoʻllaganligi va yordam soʻraganligini aytadi. Shuningdek, rais bu darslik kitoblari Buxoroga olib kelingandan keyin muftilar tarafidan taftish qilinib oʻrganib chiqilishi, agar ulamo tarafidan ushbu kitoblarda shariatga zid deb topilgan maʼlumotlar topilsa, rad etilishini ham aytadi. Rais soʻzining davomida agar kitoblar shariatga muvofiq deb topilsa, u holda yangi usul maktablarini ochishga yordamlashishi va maktablarda bu kitoblarni oʻqitilishiga ruxsat berilishini vaʼda qiladi [Bukhārādan maktūb 1909, 266-268]. “Siroti Mustaqim” jurnali tahririyati tarafidan ushbu maktubga yozilgan izohida bosh muharrir Buxoro raisining yuqorida keltirilgan soʻzlaridan gʻazabini yashirmaydi va Buxoro ulamosining bu kabi jaholati va muhofazakorligi butun dunyo musulmonlarini hayratga solayotganini yozadi. Muharrir shunday yozadi: “Buxoro ulamosi Istanbul maktablarida oʻqitilayotgan darsliklarining shariat meʼyorlariga muvofiqligini tekshirib koʻrishi ajablanarli. Bu soʻzlar Buxoro raisiga tegishli ekanligi inobatga olinsa, bunday munosabatni musulmon xalifaligi markaziga

nisbatan haqorat va hurmatsizlik deb bilamiz. Buxoro ulamosidan qay biri darsliklarni tekshirish darajasida bilimga ega? Darsliklar va ularda berilgan ma'lumotlar Buxoro madrasalarida o'qitilayotgan safsatalardan iborat emas" [Bukhārādan maktūb 1909, 268].

Ko'p hollarda turk nashrlari tahririyatlari xavfsizlik nuqtai nazaridan Buxorodagi o'z muxbirlari yoki turli maktub va xabarlarini yuborgan mualliflarning ismlarini ochiqklamagan. Masalan, Buxorodan kelgan bir maktubga 12 nafar buxorolik hurmatli kishilar imzo chekkan, biroq tahririyat ularning ism-shariflarini e'lon qilmaslikka qaror qilgan. Muhtaram buxoroliklar imzo chekkan ushbu maktubda O'rta Osiyoga ilk musulmon matbuoti Rossiyadan kirib kelgani, kam sonli bo'lsa-da, buxoroliklar Bog'chasroydan "Tarjimon", Orenburgdan "Vaqt" gazetalari obuna bo'lib olib o'qib kelgan. Oxirigi vaqtlarda, maktubda qayd etilganidek, buxoroliklar, ayniqsa yoshlar Turkiyadan "Siroti Mustaqim" jurnaliga obuna bo'la boshladilar. Bu jurnal orqali buxorolik yoshlar o'z dunyoqarashini yanada kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Mualliflarning ta'kidlashicha, buxoroliklar asta-sekin matbuotga e'tibor qarata boshlagan va matbuot o'quvchilarning aksariyati yoshlar ekani juda quvonarli. Bu maktubda bildirilgan fikrlar Buxoroda tarqalayotgan matbuot va bu matbuotning asosiy o'quvchilari yoshlar bo'lganligi katta ahamiyatga ega edi. Chunki matbuot o'qigan yosh avlod keyinchalik nafaqat Buxoro, balki butun Turkistonning ilg'or fikrli ziyolilari bo'lib yetishdi.

Jurnalning Buxorodagi o'z muxbiridan olingan maktubda ham mintaqaning intellektual muhiti ijobiy tomonga o'zgarayotgani haqida so'z boradi. Maktubda buxorolik yoshlarning dunyoqarashi turk matbuoti, xususan, "Siroti Mustaqim" jurnali ta'sirida tubdan o'zgarib borayotgani qayd etiladi. Bu jurnal, maktub muallifining ta'kidlashicha, qisqa vaqt ichida shahar aholisi orasida juda keng tarqalgani va odamlarning ma'naviy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsata boshladi [Bukhārā mukhābir-i makhūsimizdan 1910b, 74-75]. Ta'kidlash kerakki, jurnalning islomchilik yo'nalishi va bunga mos chop etilgan turli fikr va ma'lumotlar bir zumda yangidan yuksala boshlagan Buxoroning qalbida joy olishga muvaffaq bo'ldi.

Xulosa

Yuqoridagidi dastlabki kuzatishlardan turk matbuoti, asosan, Turkiston musulmonlarining fikriy uyg'onishini kuzatish bilan bir qatorda o'lkadagi siyosiy jarayonlar va bu siyosiy jarayonlarning rivojlanish yo'nalishlari bilan qiziqanligini ta'kidlash mumkin.

Turk nashrlarida taqdim etilgan materiallar faqatgina Buxoroda kechgan siyosiy voqealar tahlili va fikriy uygʻonish mavzusi bilan chegaralangani sabab, turk oʻquvchisi butun Turkistondagi voqealar rivojini batafsil kuzatish va tushunishiga imkon bermagan.

Buxorodagi shia va sunniylar oʻrtasidagi tartibsizliklarni yoritish doirasida chop qilingan tahliliy materiallar, asosan, Buxoro amiri va ulamosining siyosiy miopiyasini fosh etishga qaratilgan. Bu qonli voqeaning sodir boʻlishi musulmon ulamosi va elitasining loqaydligi va harakatsizligi oqibati sifatida talqin qilindi. Bundan tashqari, vijdon erkinligini taʼminlash, Istanbul matbuotiga koʻra, qurol kuchi bilan emas, balki ilmiy va ijtimoiy vositalar bilan amalga oshirilishi kerak. Bu, birinchi navbatda Buxoro jamiyatida kuchlar muvozanatini tiklash, yaʼni musulmonlar oʻrtasidagi adovatni yoʻq qilishga xizmat qilishi kerak boʻlgan ishlarga diqqat qaratilishi lozim edi.

Shuningdek, Rossiya matbuotida koʻp koʻtarilgan Buxoro va Xiva xonliklarini tugatish toʻgʻrisidagi bahs-munozaralar, shuningdek, rus amaldorlarining bu ikki xonlikning ichki ishlariga hech qanday qarshiliksiz aralashuvi Istanbul gazetalari tomonidan Rossiyaning tajovuzi sifatida baholandi.

Turkistondagi intellektual tendensiya, turk matbuotiga koʻra, sifatsiz taʼlimga tobe boʻlib qolgan. Bunday taʼlim esa butun oʻlkada ojizlik va jaholatni keng yoyilishi, va eng muhimi, jamiyatda mustaqillik va ozodlik tuygʻusini singdirish qobiliyatini butunlay yoʻqotgan. Shu oʻrinda Usmonli jamiyatining Turkistondagi bunday ayanchli vaziyatni bartaraf qilish uchun amaliy emas faqat nazariy jihatdan, yaʼni vaqti-vaqti bilan koʻrsatmalar yuborish orqaligina yordam berishga tayyor ekanligini ham taʼkidlash kerak. Turk jamiyatidagi bunday kayfiyatni Ahmad Tojuddin Volgaboʻyi tatarlari tarafidan yuborilayotgan amaliy “shimol shamoli” haqida yozganida yanada aniqroq kuzatish mumkin. Qolaversa, turklar Buxoroda ildiz otgan va zudlik bilan bartaraf etilishi lozim boʻlgan betoqatlik haqida mulohaza yuritsalarda, ularning oʻzlari Turkiston ulamosiga nisbatan bagʻrikenglik qila olmaydi. Turk matbuoti turk jamiyatiga qaratilgan tanqidni toʻgʻri qabul qila olmaydi va musulmon xalifaligi markaziga nisbatan haqorat va hurmatsizlik deb bilishni afzal koʻrdi.

Foydalanilgan adabiyot

Becker, Seymour. 1968. Russia's Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865 – 1924. Harvard University Press, Cambridge, Massachusetts.

“*Bukhārā istiqlālina su’-i qaşđ*”. 1910. Şırât-ı Müstaqīm 108 (29.09.1910): 68-69.

“*Bukhārāda khufya usūli*”. 1910. Ta’aruf-i Müslimīn 1/5 (11.06.1910): 69-70.

“*Bukhārādan aldighimiz bir waraqa*”. 1910. Ta’aruf-i Müslimīn 1/9 (05.08.1910): 151-154.

“*Bukhārādan maktüb*”. 1909. Şırât-ı Müstaqīm 69 (30.12.1909): 266-268.

“*Bukhārādan maktüb*”. 1910. Şırât-ı Müstaqīm 82 (30.03.1910): 74.

Bukhārā mukhābir-i makhūsimizdan. 1910a. “*Bukhārā waq’a-i alīmasi*.” Şırât-ı Müstaqīm 76 (18.02.1910): 382-384.

Bukhārā mukhābir-i makhūsimizdan. 1910b. Şırât-ı Müstaqīm 82 (30.03.1910): 74-75.

Bukhārā mukhābirlarimizdan. 1910. “*Bukhārā ḥālī tahlikada ...!*” Ta’aruf-i Müslimīn 1/2 (29.04.1910): 29-30.

Bukhārī, Ş. M. 1909. “*Bukhārāda sharī’at nāmına irtikāb olan jināyat*.” Şırât-ı Müstaqīm 66 (09.12.1909): 221-222.

Hüsnī, Nūr ‘Alizāde. 1910a. “*Bukhārāda sunnilar, şī’ilar*.” Şırât-ı Müstaqīm 74 (03.02.1910): 350-352.

Hüsnī, Nūr ‘Alizāde Ghiyāth al-Dīn. 1910b. “*Bukhārāya dā’ir*.” Şırât-ı Müstaqīm 82 (30.03.1910): 75.

Hüsnī, Nūr ‘Alizāde Ghiyāth al-Dīn. 1910v. “*Bukhārāya dā’ir*.” Şırât-ı Müstaqīm 91 (02.06.1910): 228-230

Hüsnī, Nūr ‘Alizāde Ghiyāth al-Dīn. 1910g. “*Bukhārā*.” Şırât-ı Müstaqīm 102 (18.08.1910): 412-413.

Ibrāhīm, ‘Abd al-Raşīd. 1910a. “*Pānturānizm*.” Ta’aruf-i Müslimīn 1/2 (29.04.1910): 17-20.

Ibrāhīm, ‘Abd al-Raşīd. 1910b. “*Yana Pānturānizm*” yāki “*Aqwām-i Türk’in birleşmesi*.” Ta’aruf-i Müslimīn 1/5 (11.06.1910): 57-58.

Kanlıdere, Ahmet. 2014a. “*Sırât-ı müstakīm Dergisinin Buhara Uyanışı Üzerindeki Etkileri (1909-1911)*.” – VIII. Milletlerarası Türkoloji Kongresi. 30 Eylül – 04 Ekim 2013. Bildiri Kitabı – IV. İstanbul, 552-565.

Kanlıdere, Ahmet. 2014b. “*Türk Basınında Türkistanlı Ceditçilerin Kültürel Faaliyetleri 1910-1914*.” Marmara Türkiyat Araştırmaları Dergisi 1: 167-176.

Komatsu, Hisao. 2001. “*Bukhara and Istanbul: A Consideration about the Background of the Munāẓara*.” In Stephane A. Dudoignon and Komatsu Hisao (eds.). *Islam in Politics in Russia and Central Asia*

(Early Eighteenth to Late Twentieth Centuries). London, New York, and Bahrain: Kegan Paul, 169-170.

Sibiriyalı, ‘Alimcan al-Idrisi. 1909. “Bukhārāda tahsil” Şırāt-ı Müstaqīm 59 (21.10.1909): 111-112.

Träisklī, Aḥmad Tāj al-Dīn. 1909. “Zawallı Bukhārā ...!” Şırāt-ı Müstaqīm 64 (24.11.1909): 187-190.

Träisklī, Aḥmad Tāj al-Dīn. 1910a. “Badbakht ḥukmdār, zawallı Bukhārā ...!” Ta’āruf-i Müslimīn 1/3 (13.05.1910): 43-46.

Träisklī, Aḥmad Tāj al-Dīn. 1910b. “Afghānistān – Bukhārā.” Ta’āruf-i Müslimīn 1/8 (22.06.1910): 128-132.

Träisklī, Aḥmad Tāj al-Dīn. 1910v. “Bukhārā talabalarıla ḥasb-i ḥāl.” Ta’āruf-i Müslimīn 1/15 (23.09.1910): 241-245.

Träisklī, Aḥmad Tāj al-Dīn. 1910g. “Māwarāunnaḥrda İngiltarra.” Ta’āruf-i Müslimīn 1/17 (14.10.1910): 275-278.

Zābid Afandi. 1910. “Khıva ḥākımı marḥūm Sayyid Muḥammad Raḥīm Bahādirkhān.” Şırāt-ı Müstaqīm 109 (06.10.1910): 78-79.

Искандаров, Б. 1958. Из истории Бухарского эмирата. Москва.

Котюкова, Т.В. 2016. Туркестан в имперской политики России: монография в документах. Москва: Кучково поле.

Остроумов, Н.П. 1908. Сарты. Этнографические материалы. Ташкент.

“North wind” or the Awakening of Bukhara: a view from Istanbul

Zaynabidin Abdirashidov¹

Abstract

The Jadidism movement, which began practical activity in Turkestan at the beginning of the 20th century, became a great force in a short period of time. Intellectual and political movements in Turkestan were closely overwatched not only by the local Russian government officials, but also from abroad. In this regard, the

¹ Abdirashidov Zaynabidin – Doctor of Science in Philology, Professor, Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi.

E-mail: zaynabidin.abdirashidov@hbv.edu.tr

ORCID ID: 0000-0002-6869-4315

For citation: Abdirashidov, Z. 2022. “North Wind” or the Awakening of Bukhara: a view from Istanbul”. *Uzbekistan: Language and Culture* 3: 75-99.

periodical press of a new direction, which appeared in Turkey at the beginning of the 20th century, was different. In this press, a lot of messages, letters and analytical articles of various contents related to the social and political life of Turkestan, especially Bukhara Emirate, began to be published. Through these materials, the Turkish intellectuals of the beginning of the 20th century expressed their attitude towards those political events and as well as tried to inform the Turkish society about the social and political processes in Turkestan. In particular, the Turkish press closely followed the articles published in the Russian press about the future fate of the Bukhara Emirate. In this article, the articles published in the Turkish press about Turkestan are analyzed based on primary sources.

Key words: *Turkestan, Bukhara, modernism, Istanbul, press.*

References

Becker, Seymour. 1968. *Russia's Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865 – 1924*. Harvard University Press, Cambridge, Massachusetts.

"*Bukhārā istiqlālina su'-i qaşd*". 1910. Şırāt-ı Müstaqīm 108 (29.09.1910): 68-69.

"*Bukhārāda khufya usūli*". 1910. Ta'aruf-i Müslimîn 1/5 (11.06.1910): 69-70.

"*Bukhārādan aldighimiz bir waraqa*". 1910. Ta'aruf-i Müslimîn 1/9 (05.08.1910): 151-154.

"*Bukhārādan maktüb*". 1909. Şırāt-ı Müstaqīm 69 (30.12.1909): 266-268.

"*Bukhārādan maktüb*". 1910. Şırāt-ı Müstaqīm 82 (30.03.1910): 74.

Bukhārā mukhābir-i makhūsimizdan. 1910a. "*Bukhārā waq'a-i alimasi*." Şırāt-ı Müstaqīm 76 (18.02.1910): 382-384.

Bukhārā mukhābir-i makhūsimizdan. 1910b. Şırāt-ı Müstaqīm 82 (30.03.1910): 74-75.

Bukhārā mukhābirlarimizdan. 1910. "*Bukhārā hāli tahlikada ...!*" Ta'aruf-i Müslimîn 1/2 (29.04.1910): 29-30.

Bukhārī, Ş. M. 1909. "*Bukhārāda sharī'at nāmına irtikāb olan jināyat*." Şırāt-ı Müstaqīm 66 (09.12.1909): 221-222.

Husnī, Nūr 'Alizāde. 1910a. "*Bukhārāda sunnilar, şī'ilar*." Şırāt-ı Müstaqīm 74 (03.02.1910): 350-352.

Husnī, Nūr 'Alizāde Ghiyāth al-Dīn. 1910b. "*Bukhārāya dā'ir*." Şırāt-ı Müstaqīm 82 (30.03.1910): 75.

Husnī, Nūr 'Alizāde Ghiyāth al-Dīn. 1910v. "*Bukhārāya dā'ir*." Şırāt-ı Müstaqīm 91 (02.06.1910): 228-230

Ḥusnī, Nūr ‘Alizāde Ghiyāth al-Dīn. 1910g. “*Bukhārā.*” Şırāt-ı Müstaqīm 102 (18.08.1910): 412-413.

İbrāhīm, ‘Abd al-Raşīd. 1910a. “*Pānturānizm.*” *Ta’āruf-i Müslimîn* 1/2 (29.04.1910): 17-20.

İbrāhīm, ‘Abd al-Raşīd. 1910b. “*Yana Pānturānizm*” yāki “*Aqwām-i Türk’in birleşmesi.*” *Ta’āruf-i Müslimîn* 1/5 (11.06.1910): 57-58.

Kanlıdere, Ahmet. 2014a. “*Sırât-ı müstakîm Dergisinin Buhara Uyanışı Üzerindeki Etkileri (1909-1911).*” – VIII. Milletlerarası Türkoloji Kongresi. 30 Eylül – 04 Ekim 2013. Bildiri Kitabı – IV. İstanbul, 552-565.

Kanlıdere, Ahmet. 2014b. “*Türk Basınında Türkistanlı Ceditçilerin Kültürel Faaliyetleri 1910-1914.*” *Marmara Türkiyat Araştırmaları Dergisi* 1: 167-176.

Komatsu, Hisao. 2001. “*Bukhara and Istanbul: A Consideration about the Background of the Munāẓara.*” In *Stephane A. Dudoignon and Komatsu Hisao (eds.). Islam in Politics in Russia and Central Asia (Early Eighteenth to Late Twentieth Centuries)*. London, New York, and Bahrain: Kegan Paul, 169-170.

Sibiriyali, ‘Ālimcan al-İdrisī. 1909. “*Bukhārāda taḥsil*” Şırāt-ı Müstaqīm 59 (21.10.1909): 111-112.

Träiskli, Aḥmad Tāj al-Dīn. 1909. “*Zawalli Bukhārā ...!*” Şırāt-ı Müstaqīm 64 (24.11.1909): 187-190.

Träiskli, Aḥmad Tāj al-Dīn. 1910a. “*Badbakht ḥukmdār, zawalli Bukhārā ...!*” *Ta’āruf-i Müslimîn* 1/3 (13.05.1910): 43-46.

Träiskli, Aḥmad Tāj al-Dīn. 1910b. “*Afghānistān – Bukhārā.*” *Ta’āruf-i Müslimîn* 1/8 (22.06.1910): 128-132.

Träiskli, Aḥmad Tāj al-Dīn. 1910v. “*Bukhārā talabalarila ḥasb-i ḥāl.*” *Ta’āruf-i Müslimîn* 1/15 (23.09.1910): 241-245.

Träiskli, Aḥmad Tāj al-Dīn. 1910g. “*Māwarāunnaḥrda İngiltarra.*” *Ta’āruf-i Müslimîn* 1/17 (14.10.1910): 275-278.

Zābid Afandi. 1910. “*Khiva ḥākimi marḥūm Sayyid Muḥammad Raḥīm Bahādirkhān.*” Şırāt-ı Müstaqīm 109 (06.10.1910): 78-79.

Iskandarov, B. 1958. *Iz istorii Bukharskogo emirata*. Moskva.

Kotiukova, T. 2016. *Turkestan v imperskoj politiki Rossii: monografija v dokumentakh*. Moskva: Kuchkovo pole.

Ostroumov, N. 1908. *Sarty. Etnograficheskiye materialy*. Tashkent.

Tarixiy shaxs tasvirida tarixiy fakt va talqin muammosi

Gulbahor Ashurova¹

Abstrakt

Mustaqillik yurtimizning barcha ijodkorlariga yangicha fikrlash va ijod qilish, o'zining yuksak adabiy-estetik idellarini targ'ib qilish, tarixiy fakt va talqin muammosini yoritish orqali tarixiy haqiqatni ro'yi-rost, haqqoniy ko'rsatib berish, buyuk tarixiy siymolar haqida asar yaratish imkoniyatini berdi.

Badiiy adabiyotdagi bunday evrilishlar ijodkorlarning asarlarida ham o'z aksini topdi. Tarixiy fakt va talqin muammosi, adabiy-estetik ideal kategoriyasi xorij va o'zbek adabiyotshunoslari hamda adabiyotshunoslikka yondosh bo'lgan bir qator fan tarmoq vakillari tomonidan ularning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga ko'ra turli darajada yoritilganligini ko'rish mumkin.

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida buyuk tarixiy siymolar, tarixiy shaxslar tasvirida tarixiy fakt va talqin muammosining yoritilishi, tarixiy asarning yaratilishiga sabab bo'lgan omillar, badiiy asarga berilgan baho, mustaqillik davri o'zbek nasrida tarixiy siymolarga munosabat masalasi, xususan, Navoiy siymosining ifoda etilishi muammosi e'tiborga olingan. Shuningdek, maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotida tarixiylik va tarixiy shaxs obrazining badiiy talqini tadqiqi atroflicha yoritilganligi bilan ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: *Mustaqillik davri, o'zbek adabiyoti, roman, tarixiylik, obraz.*

Kirish

Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti kontekstida barcha adabiy janrlarda muayyan evrilish jarayonlari ko'zga tashlanmoqda. Xususan, bunday o'zgarish tarixga munosabat va tarixiy shaxslarga estetik munosabat tarzida yaqqol namoyon bo'layotganligi bilan bog'liq. Ayniqsa, hazrat Alisher Navoiyning betakror siymosi tarixiylik, tarixiy shaxs badiiy obrazining talqin etilishi mustaqillikdan avvalgi talqindan boshqa qiyofada kitobxon ko'ngil olamida yangicha rakursda namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun bugungi kunda Navoiy

¹ Ashurova Gulbahor Nurullayevna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.
E-mail: gulbahora777@gmail.com
ORCID ID: 0000-0001-6079-7814

yashagan tarixiy davr, adabiy muhit, Navoiyning tafakkur, taxayyul, tasavvur, ruhiy olamining haqqoniy tasviri tarixiy shaxs tasviridagi tarixiy fakt, talqin muammosi, me'yor va mezonlar muammosini o'rganish ehtiyoji tug'ildi.

Mustaqillik davri ko'plab tarixiy shaxslar hayotiga oid mavzu va muammolarni ancha dadil va kengroq miqyoslarda mushohada qilish imkonini berdi. Buyuk mutafakkirlar (Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Forobiy, Alisher Navoiy), jahoniy e'tiroflarga sazovor bo'lgan davlat arboblari va sarkardalar (Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur...) ko'plab qalam ahli (Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ogahiy va boshqa) yozuvchi, shoirlarimizning diqqat markaziga ko'chdi. Xususan, bu davrda mutafakkir shoir, hazrat Alisher Navoiy hayoti va ijodiga e'tibor kuchaydi. Navoiy shaxsiyati oddiy shaxsiyat emas. U insonparvarlik g'oyalari targ'ibotchisi bo'lish bilan birga, ularni hayotga tadbiq etishga intilgan faol va jasur inson edi. Binobarin, uning tengsiz shaxsiyati, o'zi yaratgan asarlaridagi g'oyalar bilan uyg'unlashib shoirning hayotlik davridanoq tarixiy-badiiy asarlarning qahramoni bo'lganligini ko'rish mumkin.

Mustaqillik badiiy adabiyotda tarixiy shaxs fenomenini ro'yi – rost poetik tasvirlash imkonini berdi. Bu davrda o'zbek adabiyotida ko'plab tarixiy shaxslar, jumladan, Alisher Navoiy siymosi yoritilgan ko'plab badiiy asarlar – hikoya, qissa, roman, poema, lirik va dramatik asarlar yaratildi. Ularda ulug' shoir va mutafakkir siymosi haqqoniy tarixiy fakt va voqelikka asoslangan tamoyil orqali yoritilgani bilan ahamiyatlidir.

Zamonaviy adabiy jarayon an'ana tuprog'idan oziqlanadi. Binobarin, Navoiyning xalq poetik tafakkurini anglash darajasi an'ana va yangilik, obrazning tarixiy asoslari, poetik mahorat va ijodiy individuallik kabi masalalar bilan hamohang.

Hazrat Navoiy nomi nafaqat folklor va mumtoz adabiyotda, balki mustaqillik davri o'zbek zamonaviy adabiyotining barcha tur va janrlarida ham tilga olinishi bejiz emas.

Akademik B.Nazarov Amir Temurning badiiy adabiyotdagi tasvirlanish tarixi haqida gapirib turib, jumladan, shunday deydi: "Shu vaqtgacha bu daho siymosi haqida o'nlab tillarda yuzlab, ehtimol, minglab tarixiy bitiklar, maqola va tadqiqotlar, turli janrlarda badiiy asarlar yozildi. Ular ichida xolis niyat bilan yozilganlari oz emas. Biroq ba'zilar yetarlicha aniq manbalarga ega bo'lmay turib, ayrimlari borib tugan noxololislik va g'arazgo'ylik tufayli, qanchadan-qancha namunalari esa, mafkuraviy tushovda yaratilgani sabab

bu ulug' zot va u bilan bog'liq tarix ko'pdan-ko'p hollarda bir yoqlama, hatto, buzib ko'rsatildi, noto'g'ri talqin etildi, mahoratdagi noqisliklar bois badiiy jihatdan teran va to'laqonli aks ettirilmadi...

Buyuk mustaqillik Amir Temurni nainki o'zbek xalqi, balki umuman, jahon xalqlariga qaytarib berdi! Murakkab, to'zonli va to'fonli tarix sarhadlarida yotgan ma'lumotlarning saragini saraga, puchagini puchakka ajratish, haqiqatlar yuzini g'uborlardan tozalash imkoniyatlari ochildi. Yangi zamon, o'z navbatida muarrix olimlar va adiblar oldiga yangi-yangi vaziflar qo'ydi" [Nazarov 2019, 50-51].

Mazkur mulohazalar ko'p jihatdan badiiy adabiyotdagi Alisher Navoiy siymosi muammosiga ham mos va muvofiqligini e'tirof etish o'rinli bo'ladi.

Sobiq Sovet davri mafkurasi Navoiy shaxsiyati va ijodiga nisbatan ham tuzumning talablari asosida uning diniy-tasavvufiy dunyoqarashi, olam va odamga munosabati masalasi haqqoniy tarixiy voqeliklar asosida yoritilishi cheklangan yoxud ayrim holatlarda mutlaqo biryoqlama talqinlarni ma'qullar edi. Boshqa narsalar haqida to'xtab o'tirmasdan birgina Navoiy va Husayn Boyqaro yoki Navoiy va Binoiy munosabatlari talqini haqida mulohaza yuritishning o'ziyoq bu boradagi cheklanishlarni tasavvur qilish imkonini beradi.

Badiiy adabiyot – hayotning in'ikosi. Bu aksiomani keltirishdan maqsad shuki, yuqorida aytilgan noo'rin mulohazalarning paydo bo'lishi, ularning badiiy adabiyotga ko'chib o'tishi ham, aslida ilmiy doiralardagi ayrim nojoiz mulohazalarning aks-sadolari edi, xolos.

Bu boradagi fikrlarga batafsil to'xtamasdan, ularning sabab va oqibatlarini juda ixcham va haqqoniy tarzda ko'rsatib berilgan bir ko'chirmani keltirish bilan kifoyalanish maqsadga muvofiqroq bo'lar. Bu mulohazalar akademik A.Mirzoevga tegishli: "Ushbu noxolis iddaolar badiiy adabiyotga ham ta'sir qildi. Oybek "Navoiy" romanida Navoiy va Binoiy o'rtasidagi buzib ko'rsatilgan munosabatlar tasviridan chetda qololmadi" [Mirzoyev 1976, 363]. Ayni hodisalar Mirkarim Osim, Uyg'un va Izzat Sulton asarlarida ham qisman namoyon bo'lgan edi.

Alohida ta'kidlash joizki, tarixiy siymolarning badiiy talqini muammosi jahon adabiyotshunosligining diqqat-e'tiborida eng muhim ilmiy muammolar sirasiga kiradi. Faqat yozuvchi va shoirlarning o'zigagina bag'ishlangan ilmiy ishlar hajmini bor qamrovi bilan tasavvur qilishning o'zi ham oson emas. Ularning ayrimlarini qayd etish mumkin. Tarixiy siymolar obrazini yaratishda Fitrat, Oybek, Uyg'un, Asqad Muxtor, Odil Yoqubov, Bo'riboy Ahmedov,

Pirimqul Qodirov, Abdulla Oripov, Asror Samad, Nurali Qobul, Muhammad Ali, Xurshid Davron, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo, Isajon Sulton, G'ayrat Majid, Muzaffar Mirzo, To'ra Mirza va boshqa ko'plab ijodkorlar barakali mehnat qilishdi.

Alisher Navoiy siymosi tasvirida vatanga, millatga fidoyilik tuyg'ulari ustuvorlik qiladi. Hatto Husayn Boyqaro bilan do'stlik munosabatlari tasvirlarida ham mualliflar bu tuyg'ularning yurt va vatanga muhabbat tuyg'ulari bilan eshligini, yaxlitligini maxsus urg'ulaydi. Ushbu jarayondagi yuksak axloqiy-ma'naviy talablar bilan tabiiy uyg'unlik esa Alisher Navoiy siymosini yanada go'zal, salobatli va yoqimli qiladi.

Badiiy ijodning sir-u sinoati nihoyatda ko'p. Ularning asl mohiyatini inkishof etish har doim ham qiyin. Badiiy asar qanday yoziladi? Nega yoziladi? Kim uchun yoziladi? Bunday savollarni uzluksiz davom ettirish mumkin. Albatta, hozirgacha olingan javoblar ham oz emas.

Tarixiy shaxs tasviridagi o'ziga xoslikning asosiysi shundaki, unda mavzu aniq va uning chegara qamrovi ham taxminan belgilidir. Shunga qaramay, bu "aniqlik" va "chegaralarning belgisi" ekanligi shu qadar kattaki, uning bor hududini tasavur qilishning o'zi oson emas.

Tarixiy shaxs tasviri va talqinida qahramonlarning "bugunimiz uchun qadrlil va qimmatli bo'lgan xususiyatlarni badiiy talqin markaziga tortish muhim o'rin" tutadi [Nazarov, Barhayot asar. 2019. 6]. Ayni mana shu maqsadda jalb etilgan tarixiy fakt va materiallar talqini ham o'ziga xos yondashuvlar tizimi bilan ajratib olinishini qayd etish lozim. Muhimi, ayni mana shu tanlov asarning hayotiy, jonli, ta'sirchan, kitobxon uchun huzur va maroq bag'ishlashi lozim.

Qahramon ruhiyatini tasvirlashda qanday usullardan foydalanish adibning tajriba va mahoratiga bog'liq. Bunda tavsif, portret chizgisi, monolog va dialoglar, tabiat lavhalari, boshqalar tilidan mulohaza bildirish va boshqa vositalar qo'llanadi. Bir qahramonni boshqa bir qahramon bilan muqoyasa qilish, qiyoslash yoki zid qo'yish ham shu siraga kiradi [Nazarov 2019, 23].

Alisher Navoiy islomiy aqidalarning to'la-to'kis ado etilishini, bunday urf-odatlarining jamiyat hayotida nihoyatda katta va jiddiy mavqega egaligini, ayniqsa, hokim tabaqaning bu boradagi tutumlarni ularning xalq oldidagi obro'-e'tiborlarining ham tegishli darajada baholanishidagi bosh omil ekaninini yaxshi biladi. Tarixiy romanlarda ayni mana shu jihat qay tarzda o'z ifodasini topgan? Qahramon nutqi uning tarixiy muhit, tarixiy sharoitdagi holatni tasvirlash va tasdiqlash uchun ko'proq xizmat qiladi. Ayni paytda u qahramonni

bizning zamonamiz bilan ham yaqinlashtirishga xizmat qilishi mumkin. Tarixiy asarning zamonaviyligi, ehtimol, bir jihatdan ayni mana shu nuqtalarga ham bog'liqdir. Bunda qahramon nutqi zamonaviy muammolar bilan uyg'un kela boshlaydi.

“Badiiy obrazni yaratish jarayoni dastlab, materiallarning qat’iy saralanishi demakdir: san’atkor tasvirlanayotgan obrazning eng xarakterli jihatlarini oladi, barcha tasodifiy narsalardan voz kechadi, u yoki bu qirralarini to’liq yorqinlashtirganiga qadar yiriklashtirish yoki o’tkirlashtirish hisobiga rivojlantirib boradi” [Крупчанова 2009, 40]. Har qanday yozuvchi tasvir davomida nutqning funksional-mantiqiy tiplarga murojaat qilib boradi. Ular ko’proq tavsif, hikoyalash, mulohaza shakllarida namoyon bo’ladi. Tavsif muayyan narsa hodisa, makon yoki zamonni, alohida yoki bir necha shaxslarning so’z vositasidagi tasvirlaridir. Hikoyalash hodisalar haqidagi hikoyadir. Hikoyalashning matni – turli harakatlar, hodisalarni izchil ko’rsatib berish deganidir. Mulohaza esa muayyan fikrni so’z vositasida bayon etish, tushuntirish, izohlash va tasdiqlashdan iborat [Русский язык и культура речи 1979, 210]. Ayni mana shu shakllar adabiy qahramon va unga bog’liq bo’lgan tasavvurlarning to’liq yoki to’liq bo’lmazligiga sabab bo’lishi mumkin.

Bu tezisning isboti uchun mutafakkir adib haqida yaratilgan asarlar tahlilidan oldin Amir Temur nutqida qo’llangan birgina so’zning ijtimoiy hamda adabiy-estetik quvvatini tasdiqlab turadigan bir faktga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq ko’rinadi. Bu faktni bizga Amir Temur obrazining G’arbiy Yevropa adabiyotidagi talqinlari bilan shug’ullangan olim S. Ermatov tavsiya etadi: “Kastiliya qirol i Enrike (Genri) III ning elchisi Rui Gonsales de Klavixoning 1404 yilda Samarqandga tashrif buyurganligi va uning buyuk Sohibqiron tomonidan iliq qabul qilinganligi tarixdan yaxshi ma’lum. Klavixo ushbu qabul marosimi haqida quyidagilarni yozadi: “...Shunda Temur Bek bizga onhazrat qirolimiz haqida savollar berdi: “Qirol o’g’limning ishlari qalay? Sog’ligi joyidami?” Bir qarashda nima uchun Amir Temurdek buyuk zot yiroqdagi Kastiliya qirolini “o’g’lim” deb atagani o’quvchiga qorong’uligicha qoladi. “Yeti iqlim sultoni” kitobining muallifi, angliyalik Hilda Hukhem bu haqda so’z yuritir ekan, “o’g’il” so’zi tobeinlarga nisbatan murojaat shakli edi”, deb yozadi. Bunga o’zbek olimi, tarix fanlari nomzodi (endilikda tarix fanlari doktori – G.A.) A. Ziyoev ham qo’shiladi: “O’sha zamon diplomatiyasi tilida “o’g’lim” degani – “menga tobe” degani bo’lgan”. Biz, afsuski, ularning bu fikriga qo’shilmaymiz. Bunga sabab, birinchidan, ingliz adibasi va A.Ziyoevdan boshqa na sharqlik va na g’arblik biror muarrix bunday

fikrni bildirmagan. Ikkinchidan, Kastiliya va Leon qiroli Enrike III Amir Temurga tobe bo'lmagan. Sohibqiron Enrike III ni nima uchun "o'g'lim" deb ataganini bilish uchun esa Enrike III ning hayotiga va Amir Temur bilan Kastiliya qiroli o'rtasidagi munosabatlar tarixiga nazar solmoq lozim. Enrike III 1379-yili Burgos shahrida Kastiliya qirollari oilasida dunyoga kelgan. 1390 yili otasi otdan yiqilib tushib, bevaqt vafot etgan. 1393-yili o'n to'rt yoshida taxtga o'tirgan Enrike III qisqagina hukmdorligi davrida mamlakatda tinchlik o'rnatdi, iqtisodiy ahvolni o'ngladi. U tashqi siyosat borasida ham mohir diplomat sifatida tanildi. Enrike III nomiga yoshligidanoq "xasta" (el Dolente) so'zini qo'shib aytishardi, biroq uning nima bilan og'rigani haqida tarixda aniq ma'lumotlar yo'q. Enrike III o'sha paytda Kichik va Markaziy Osiyolarda ro'y berayotgan voqealardan yaxshi habardor bo'lgan, Yildirim Boyazid Yevropaga solayotgan tahdiddan tashvishga tushgan. Shu sababli ham u Amir Temur haqida to'liqroq ma'lumot olish uchun Sharqqa o'z elchilari Payo Gomes de Sotomayor va Hernan Sanches Palasuelosni yubordi. Ular 1402-yili 28-iyulda Anqara jangining shohidlari bo'lishgan, Amir Temurni zafar bilan qutlashgan. Ispan tarixchisi Gil Davila Gonsales "Kastiliya qiroli Enrike IIIning hayoti va faoliyati" kitobida yozishicha, Amir Temur elchilarga jangovar qurollar tuhfa etgan. Sohibqiron tomonidan iliq qabul qilingan Sotomayor va Palasuelos Enrike III ni ko'klarga ko'tarishgan, uning Amir Temur bilan do'stona aloqalar o'rnatish niyatida ekanligini ma'lum qilishgan. Elchilar 1403 yili fevralida Kastiliyaga qaytib borishadi. Ularni va Sohibqiron yo'llagan elchi Muhammad Keshiyi qiroli Enrike III o'zining Segoviyadagi qasrida qabul qiladi. Amir Temurning ehtiromidan Enrike III bag'oyat ta'sirlanadi va do'stona munosabatlarni rivojlantirish uchun zudlik bilan Samarqandga yangi elchi Rui Gonsales de Klavixoni jo'natadi. Amir Temur Samarqandga yetib kelgan Klavixodan qirolning sog'ligi haqida so'raganida tamoman haqli edi. Zero, u dastlabki ispan elchilari va Kastiliyaga borib qaytgan o'z elchisi orqali Enrike III ning xastaligidan xabardor bo'lgan. Bu bilan u o'zining nafaqat o'ta madaniyatli va dono davlat rahbariligini namoyon etgan, balki o'z saltanati bilan do'stona munosabatlar o'rnatgan uzoq Kastiliya qiroliga otalarcha g'amxo'rlik ko'rsatgan. Amir Temurning qiroli elchilariga aytgan quyidagi so'zlari ham aynan shundan dalolat beradi: "Qiroli sizlarni sovg'asiz, faqat (birgina) maktub bilan yuborganida ham men o'g'limning sog'ligini bilib, sovg'a olganday xursand bo'lur erdim" [Ermatova 2009, 12-13]. Amir Temurning o'zbek adabiyoti tarixida mavjud obrazini takrorlamaslik uchun izlanish, tarix kitoblarini o'qish, buyuk jahongirning

ko'nglini tushunish hamda e'tiqodiy amal va a'mollarini bayon etish uchun yozuvchi keng ko'lamli dunyoqarashga ega bo'lishi lozim. Tarixni tiriltirish uchun voqelik tafsiloti, sanalar yoki ma'lumotlarni bilishning o'zi kamlik qiladi. Oddiy, quruq ma'lumot bayoni, xabar matnlari o'quvchini zeriktirishi mumkin. Asrlar bag'rida sokin yotgan sohir ovoz sadolanishi uchun tarixiy faktda haqiqat va talqinda teranlik, xuddi rubob toridek chertganda ohangrabodek o'ziga jalb etuvchi ohang tarqatishi lozim. Tarixni tilga kiritish, tarixiy shaxslarni "so'zlatish", "kiyintirish", ishonchli portretlarini chizish, moziy muhitiga mos fikrlatish, qalbiga quloq tutib, dardu alamini anglash – bularning bari yozuvchidan tarixiy haqiqatni tarixiy fakt va mezonlarga asoslanib yozishni talab etadi. Yuqorida keltirilgan misol bu jihatning nechog'li muhimligini ko'rsatuvchi omildir.

Xulosa

Yuqoridagi talqinlarga asoslanib quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Badiiy asarning yaratilishi ko'plab omillarga bog'liq. Tarixiy mavzudagi asarlarda mana shu omillar bilan birgalikda real ijtimoiy-tarixiy hodisalarning badiiy adabiyotga "ko'chishi" bilan bog'liq qonuniyatlar ham amal qiladi.

2. Tarixiy fakt va materiallar o'z-o'zicha "adabiy material" bo'lib qolmaydi. Bunda ijodkorning nihoyatda murakkab bo'lgan ijodiy fikrlash jarayonidagi umumlashtirish, saralash va tanlash tamoyillari ustuvor mavqe tutadi.

3. Tarixiy shaxs tasviri va talqinida qahramonlarning "bugunimiz uchun qadrlil va qimmatli bo'lgan xususiyatlarni badiiy talqin markaziga tortish muhim o'rin" tutadi. Ayni mana shu maqsadda jalb etilgan tarixiy fakt va materiallar talqini ham o'ziga xos yondashuvlar tizimi bilan ajratib olinishini qayd etish lozim. Muhimi, ayni mana shu tanlov asarning hayotiy, jonli, ta'sirchan, kitobxon uchun huzur va maroq bag'ishlashi bilan xarakterlidir.

4. Hikoyalash hodisalar haqidagi hikoyadir. Hikoyalashning matni – turli harakatlar, hodisalarni izchil ko'rsatib berish deganidir. Mulohaza esa muayyan fikrni so'z vositasida bayon etish, tushuntirish, izohlash va tasdiqlashdan iborat. Mustaqillik davri o'zbek nasrida ayni mana shu shakllar adabiy qahramon va unga bog'liq bo'lgan tasavvurlarning to'liq yoki to'liq bo'lmasligi tarixiy fakt va talqin muammosining yechimida ko'rinadi.

5. Tarixiy shaxs tasviri va talqinida qahramonlarning "bugun-

imiz uchun qadrlı va qimmatlı bo'lgan xususiyatlarni badiiy talqin markaziga tortish muhim o'rin" tutadi. Ayni mana shu maqsadda jalb etilgan tarixiy fakt va materiallar talqini tarixiylik kontekstida o'ziga xos yondashuvlar tizimini tashkil etadi.

6. O'zbek adabiyotida tarixiy shaxs tasvirida tarixiy fakt va talqin muammosi, tarixiy asarning yaratilishi, unga berilgan baho mustaqillik davri o'zbek nasrida tarixiy siymolarga munosabat, ayniqsa, Navoiy siymosining ifoda etilishi masalasi bilan uzviy bog'liqdir.

Adabiyotlar

Сирожиддинов, Ш. 2011. *Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили*. Тошкент: Академнашр.

Тўхлиев, Б. 2017. *Алишер Навоий ҳаёти ва ижоди (Альбом-қўлланма)*. Тошкент: Баёз.

Жумаҳўжа, Н. 1996. *Сапрлар силсиласидаги сеҳр*. Тошкент: Ўқитувчи.

Жабборов, Нурбой. 2015. *Шеър аҳлининг икки жаҳонгири. Замон, мезон, шеърят*. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.

Йўлдош, Қ. 2020. *“Моҳият реаллиги ифодаси”. Романга сўнгги сўз*. Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти.

Журақулов, У. 2017. Алишер Навоий “Хамса”сида хромотоп поэтикаси. Филол. фан. док. дисс. автореф. Тошкент.

Якубов, Ислон. 2018. *Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси*. 71. Тошкент. Филол. фан. д-ри (ДС) дисс. автореф.

Алибеков, А. 2005. *“Тарих жозибаси”. Моҳият 30 декабрь*.

Эрматов, Б. 2019. *Ғарбий Европа мамлакатлари адабиётларида Амир Темур сиймоси (сарчашмалар, тасаввур ва талқинлар)*. Филол. фан. дисс. автореферати. Тошкент.

Расулмуҳамедова, Д. 2000. *Истиқлол даври ўзбек драматургиясида Амир Темур образини яратиш муаммолари*. Филол. фан. ном. дис. автореф. Тошкент.

Юсупова, Г. 2005. *Ҳозирги ўзбек романларида Амир Темур ва темурийлар образининг бadiий талқини*. Филол. фан. ном. дисс. автореф. Тошкент.

Хамраева, Маърифат. 2010. *Тарихий ҳақиқат ва бadiий талқин (насрий асарларда Амир Темур образи)*. Тошкент. Филол. фан. ном. дис. автореф.

Мирзоев, А. 1976. *Камал ад-Дин Бинаи*. Москва: Наука.

Назаров, Б. 2019. *Барҳаёт асар. Адабий-танқидий мақолалар*. Тошкент: Машхур-пресс.

Ҳайдарова, Р. *Тарихий ҳақиқат, бадиий тўқима ва уйдирма*. <http://uchildiz.uz.uz/tarixiy-haqiqat-badiiy-to'qima-va-uydi/>

Введение в литературоведение. 2009. Под общей редакцией Л.М.Крупчанова. Москва: ОНИКС.

Русский язык и культура речи. 2010. 17 практических занятий. Под редакцией Евгений Ганаплской, Алексей Хохлова. СПб, Питер.

The problem of historical fact and interpretation in the portrait of a historical person

Gulbahor Ashurova¹

Abstract

Independence gave all the creators of our country the opportunity to think and create in a new way, to promote our high literary and aesthetic ideals, to show the historical truth truthfully, and to create works about great historical figures.

Such developments in fiction were also reflected in the works of many writers. It can be seen that many foreign and Uzbek literary scholars and representatives of a number of branches of science studied the problem of historical fact and interpretation, the category of natural-aesthetic ideal. Their works covered issues related to literary studies in different degrees according to the goals and tasks they have set for themselves.

This article deals with Uzbek literature Great historical figures, illumination of the problem of historical fact and interpretation in the image of historical figures, the factors that caused the creation of a historical work, the assessment of an artistic work. It also discusses the issue of attitude to historical figures in the Uzbek prose of the independence period, particularly, the problem of the expression

¹ Gulbahor N. Ashurova – Associate Professor of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature Named after Alisher Navoi.

E-mail: gulbahora777@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-6079-7814

For citation: Ashurova, G.N. 2022. "The problem of historical fact and interpretation in the portrait of a historical person". Uzbekistan: Language and Culture 3:

of the figure of Navoi. The article studies historicity and the artistic interpretation of the image of a historical figure in modern Uzbek literature which becomes important.

Key words: *The era of independence, Uzbek literature, novel, historicity, image.*

References

Sirojiddinov, Sh. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

To'xliiev, B. 2017. *Alisher Navoiy hayoti va ijodi* (Albom-qo'llanma). Toshkent: Bayoz.

Jumaxo'ja, N. 1996. *Satrlar silsilasidagi sehr*. Toshkent: O'qituvchi.

Jabborov, Nurboy. 2015. *She'r ahlining ikki jahongiri. Zamon, mezon, she'riyat*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Yo'ldosh, Q. 2020. "Mohiyat realligi ifodasi". Romanga so'nggi so'z. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti.

Juraqulov, U. 2017. Alisher Navoiy "Xamsa" sida xronotop poetikasi. Filol.fan. dok. diss. avtoref. Toshkent.

Yakubov, Islom. 2018. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi. 71. Toshkent. Filol. fan. d-ri (DsC) diss. avtoref.

Alimbekov, A. 2005. "Tarix jozibasi". *Mohiyat* 30 dekabr.

Ermatov, B. 2019. *G'arbiy Yevropa mamlakatlari adabiyotlarida Amir Temur siymosi (sarchashmalar, tasavvur va talqinlar)*. Filol. fan. diss. avtoreferati. Toshkent.

Rasulmuhamedova, D. 2000. *Istiqlol davri o'zbek dramaturgiyasida Amir Temur obrazini yaratish muammolari*. Filol. fan. nom. dis. avtoref. Toshkent.

Yusupova, G. 2005. *Hozirgi o'zbek romanlarida Amir Temur va temuriylar obrazining badiiy talqini*. Filol. fan. nom. diss. avtoref. Toshkent.

Xamraeva, Ma'rifat. 2010. *Tarixiy haqiqat va badiiy talqin (nasriy asarlarda Amir Temur obrazi)*. Toshkent. Filol. fan. nom. dis. avtoref.

Mirzoev, A. 1976. *Kamal ad-Din Binai*. Moskva: Nauka.

Nazarov, B. 2019. *Barhayot asar. Adabiy-tanqidiy maqolalar*. Toshkent: Mashhur-press.

Haydarova, R. *Tarixiy haqiqat, badiiy to'qima va uydirma*. <http://uchildiz.uz.uz/tarixiy-haqiqat-badiiy-to'qima-va-uydi/>

Vvedenie v literaturovedenie. 2009. Pod obshchey redaksiei

L.M.Krupchanova. Moskva: ONIKS.

Russkiy yazыk i kultura rechi. 2010. 17 prakticheskix zanyatiy. Pod redaksiey Yevgeniy Ganaplskoy, Aleksey Xoxlova. SPb, Piter.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

O'zbekiston: til va madaniyat (O'zTM) – zamonaviy O'zbekiston (sobiq Turkiston) bilan bog'liq bevosita Markaziy Osiyo mintaqasini birlashtiradigan til, tarix, san'at, etnografiya, madaniyat va ijtimoiy fanlar sohalarini qamrab olgan ilmiy jurnaldir. O'zTM munozarali, zamonaviy, innovatsion, konseptual jihatdan qiziqarli, original mavzudagi ilmiy tadqiqotlarni nashr qiladi. Jurnal lingvistika, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, din, falsafa, ilohiyot, fan, ta'lim, metodika, sotsiologiya, psixologiya, tarix, madaniyat, san'at, etnologiya, etnografiya, antropologiyaga oid ilmiy yo'nalishdagi maqolalar va taqrizlar hamda konferensiya hisobotlarini qabul qiladi.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo'lyozmalar o'zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham qabul qilinadi. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr ettirmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etilishi lozim.

Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (uzlangcult@gmail.com) elektron pochta-siga yuboriladi. Iqtiboslar va izohlar uchun MS Word menejerini qo'llash mumkin.

Barcha qo'lyozmalar tahririyatga muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan taqdim etiladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantiriladi. Maqola matni 3 000–5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

O'zbek va ingliz tillarida 100–150 so'zdan iborat abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so'zdan kam bo'lmagan kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstraktda maqolaning qisqacha mazmuni va dolzarbligi, tadqiqot natijalari aks etishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to'q bo'yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tilda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – to'q bo'yoqda, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

VII. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

VIII.1. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*, Shahar: Nashriyot nomi.

Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent: Ma'naviyat.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi. Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya, kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]

[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anijon, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq mualliflari bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismlari to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda birinchi muallif ismi yoziladi va "boshqalar" deb ko'rsatiladi.

[Familiya va boshqalar kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya"ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*, Olim To'laboyev muharrirligida, 174–184. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdug'afurov 2016, 176]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Mamatov, Ulug'bek. 2018. *O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari*.

Toshkent: Mumtoz so'z. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/>. 12.03.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Маматов 2018, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago:

Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

VIII.2. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. "Termin, badiiy so'z va metafora". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 3 – 8. Toshkent.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. "O'zbekiston san'atida temuriylar siymosi". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 – 253. doi: 10.36078/1596780051.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

VIII.3. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro‘yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo‘yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo‘lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko‘rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Gazeta-jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. “Jomiy “Xamsa” yozganmi?.” *O‘zbekiston adabiyoti va san’ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. “Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi”. *UZA: O‘zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12. <https://uza.uz/uz>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Jabborov 2010, 17]

Maqola so‘ngida foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxati ikki qismdan iborat bo‘lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko‘rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini “The Chicago Manual of Style, 16th Edition” qo‘llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle.havo->

lasidan ko'rib olishingiz mumkin.

GUIDELINES FOR CONTRIBUTORS

Uzbekistan: language and culture is an academic journal, publishing research in linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies. We aim to publish cutting edge, innovative, conceptually interesting, original case studies and new research, which shape and lead debates in multifaceted studies. We do not publish economic analyses or policy papers. Any opinions and views expressed in publications are the opinions and views of the authors, and the publishers are not responsible for the views/ reviews of the contributors.

The journal is published four times a year. The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcomed. In addition to research articles, the journal welcomes book reviews, literature overviews, conference reports and research project announcements.

1. General

- Submission Guideline

1. Manuscripts may be submitted at any time during the year. However, if the author wishes to have his/her manuscript published in a certain issue of the journal, the submission should be made at least five months in advance of the proposed publication date.

2) Manuscripts should be submitted by email (uzlangcult@gmail.com) as an attachment in MS Word document (.doc) format and use MS Word Source.

3) All manuscripts should be submitted with a cover page including an email address, a mailing address and a short introduction about the author(s) /contributor(s)'.

2. Manuscript format

1) The main texts should be written in Times New Roman font, 12 point, and single-spaced in 44 pagination with 1-inch margins.

2) Submissions must follow the author-date system of *The Chicago Manual of Style*, 16th Edition.

3) Quotations are given in brackets in the text.

4) A research article should normally be no more than 9,000 words in length, including the following contents:

- an abstract of 150-200 words (in English, Russian, and Uzbek) and seven to ten keywords;

- a list of references of no more than five (5) pages;

- tables and figures, if any.

5) A book review should generally be about 1,500 English words (or other languages) in length, and must include the heading and closing in the following format:

- Heading: *Title of the Book*. By Author's Name(s). City of Publication: Publisher Name, Year. pp. Price, ISBN:, (hardcover/paperback).

- Closing: Book reviewer's name, affiliation and postal address at the end.

6) Style Points Headings. Limit: Four levels.

Level 1. Title Style (e.g. the first letter of each word upper case, except prepositions), Bold, and 14 point.

Level 2. Title Style, Italics, 14 Point.

Level 3. Modified "down" style (first letter upper case, or first letter of first two words if the first word is an article), Bold, and 12 point.

Level 4. Modified down style, Bold, 11 point.

3. Style and Usage

1) Translation

- Translated excerpts from classical texts or non-English sources should be annotated with clarification of its original/published language and translator. Likewise, "Author's own" translations of quoted texts should be noted as such.

- The author is expected to provide an English translation of key terms in the work, rather than a translator without expertise in the subject.

- Excerpts or quoted texts from published translation will not be edited. However, UzLC editors may query or modify translations of key terms or texts provided by the author.

- Where necessary, short supplementary information such as dates, an item in its original characters, or the Romanized form of a non-English item, may be included.

- Names of foreign publishers, and titles of sources published in a foreign language should primarily appear in Romanized form without translation. However, if necessary, a translation may be added in brackets ([]).

2) Names and Terms

- Place Names (foreign):

Designation for division of areas should be either translated or hyphenated after the given area name.

Designation for geographical/structure names are not hyphenated, and appear without the equivalent English term.

Institutional names are considered proper nouns. Their names should appear following the preference of the individual institutions.

3) The descriptive designation of a period is usually lowercase, except for proper names or traditionally capitalized terms.

4. Quotation

1) Block Quotations:

- A block quotation should start with double line spacing and an indentation from the left margin. From the second paragraph of the block quotation, additional paragraph indentation is needed.

Texts in block quotation should be written in Times New Roman 10 pts., and not be entirely italicized.

5. Others

1) There is one space after sentence punctuation and not two.

2) The end parenthesis, closing quotation mark, and footnote numbers come after

the sentence punctuation.

3) For parentheses within parentheses, use brackets ([]).

6. Basic Citation Format

The following examples illustrate citations using the **author-date** system. Each example of a reference list entry is accompanied by an example of a corresponding parenthetical citation in the text. For more details and many more examples, see chapter 15 of *The Chicago Manual of Style*.

BOOK

Reference List (hanging indent):

Pollan, Michael. 2006. *The Omnivore's Dilemma: A Natural History of How Eating Has Evolved*. New York: Penguin.

In Text Cite:

[Pollan 2006, 99–100]

Reference List (hanging indent):

Ward, Geoffrey C., and Ken Burns. 2007. *The War: An Intimate History, 1941–1945*. New York: Knopf.

In Text Cite:

[Ward and Burns 2007, 52]

For four or more authors, list all of the authors in the reference list; in the text, list only the first author, followed by et al. (“and others”):

[Barnes et al. 2010, 847]

Reference List (hanging indent) book chapter:

Kelly, John D. 2010. “Seeing Red: Mao Fetishism, Pax Americana, and the Moral Economy of War.” In *Anthropology and Global Counterinsurgency*, edited by John D. Kelly, Beatrice Jauregui, Sean T. Mitchell, and Jeremy Walton, 67–83. Chicago: University of Chicago Press.

In Text Cite:

[Kelly 2010, 77]

Chapter of an edited volume originally published elsewhere (as in primary sources):

Reference List (hanging indent) book originally published elsewhere:

Cicero, Quintus Tullius. 1986. “Handbook on Canvassing for the Consulship.” In *Rome: Late Republic and Principate*, edited by Walter Emil Kaegi Jr. and Peter White. Vol. 2 of *University of Chicago Readings in Western Civilization*, edited by John Boyer and Julius Kirshner, 33–46. Chicago: University of Chicago Press. Originally published in Evelyn S. Shuckburgh, trans., *The Letters of Cicero*, vol. 1 (London: George Bell & Sons, 1908).

In Text Cite:

[Cicero 1986, 35]

BOOK PUBLISHED ELECTRONICALLY

If a book is available in more than one format, cite the version you consulted. For

books consulted online, list a URL; include an access date only if one is required by your discipline. If no fixed page numbers are available, you can include a section title or a chapter or other number.

Reference List (hanging indent): davaniya russkogo i inostrannykh yazykov, 84

Austen, Jane. 2007. *Pride and Prejudice: A Novel in Five Books*. New York: Penguin Classics. Kindle edition.

In Text Cite:

[Austen 2007, 101]

Reference List (hanging indent):

Kurland, Philip B., and Ralph Lerner, eds. 1987. *The Founders' Constitution*. Chicago: University of Chicago Press. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders>

In Text Cite:

[Kurland and Lerner, chap. 10, doc. 19]

Majidovich, K. 2021. "Features of Dialectal Gaps in the Language Vocabulary". *International Journal of Education* 4(10): 157-164.

Majidovich, K. 2021. "Filling Lexical Gaps in the Language Vocabulary With Dialectisms (Based On The Turkic-Kalta)". *International Journal of Education* 4(10): 157-164.

Majidovich, K. 2021. "Possibilities of Filling Lexical Gaps in the Language Vocabulary". *International Journal of Education* 4(10): 157-164.

Navoiy, A. 2012. Muhokamat ul-lug'at. Tashkent: G'afur G'ulom nomidagi madaniy meroslar xalqaro markazi. 515-519.

JOURNAL ARTICLE Khasanov, A. 2020. "The linguocultural aspects of the speech lacunae". *Lisoniy madaniy meroslar xalqaro markazi* 100-105.

Article in a print journal In the text, list the specific page numbers consulted, if any. In the reference list entry, list the page range for the whole article.

Rakhimjonovich T. 2020. "The study of the Uzbek and world linguistics". *Anglisticum. Journal of the Institute for English Language and American Studies* 220.

Reference List (hanging indent):

Weinstein, Joshua I. 2009. "The Market in Plato's Republic". *Classical Philology* 104:439-58.

In text cite:

[Weinstein 2009, 440]

Umurzakova, M. 2020. "The semantic segmentation constructions of the Uzbek language". *Theoretical & Applied Science* 5: 685-700.

Article in an online journal

Include a DOI if the journal lists one. A DOI is a permanent ID that, when appended to <http://dx.doi.org/> in the address bar of an Internet browser, will lead to the source. If no DOI is available, list a URL. Include an access date only if one is required by your discipline.

Reference List (hanging indent):

Kossinets, Gueorgi, and Duncan J. Watts. 2009. "Origins of Homophily in an Evolving Social Network." *American Journal of Sociology* 115:405-50. doi:10.1086/599247.

In text cite:

[Kossinets and Watts 2009, 411]

Vinay, J., Darbelnet, J. 1958. *Stylistique comparative de l'anglais et du français*. Paris: 1958.

Xolmanova, Z. 2021. "Alisher Navoiyning tarqatqiyotidagi o'rni". *Alisher Navoiy* 1: 9-18.

Xolmanova Z., Saidahmedova O., Nurilloloviyeva S. 2021. "Lakunarnost kak kriteriy kypchak dialect". *Lingvisticheskie issledovaniya* 1(1): 1-10.

Article in a newspaper or popular magazine

Newspaper and magazine articles may be cited in running text ("As Sheryl Stolberg and Robert Pear noted in a New York Times article on February 27, 2010..."); they are commonly omitted from a reference list. The following examples show more formal versions of the citations. If you consulted the article online, include a URL; include an access date only if your discipline requires one. If no author is identified, begin the citation with

the article title.

Reference List (hanging indent):

Mendelsohn, Daniel. 2010. "But Enough about Me." *New Yorker*, January 25.

In text cite:

[Mendelsohn 2010, 68]

Reference List (hanging indent):

Stolberg, Sheryl Gay, and Robert Pear. 2010. "Wary Centrists Posing Challenge in Health Care Vote." *New York Times*, February 27. <http://www.nytimes.com/2010/02/28/us/politics/28health.html>.

In text cite:

[Stolberg and Pear 2010, 12]

WEBSITE

A citation to website content can often be limited to a mention in the text ("As of July 19, 2008, the McDonald's Corporation listed on its website . . ."). If a more formal citation is desired, it may be cited as in the examples below. Because such content is subject to change, include an access date or, if available, a date that the site was last modified. In the absence of a date of publication, use the access date or last-modified date as the basis of the citation.

Bibliography (hanging indent):

Google. 2009. "Google Privacy Policy." Last modified March 11. <http://www.google.com/intl/en/privacypolicy.html>.

In text cite:

[Google 2009]

Reference List (hanging indent):

McDonald's Corporation. 2008. "McDonald's Happy Meal Toy Safety Facts." <http://www.mcdonalds.com/corp/about/factsheets.html>.

In text cite:

[McDonald's 2008]

IZOHLAR

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot
va axborot agentligi tomonidan 0936-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga
kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos
Hojib ko'chasi 103-uy.
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz
E-mail: uzlangcult@gmail.com

Bosishga 30.09.2022-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturası.
Shartli b.t. 7,51. Nashr b.t. 7,62.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida
tayyorlandi va sahifalandi.
"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.
Adadi 300 nusxa. Buyurtma №2.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,
58-a harbiy shaharcha.